O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“YARIMO‘TKAZGICHLAR

FIZIKASI VA ULAR ASOSIDAGI QURILMALARNING

ZAMONAVIY MUAMMOLARI”

MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

TO’PLAMI

2-SHO‘BA: YARIMO‘TKAZGICH ASOSIDAGI YANGI TURDAGI MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI

Namangan, 2023-yil.

QO’MITA A’ZOLARI

B.S. Yuldashev	**Rais, akademik, O’zR Fanlar Akademiyasi prezidenti**
I.Y. Abduraxmonov	**Rais o’rinbosari, O’zR Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar vaziri**
S.T. Turg’unov	**rektor. prof.(NamDU)**
O.O. Mamatkarimov	**rektor. prof.(NamMTI)**
Sh.T. Ergashev	**rektor. prof.(NamMQI)**
S.A. Baxramov	**akademik (O’zR FA PLTI)**
S.Z. Zaynobiddinov	**akademik (AndDU)**
A.T. Mamadalimov	**akademik (O’zMU)**
R.A. Muminov	**akademik (O’zR FA FTI)**
X.K. Olimov	**f.-m. f.d., prof. (O’zR FA FTI)**
I.A. Sadiqov	**f.-m.-f.d., prof. (O’zR FA IYaF)**
X.B. Ashurov	**f.-m. f.d., prof. (O’zR FA PLTI)**
G. Gulyamov	**f.-m. f.d., prof.(NamQI)**
R.Ya. Rasulov	**f.-m. f.d., prof. (FarDU)**
P.N. Usmanov	**f.-m. f.d., prof.(NamMTI)**
I.N. Karimov	**f.-m. f.d., prof. (AndDU)**
U.M. Turdaliev	**f.-m. f.d., prof. (AndDU)**
N.F. Zikrillaev	**f.-m. f.d., prof. (TDTU)**
R. Ikramov	**f.-m. f.d., prof. (NamMTI)**
SH.K. Nematov	**f.-m. f.d., prof. (TDTU)**
E.Z. Imamov	**f.-m. f.d., prof. (TATU)**
M.G’. Dadamirzayev	**f.-m. f.d., dots. (NamMQI)**
N. Shariboyev	**f.-m. f.d., dots. (NamMTI)**
U. Erkaboyev	**f.-m. f.d., dots. (NamMTI)**
B.T. Abdulazizov	**f.-m. f.d., dots. (NamDU)**
G’.B. Eshonqulov	**PhD, dots. (O’zMU)**
Q. Umarov	**f.-m. f.d., dots. (НамMTI)**
U.T. Kurbanov	**f.-m. f.d., (O’zRFAYFI)**
Y.V. Yavidov	**f.-m. f.d., prof. (QDPI)**
K.A. Ismaylov	**f.-m. f.d., prof. (QDU)**
H. Qo’chqorov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
P. Baymatov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Po’latov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
U. Boboho’jayev	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
H. Abdullayev	**f.-m. f.n., dots. (NamMTI)**
X. Mavlyanov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Xolmirzayev	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
I. Zohidov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
M. Ergasheva	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Mamadjonov	**f.-m. f.n. (NamMTI)**
M. Nuriddinova	**f.-m. f.n. (NamMTI)**
S. Boydedayev	**f.-m. F.n. (NamMQI)**
A. Nabiyev	**PhD, dots. (NamDU)**
R. Jalalov	**PhD, dots. (NamDU)**
O. Ismanova	**PhD, dots. (NamDU)**

Sh. Inoyatov	**PhD (NamDU)**
M. Imomov	**PhD (NamDU)**
B. Qo’chqarov	**PhD (NamMTI)**
D. Alijonov	**PhD (NamDU)**
A. Davlatov	**PhD (NamDU)**
O. Yunusov	**O’qituvchi (NamDU)**
A. Karimov	**O’qituvchi (NamDU)**
U. Turdaliyev	**O’qituvchi (NamDU)**
M. Usmanov	**O’qituvchi (NamDU)**
I. Voxobjonov	**O’qituvchi (NamDU)**

TASHKILIY QO‘MITA

1. S.T. Turg‘unov – Namangan davlat universiteti rektori, p.f.d., professor;
2. Sh.N. Ataxanov - Namangan davlat universiteti Ilmiy ishlar va Innovatsiyal bo’yicha prorektor;
3. M. Dadamirzayev – Namangan muhandislik qurilish instituti, f.-m. f. (DSc), dotsent
O.T. Ismanova – Namangan davlat universiteti, Fizika fakulteti dekani, f.-m.f.(PhD), dotsent;
4. B.T. Abdulazizov – Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasi mudiri, f.-m.f. (DSc), professor v.b.;
5. Sh.T. Inoyatov– Namangan davlat universiteti Fizika o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, f.-m.f (PhD);
6. S.R. Boydedayev– Namangan muhandislik qurilish instituti, f.-m. f.n., dotsent
7. P.N. Usmanov– Namangan muhandislik texnologiyalar instituti f.-m. f.d., prof.;
8. A.A. Xolmirzayev– Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
9. U.S. Boboxo‘jayev – Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
10. X.O. Qo‘chqorov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
11. I.O. Zoxidov - Namangan davlat univesiteti p.f.n., dotsent;
12. M.A. Ergasheva - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
14. A.A. Po‘latov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
15. P.J. Boymatov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
16. A.B. Nabiyev - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.(PhD), dotsent;
17. A.B. Davlatov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.(PhD), katta o‘qituvchi;
18. D.A. Alijanov - Namangan davlat univesiteti p.f. (PhD) , katta o‘qituvchi;
19. N. Xolboyeva - Namangan davlat univesiteti, katta o‘qituvchi;
20. J. Soyipov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
21. J. Qalandarov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
22. O. Yunusov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
23. S. To’raboyev - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
24. A. Karimov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
25. U. Turdaliyev - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
26. M. Usmanov. - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
27. I. Voxobjonov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
28. N. Mavlonova - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi.

Sho’ba raisi: dots. **U.S.Boboxo‘jayev**

Sho’ba kotibi: dots. **O.T.Ismanova**

YARIMO‘TKAZGICH ASOSIDAGI SEZGIR FOTOELEMENTLARDA TIO_2 QALAMLI ISHCHI ELEKTRODNI TAVSIFLARIGA TASHQI OMILLARNING AHAMIYATI.

N.Y.Sharibayev, A.Q.Ergashov
Namangan muhandislik texnologiya instituti[1]
abdurasul.ergashev.85@mail.ru

Yupqa yarimo’tkazgich qatlamga ega fotoanod va kontur elektrodlar haqida batafsil tushuncha keltirilsa Gratzel va uning hamkasblari sezgir bo’yoq tarkibli quyosh elementini ishlashida keskin yaxshilanishlarni tajriba natijalari asosida ko‘rsatdilar. Ular nanokristalli TiO_2 yupqa plyonkali elektroddan foydalangan holda 7-10% samaradorlikni namoyish etdilar va kichik g‘ovakli tuzilishga ega va katta yuza maydonli yangi Ru tarkibli komplekslardan ion-qaytarilish elektrolitlari sifatida foydalandilar. TiO_2 elektrodining o‘tkazuvchanlik diapazoni darajasi va I^-/I^{-3} oksidlanish-qaytarilish potentsiali bilan foydalanish uchun mos kelladi. Tabiiy bo‘yoq va oksidli fotoelektrodlardan dastlab ikki xil SnO_2 va ZnO_2 binar tizimi yuqori haroratda qattiq holatli reaksiya orqali tayyorlangan va fotoanod sifatida ishlatilgan. TiO_2 dan tashqari, uglerod va uning turli xil allotroplari kelajakdagi talabni qondirish uchun sezgir bo’yoq tarkibli quyosh elementida keng qo‘llaniladi va sezgir bo’yoq tarkibli quyosh elementi uchun mukammal material sifatida paydo bo‘ladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko‘ra, uglerod nanonaychasini TiO_2 tarkibiga gidrotermal yoki sol-gel usullari bilan kiritish elementning ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilagan [1-2]. Sun va boshqalar TiO_2 fotoanodida grafenni o‘z ichiga olgan sezgir bo’yoq tarkibli quyosh elementlar uchun fotogeneratsiyasini 4,28% ga erishilganini ko‘rsatdi, bu grafensiz bo‘lganidan 59% ga yuqori edi[3]. Sharma va uning jamoadoshlari sof TiO_2 fotoanod o‘rniga o‘zgartirilgan TiO_2 (G-TiO_2) fotoanodidan foydalangan holda birgalikda sezgirlangan quyosh batareyasining samaradorlik qiymatining 7,35 dan 8,15% gacha yaxshilanishini ko‘rsatdi[4].

Yorug’likning turli muhitlardaga kattaliklarini o’rganishda yorug’likda sodir bo’ladigan o’zgarishlarga muhitning ta’sirini o’rganish orqali ko’plab o’rganiliuvchi muhitga doir kattaliklarni tahlil qilish mumkin. Muhitda yorug’likning yutilishini Buger-Lambert qonuni bo’yicha o’rganilsa olingan natijalar tahlilidan samarali foydalanish imkoni tug’iladi[5]. Agar ma'lum hajmda har bir yo’nalish bo’ylab bir nechta optik faol zarrachalar mavjud bo'lsa $\beta_{e,\lambda}^{i}$ va hokazo, keyin optik uzunlikni quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\tau_\lambda = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} \beta_{e\lambda}^{i} ds = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} \rho_i k_{e\lambda}^{i} ds = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} N_i \sigma_{e\lambda}^{i} ds \quad (1)$$

Yuqorida o’rganilgan (1) ifodalar ma’lum bir yo’nalishda tarqaladigan aniq bir intensivlikga ega nurning tadbig’i uchundir[6]. Kerakli burchak va to'lqin uzunliklarida (yoki chastotalarda) intensivlikning to'liq umumiy taqsimotini elementar yechimni barcha tushayotgan nurlar va barcha to'lqin uzunliklari (yoki chastotalar) uchun takrorlash orqali olish mumkin.

Yupqa qatlamlarni optik hodisalariga asoslanib yarim o’tkazgich materiallarning kattaliklarini o’rganiladi. O’rganiluvchi obekt bir nechta yupqa qatlamlar jamlanmasidan iborat ekanligidan qatlamlarni o’zaro biri-biriga difuzion kirishgan qismlarida fizik va kimyoviy jarayonlarni hossalari bilan birgalikda organish maqsadga muofiqdir. Buger-Lambert-Beer qonuniyatlariga ko’ra

$I = I_o e^{-\alpha d}$ (2) bir nechta matematik qadamlardan ifodalardan foydalanib Taus uslubdan foydalangan holda elektromagnit to’lqining yutilish spektri va taqiqlangan zona kengligini bog’lovchi tenglamasidan foydalanish mumkin[6].

$(\alpha h\nu)^n = k(h\nu - E_g)$ (3), (2-3) ifodalarda o’rganilgan tushunchalar asosida noma’lum namunaning taqiqlangan zona kengligini aniqlash metodini ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda fotoelektronnikada tajriba kuzatuv jarayonini osonlashtirganligi bilan xalqaro talab va meyorlarga mos kelgan “Shimadzu1900i” qurilmasida quyidagi avzalliklarni sanab o’tish mumkin.

1. Kerakli λ to’lqun uzunlikdagi yorug’likni avtomatik tanlaydi.
2. Tanlovga mos lampalarni kerakli quvvat bilan mustaqil ishga tushiradi.
3. Yoritilganlikni bir hil qiymatda ushlab tura oladi.
4. Qadamlar ketma ketligini avtomatik ta’minlaydi.
5. Natijalarni tavsifini kompiyuter interfeysida mustaqil chizadi.
6. Tavsif kordinatalarini hujjatga turli formatda raqamli export qiladi.

Zamonaviy qurilmalarda izlanilayotgan natijalarni tez va samarali olish avfzal biroq izlanuvchi uchun olinayotgan nurning to’lqin uzunligini difraksiya qonuni asosida aniqlanishi muhimdir[7].



1-rasm.“Shimadzu 1900i”- qurilmasida FTO oyna sirtiga qoplangan TiO2 yupqa qatlamning 0.3 ruteniy bo'yog'i uchun yutilgan yoriglik intensivligining to'lqin uzunligiga bog'liqlik tavsifi



2-rasm. a. Shisha oyna+FTO (ftor bilan ligerlangan shisha oyna). b.Shisha oyna+FTO +TiO_2

Olingan natijalar asosida yupqa qatlamli ishli elektrodni ish samaradorigini o’rganishda ulratovishdan, harorat va boshqa tashqi omillardan foydalanishning ijobiy va salbiy ta’sirlarini o’rganish uchun tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati vijudga keldi[8]. Yangi avlod quyosh fotoelementlarini ishlab chiqarishda ekologik jihatdan sof va kimyoviy barqaror toksik bo’lmagan materiallardan foydalanish ;bugungi kunning asosiy talablaridandir. Ushbu ishda ko’zda tutilgan asosiy maqsadga erishildi[9]. Ishning kegingi bosqichlarida elektrolit va kontur elektrodlarni takomillashtirish ishlari olib borilishi maqsad qilib belgilab olindi.

Adabiyotlar

1. Lee KM, Hu CW, Chen HW, Ho KC. Incorporating carbon nanotube in a low-temperature fabrication process for dye-sensitized TiO2 solar cells. *Sol Energy Mater Sol Cells.* 2008;92:1628–1633. doi: 10.1016/j.solmat.2008.07.012.

2. Lee W, Lee J, Min SK, et al. Effect of single-walled carbon nanotubes in PbS/TiO2 quantum dots-sensitized solar cells. *Mater Sci Eng B.* 2009;156:48–51. doi: 10.1016/j.mseb.2008.11.014.

3. Sun SR, Gao L, Liu YQ, et al. Enhanced dye-sensitized solar cells using grapheme-Tio2 photoanode prepared by heterogeneous coagulation. *Appl Phys Lett.* 2010;96:083113–083115. doi: 10.1063/1.3318466.

4. Sharma GD, Daphnomili D, Gupta KSV, Gayathri T, et al. Enhancement of power conversion efficiency of dye-sensitized solar cells by co-sensitization of zinc-porphyrin and thiocyanate-free ruthenium(II)-terpyridine dyes and graphene modified TiO_2 photoanode. *RSC Adv.* 2013;3:22412–22420. doi: 10.1039/c3ra42537a.

5. J. Gong and S. Krishnan, *Mathematical modeling of dye-sensitized solar cells*. Elsevier Inc., 2019.

6. G. Matyszczak, S. Sutuła, K. Krawczyk, and K. Woźniak, “Experimental and theoretical study of crystal structure and bandgap of CdBi2S4,” *J. Solid State Chem.*, vol. 305, 2022, doi: 10.1016/j.jssc.2021.122695.

7. I. A. D. S. Areias, L. E. B. Da Silva, E. L. Bonaldi, L. E. D. L. De Oliveira, G. Lambert-Torres, and V. A. Bernardes, “Evaluation of current signature in bearing defects by envelope analysis of the vibration in induction motors,” *Energies*, vol. 12, no. 21, 2019, doi: 10.3390/en12214029.

8. N. Sharibaev and A. Ergashov, “Mathematical modeling of processes in dye-sensitized photocell,” *J. Phys. Conf. Ser.*, vol. 2373, no. 7, 2022, doi: 10.1088/1742-6596/2373/7/072044.

9. S. N. Yusufjanovich, E. A. Qodirjonovich, M. Mamadjanovich, and Q. S. Siddiqjonovich, “Determination Of The Characteristics Of Polymer-Containing Electronic Elements Using A Mobile Device Determination Of The Characteristics Of Polymer-Containing Electronic Elements Using A Mobile Device,” vol. 12, no. 4, pp. 61–68, 2021.

YARIMO’TKAZGICHLI GaSb NANOKRISTALLARI BILAN n- va p-TIPLI GETEROSTRUKTURALARNING TERMOELEKTRIK XUSUSIYATLARI.

O.O.Mamatkarimov[1], B.X.Quchqarov[1],H.O.Qo’chqarov[2] ,S.B.Fazliddinov[2], A.A.Botirjonov[2]

[1]*Namangan muxandislik-texnologiya instituti.*
[2]*Namangan davlat universiteti.*

Yarimo’tkazgichli nanokristallarning qo'shilmagan yuqori qarshilikli kremniyga asoslangan geterostrukturalarning termoelektrik xususiyatlariga ta'siri ko'rsatildi. Kremniy matritsaga o'rnatilgan GaSb nanokiristal massivi dastlabki matritsaning past o'tkazuvchanligiga qaramasdan, kremniy geterostrukturalarining quvvat omilini oshirishini ko'rsatadi. Quvvat koeffitsientini yanada oshirish uchun *n*- va *p*-geterostrukturalarni sintez qilish uchun kuchli toplangan kremniy matritsasidan foydalanish kerak.

Ushbu maqsadlar uchun 2,6MS/p va 1,5MS/n namunalari past qarshilikli kremniy teshik burg'u 1 – 10 Ō sm va silikon elektron fosfor 0,1 – 0,5 Ō sm substratlarda qoplama qatlamlarini yotqizish uchun o'stirildi.

Og'ir dozalangan kremniy teshik burg'u 2,5 mŌ sm va silikon elektron fosfor 0,1 - 0,5 Ō sm ishlatilgan.



1-rasm - 1,5MS/n va 2,6MS/p geterostrukturalar va yuqori darajada doplangan substratlarning o'ziga xos o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi, ular asosida ular hosil bo'ladi. (a) o'lchov o'tkazuvchanligi, (b) ikki qatlamli model yordamida.

Ikkala geterostrukturaning o'ziga xos o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi kremniy xarakterga ega (1-rasm). Taxminan 100-120 K past haroratlarda nopoklikning faollashishi va zaryad tashuvchilarning ionlangan aralashmalar va fononlar bilan minimal o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lgan o'tkazuvchanlik cho'qqisi kuzatiladi. Nopoklik qizdirilganda, nopoklik tugaydi, fononlar bilan tarqalish kuchayadi, bu esa o'tkazuvchanlikning pasayishiga olib keladi. 510 K (*p*-kremniy uchun) va 670 K (*n*-kremniy uchun) dan keyin ichki o'tkazuvchanlik hududi boshlanadi. Ushbu namunalarning o'ziga xos o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi chizmalarida 250 dan 450 K gacha bo'lgan 2.6MC/i namunasida kuzatilgan (1a-rasm)



2-rasm. Geterostrukturalarning Seebek koeffitsienti 1.5MS / n va 2.6MS / p, ular hosil bo'lgan substratlar va yuqori qarshilikli kremniy (a) asosida 1.5MS / i va 2.6MS/i namunalari. Grafiklar (b) va (c) substrat ishtirokisiz o'rnatilgan NC'li epitaksial plyonkalarning termo-EMF koeffitsienti hisoblarini ko'rsatadi. Grafik (d) elektron turdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan plyonkalarning termo-EMF koeffitsientlarini ko'rsatadi (1,5MS/n, 1,5MS/i va 2,6MS/i)

2a-rasmda toblangan kremniy matritsasidan foydalanganda samarali Seebek koeffitsientining ortishi ko'rsatilgan; Taqqoslash uchun, qo'shilmagan kremniyga asoslangan geterostrukturalarning termo- elektr harakatlantiruvchi kuch koeffitsienti qiymatlari berilgan. Namunaning termo-elektr harakatlantiruvchi kuch koeffitsienti, 1,5MS/n, silikonning o'z o'tkazuvchanligiga o'tishiga qadar keng harorat oralig'ida substratning termo- elektr harakatlantiruvchi kuchdan oshadi. Ushbu namunaning muhim xususiyati shundaki, Seebek koeffitsientining maksimal qiymati -670 mkV·K^{-1} keng harorat oralig'ida (490 dan 620 K gacha) plato shaklida qoladi. Substratning ta'sirini ayirish (2b-rasm) 1,5 MS/n namunadagi epitaksial plyonkaning Seebek koeffitsienti substratdan kremniyning o'ziga xos o'tkazuvchanligi mintaqasigacha, 600 K. K gacha oshib ketishini ko'rish imkonini beradi. Geterostrukturaning termo- elektr harakatlantiruvchi kuch maksimal qiymati hududini kengaytirish va keng platoga erishish imkonini beradi.

2.6MS/p namunasining Seebek koeffitsienti u hosil bo'lgan substratga o'xshash xatti-harakatlarga ega (2a va 2c-rasmlar). Maksimal qiymat 740 mkV K^{-1} da 480 K. sezilarli farqlar kremniyning ichki o'tkazuvchanlikka o'tish mintaqasida ko'rinadi, 450 dan 550 K gacha. Bu harorat oralig'ida 1,5 MS/n namuna plyonkasiga o'xshash kichik cho'qqi kuzatiladi.



3-rasm. Og'ir qo'shilgan teshik (a) va elektron (b) silikon matritsalar uchun 300 K da GaSb-Si nanokiristal getero-birikmasining tarmoqli diagrammasi.

Og'ir dozalangan kremniy matritsalari uchun GaSb/Si NC hetero-birikmalarining tarmoqli diagrammalarini qurish (3-rasm) kremniyning ichki o'tkazuvchanligiga o'tish hududida kichik termo- elektr harakatlantiruvchi cho'qqilari paydo bo'lishining sababini ko'rishga yordam beradi, 450 dan. 550 K. Og‘ir qo‘shilgan matritsaga o‘rnatilgan nanokristallar o‘ziga xos qarama-qarshi tashuvchilar uchun potentsial quduq bo‘lib, ular elektron-teshik juftlarining termal hosil bo‘lishi jarayonida ushlanishi mumkin (3-rasm). Ushbu tutqich mexanizmi bir vaqtning o'zida ozchilik tashuvchilarning kontsentratsiyasining pasayishiga va ozchilik tashuvchilarning kontsentratsiyasining oshishiga olib keladi.



4-rasm. Ikki qatlamli model asosida hisoblangan heterostrukturalarning quvvat koeffitsienti.

Kristalli qo'shilgan kremniy nisbatan yuqori quvvat omiliga ega. Shuning uchun, silikon termoelektrik konvertorlarni shakllantirishda elektrik parametrlarini saqlab qoladi. 4-rasmda kuchli doplangan kremniyga o'tishda geterostrukturalarning quvvat omilining ortishi ko'rsatilgan. 500 K gacha bo'lgan harorat oralig'ida to'rt qavatli namunalar $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$ istiqbolli termoelektrik birikmasi bilan solishtirganda quvvat omilining raqobatbardosh qiymatiga ega ekaniligi ko’rinadi. 400 K da 1,5MS/n quvvat omili 16 mVt (m $K^{2)-1}$, 2,6MS/p 3 mVt (m $K^2)^{-1}$ ni tashkil etadi, bu $Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$ - 2,6 mVt (m) parametridan biroz oshib ketadi. $K^2)^{-1}$.

O'rnatilgan nanokristallari tomonidan kremniy tuzilishining ta'sirining issiqlik o'tkazuvchanligi haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Buning uchun ikkita sakkiz qatlamli namunalar yaratildi: o'rnatilgan nanokristalli (2,6MS/i-8L) va ularsiz qatlamma-qatlam cho'ktirilgan kremniydan iborat (nazorat namunasi). O'lchov xona haroratida ko'ndalang yo'nalishda 2ω usuli bilan amalga oshirildi. Malumot kremniy namunasining issiqlik o'tkazuvchanligi 37±5,2 Vt m^{-1} K^{-1} ni tashkil qiladi, nanokristallar bilan tuzilish namunalarning issiqlik o'tkazuvchanligini 7,8±1,3 Vt m^{-1} K^{-1} gacha kamaytirishga imkon berdi.

To'rt va sakkiz qatlamli tuzilmalar bilan solishtirganda nazorat namunasining kristalli sifati yaxshiroq bo'lishiga qaramay, uning issiqlik o'tkazuvchanligi quyma bir kristalli kremniyga qaraganda taxminan 4 baravar past.

Sakkiz qatlamli nazorat namunasining issiqlik o'tkazuvchanligining pasayishining mumkin bo'lgan sababi kremniy qatlamlari orasidagi interfeyslardagi nuqsonlarga tarqalishdir. Silikon gomoepitaksi paytida bunday nuqsonlarning mavjudligi namuna sintezi vaqtida vaqtinchalik pauzalarga bog'liq. Kremniy qatlamlari orasidagi chegara hosil bo'lishiga qoldiq atmosfera (qatlamlarni cho'ktirish oralig'idagi vakuum chuqurligi ~2 10-10 Torr) va kremniy cho'kishi boshlanishidagi past harorat (450 ˚S) yordam beradi. Bundan tashqari, kremniy qatlamlarining qalinligi ko'ndalang issiqlik o'tkazuvchanligiga ham ta'sir qiladi. Bir qator ishlarda kremniy qatlamlarining issiqlik o'tkazuvchanligining pasayishi bilan qatlam qalinligining pasayishi bashorat qilingan va ko'rsatilgan. GaSb nanokristalidan elektronlarning kremniy matritsasiga kiritilishi tufayli, qo'shilmagan kremniyga asoslangan geterostrukturalarda termo-EMF belgisi inversiyasi 282 K da sodir bo'ladi; Dorilanmagan kremniyga asoslangan geterostrukturaning termo-EMF koeffitsienti -520 mkV K^{-1} 420 K da doplangan kremniy matritsasiga nanokristallarning kiritilishi geterostrukturalarning Seebek koeffitsientini p-kremniyga asoslangan namuna uchun 480 K da 740 mkV K^{-1} ga va 510-580 K oralig'ida - 670 mkV K^{-1} ga oshirdi. n-kremniy. N-namunaning xarakterli xususiyati substrat va tuzilgan kremniy qatlamlarining ketma-ket hissasi tufayli maksimal termo-EMFga ega bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Vlasov S.I., Saparov F.A., Ismailov K.A. Semiconductor Physics, Quantum Electronics and Optoelectronics. 2010. Vol. 13. No. 4. P.363.

2. B Kuchkarov, O Mamatkarimov, and A Abdulkhayev. «Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor». ICECAE 2020 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:

3. B.X. Qo’chqarov, A. nishonov, X.O.Qochqarov “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries” Scientific bulletin of Namangan State University 1(7), 3-6.

4. S.I.Vlasov, D.N.Nazirov. B.K.Kuchkarov, K.U.Bobokhujayev. “Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure” Uzbekiston Fizika Zhurnali №16/3 str 231-233.

5. B.Kh.Kuchkarov, O.O.Mamatkarimov “Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures” Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. Tom-29. №4 str.125-134.

6. БХ Кучкаров. Влияние ультразвукового воздействия на скорость формирования заряда инверсионного слоя в структурах метал-стекло-полупроводник. Вестник КРАУНЦ. Физико-математические науки. 2019. 29/4. стр.125-134.

7. Kuchkarov, B.H., Mamatkarimov, O.O., Abdukarimov, A.A., Khalmirzayev, A., Mirtojiyeva, D.M. Influence of All-Round Compression on Formation of the Mobile Charge in Lead-Borosilicate Glass Structure. AIP Conference Proceedings, 2022, 2432, 030039

8. Fazliddinov, S., Kuchkarov, B., Sharibaev, N., Abdulkhaev, A., Tulkinov, M.-A. Analysis of modern methods of determination of mechanical status and diagnostic models of power transformers. Journal of Physics: Conference Series, 2022, 2388(1), 012173.

9. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 614(1), 012027.

QUYOSH SUV ISITGICHINI ANDIJON SHAROITIDA O’RNATISH VA TAHLILI

A.J.Eraliyev, M.Z.Nosirov
Andijon davlat universiteti

Kirish. Issiq suv hozirgi kunda sanoat va uy sharoitida juda zarur. Respublikamizning ko’plab hududlarida issiq suv ta’minoti mavjud emas. Doimiy issiq suv ta’minoti ayrim shaharlardagina mavjud. Statistik ma’lumotlarga qaraganda O’zbekistonda har kuni bir kishiga o’rtacha 15-20 l issiq suv kerak bo’ladi. Hozirgi vaqtda issiq suv talablari asosan elektr isitgichlari va tabiiy gazdan foydalanish hisobiga qondirilmoqda. Aslida bu turdagi energiyalarga kun davomida boshqa maqsadlar uchun talab katta. Natijada issiq suvning tan narxi qimmatlashadi. Energiya narxining ko’tarilishi, atrof-muhit muammolari va ishlatilayotgan birlamchi energiya manbalarining zaxiralari tobora kamayib borishi elektr isitgichlardan kamroq foydalanishni talab etadi. Buning sababi shundaki, elektr energiyasining asosiy energiya manbalari asosan qazilma yoqilg’ilardir. Bundan tashqari aholi soni ortishi bilan elektr energiyasiga bo’lgan talab tez o’sib bormoqda. Issiq suvga talab eng yuqori bo’lgan davrlarda elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari haddan tashqari zo’riqib ketadi, natijada elektr energiyasi bilan bog’liq muammolar paydo bo’ladi. Ushbu muammolarni elektr energiyasidan foydalanmasdan issiq suv olish bilan hal qilish mumkin. Buning uchun quyosh issiq suv ta’minoti tizimlaridan maishiy va tijorat maqsadlarda keng foydalanish mumkin. Ushbu tizimlar issiq suv hosil qilish uchun quyosh energiyasidan foydalanadi. Amaldagi texnologiyalar yordamida arzon narxlarda issiq suv olish imkoniyati mavjud.

Metodi. Vakuum kolbali kollektorlar yordamida normal atmosfera bosimida harorati 100°C gacha bo’lgan issiq suv olish mumkin. Bunday quyoshli issiq suv tizimi odatda ikki rejim o’rtasidagi temperaturalar farqi suzuvchanligi natijasida issiqlikni tabiiy aylanish bilan uzatadi (1-rasm). Shuning uchun ular nasoslar ishlatilishini talab qilmaydi. Ular uy sharoitida ishlatish uchun eng ko’p ishlatiladigan quyosh suv isitgichlari hisoblanadi.



1-rasm.

Quyoshdan kelayotgan nurlar miqdori doimiy ravishda kollektorga yaxshi tushishi uchun Andijon shahrining geografik joylashuviga ko’ra kollektorni gorizontga nisbatan 35-50° burchak atrofida o’rnatiladi. Quyoshdan kelayotgan nurlarni ko’p miqdorda yutilishini ta’minlash uchun vakuum kolba ichiga issiqlikni yaxshi o’tkazuvchi material joylashtiriladi.

Yangiligi. Hozirda mavjud quyosh kollektorlarida tushayotgan yorug‘lik energiyasining bir qismi (30-40%) ishlatilmaydi. Ushbu ishda zamonaviy quyosh suv isitkich qurilmasining asosi va quvurlari orasiga nur qaytaruvchi taglik o‘rnatish orqali uning

samaradorligini ortirishning innovatsion eksperimental texnologiyasini o’zlashtirish haqida so‘z boradi (2-rasm). Odatdagi quyosh suv-istikich qurilmalarida faqat qurilmaning ustki tomonidagi quvurlarga tushadigan yorug‘likdangina foydalaniladi. Biz taklif qilayotgan qurilmada quvurlar orasidan o‘tib ketayotgan nur taglikka urilib qaytishi natijasida quvurlarning ostki tomoniga tushadi. Bu esa uning samaradorligini oshirishga yordam beradi.



2-rasm: *Takomillashtirilgan quyosh suv isitkich qurilmasi. 1) Qurilma quvurining tashqi qobig'i, 2) Qurilma quvurini ichki qobig'i, 3) Nur qaytaruvchi taglik.*

Natija. Ma’lumki, quyosh Respublikamiz hududida qish oylarida kam nur sochadi. Oddiy quyosh suv isitgichi yordamida qish oylarida ham issiq suv olish imkoniyati mavjud. Tajriba sinov ishlari Andijon davlat universiteti “Qayta tiklanuvchi energiya manbaalari” laboratoriyasida bir yil mobaynida kuzatilib, natijalar tahlil qilindi. Olingan natijalardan xulosa qilsak, qish faslida havo harorati o’rtacha 10°C, havo namligi 34%, intensivlik 221 W/m^2 bo’lgan vaqtda o’rtacha 35-47°C issiq suv olish mumkin ekan. Endi biz taklif etgan takomillashgan quyosh kollektorida ushbu harorat 45-63°C ni tashkil etdi. Bu esa kundalik turmushda issiq suvga bo’lgan talabning bir qismini qondirish uchun yetarli. Bahor faslida havo harorati o’rtacha 35°C, havo namligi 10%, intensivlik 887 W/m^2 bo’lgan vaqtda oddiy kollektorda issiq suvning o’rtacha harorati 70-87°C ga, takomillashgan variantida esa, 90-110°C ga teng bo’ldi. Yoz faslida havo harorati yuqori bo’lganligi sabab tashqariga uzatilayotgan suv harorati har ikkala turida ham 100°C, oddiy kollektor ichidagi suv harorati 120°C gacha, takomillashgan quyosh kollektorida esa 145-150°C gacha yetdi.

Qolaversa, har ikkala (oddiy kollektorda hamda takomillashgan kollektor) kollektorlarning temperaturasini vaqt bo’yicha o’zgarishlari havo harorati o’rtacha 17°C, havo namligi 30%, intensivlik 310 W/m^2 bo’lgan vaqtda o’lchandi va quyidagi natijaga erishildi.

Nomi↓	t min →	0	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20	22	24	26	28	30
Oddiy kollektor	$T, gradus$	20	21	22	24	25	26	27	28	29	30	31	31	31	31	32	32
Takomillashgan kollektor	$T, gradus$	20	22	24	26	28	30	32	33	35	36	37	37	38	39	40	41

1-jadval: Oddiy hamda takomillashgan quyosh kollektorlarini isish haroratini vaqtga bog’liqligi.

1-jadvaldan ko’rinadiki, takomillashgan quyosh kollektori suvi oddiy kollektorga nisbatan tezroq hamda yuqoriroq haroratga erishar ekan

Xulosa. Ushbu natijalardan ko’rinadiki, issiq suvga bo’lgan ehtiyojning 70-80% miqdorini an’anaviy energiya resurslaridan foydalanmasdan noan’anaviy, ekologik toza hisoblangan quyosh energiyasi yordamida suv isitgich - kollektorlar yordamida qoplash mumkin.

Natijalardan xulosa qilinsa issiq suv ishlab chiqarishning an’anaviy vositasini o’rnini bosuvchi noan’anaviy vositalarning mavjud bo’lgan samaradorlik darajasini oshirish uchun ko’proq izlanishlar va tajriba ishlari zarur.

Adabiyotlar

1. Nnamdi Ogueke, Val Ekechukwu, Emmanuel E. Anyanwu, (2009) A review of solar water heating systems, Journal of Renewable and Sustainable Energy, 1, 043106. DOI: 10.1063/1.3167285

O‘STIRISH USULI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING PARAMETRLARINI O‘RGANISH

X.S.Daliyev[1], D.N.G’ofurova[2]
[1]MEI Toshkent filiali ijro direktori, f.-m.f.d. professor
[2]Farg‘ona davlat universiteti

So‘ngi yillarda yarimo‘tkazgichlarining parametrlarini boshqarish maqsadida ularga qiyin eruvchi elementlarni legirlash keng qo‘llanilmoqda. SHunga asoslangan mazkur dissertatsiya ishining maqsadi xam kremniyning elektrofizik xossalarini tadqiq qilish, ilmiy ishda foydalanayotgan namunalarga gafniyni diffuziya metodi bilan kiritish jarayonini hamda eritmadan o‘stirish jarayoni bilan namuna xossalarini o‘zgarishi o‘rganildi.

Namuna sifatida n- va p- tipdagi o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan va turli solishtirma qarshilikka ega bo‘lgan kremniy monokristallidan foydalanildi. Diffuziya usuli bilan amalga oshirilayotgan legirlash jarayonida o‘ta sof bo‘lgan gafniyni kremniyning yuzasiga 10÷20 soat davomida $900\div1200^0$C temperaturalari intervalida o‘tqazildi (changlatildi). Hf ning diffuziya qilgandan so‘ng namunalarni sovutish jarayoni turli xil tezliklarda o‘tkazildi. Solishtirish namunasi sifatida n- va p – Si dan foydalanildi, ushbu namuna xam gafniy bilan legirlangan kremniy kabi ayni bir xil sharoitda termik ishlovdan o‘tkazilgan. Diffuzion legirlashdan so‘ng kremniy Si<Hf> ni to‘rt zondli usul bilan namunaning (ρ) solishtirma qarshiligi o‘lchandi hamda (ρ) ning kremniyning ρ_{bosh} boshlang‘ich xolatidagi ko‘rsatkichlari bilan solishtirib ko‘rildi. O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, Hf bilan legirlangan n–Si ning barcha namunalarida solishtirma qarshilik kattaligining o‘zgarishi, p – Si da esa solishtirma qarshilik o‘zgarmasdan qolishi kuzatildi.

Namunalarning natijalarini taqqoslash uchun 0,5÷100 soat mobaynida 12000^oC temperaturada solishtirma qarshiligi 20 Om*sm. bo‘lgan n –Si va p –Si qilingan qayta termik ishlov berildi. O‘lchash ishlari turli tipdagi bir necha namunalarda o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, n – Si va p – Si o‘tkazuvchanlik tiplari qayta termik ishlovda o‘zgarmay qolar ekan. Shu bilan bir qatorda n – tipdagi namunalarda ρ kattaligining kamayishi, p – tipdagi namunalarda esa bu xolatning teskarisi ρ solishtirma qarshilikning ortishi kuzatildi. Gafniy bilan diffuziya usulida legirlangan, bundan tashqari sinov termik ishlovi ta’sirida bo‘lgan Si namunalari uchun chuqur satx bo‘yicha solishtirma qarshilikni taqsimlanishi o‘lchashlar amlaga oshirildi. 1 rasm (chiziq 1) Gafniy bilan legirlangan hamda sinov (Hf kirishmasi bo‘lmagan) Si ning solishtirma qarshilikni taqsimlanish profili keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, Si<Hf> namunalarning taqsimlanish profili ikkita soxadan iborat: boshida solishtirma qarshilik ρ ning 60 mkm chuqurlikkacha shiddat bilan o‘sishi kuzatiladi. Shundan so‘ng ρ stabil xolatga kelib sezilarli darajada solishtirma qarshilikning o‘zgarishi kuzatilmaydi. Bu Hf mavjud bo‘lganda kremniyning xajmi bo‘ylab ρ ning teng miqdorda taqsimlanishini ko‘rsatib turibdi. Shunga aynan o‘xshash ρ ning taqsimlanishini Ni, Mn va boshqa metallar uchun xam kuzatilgan. Birinchidan, sirt oldi soxasi ρ ning 1.5÷2 tartibda tez o‘sishi bilan, ikkinchidan kremniyning xajmida ρ ning deyarli tekis taqsimlanishi tushuntiriladi.

Ta’kidlash joizki, ρ ifodasi sinov (Hf kirishmasi bo‘lmagan) namunalarda chuqur satxga joylashgan sari o‘zgarmaydi. 1 rasm (chiziq 2)



1.-rasm . Kremniyning namunalarida ρ solishtirma qarshilikning taqsimlanish profili, (1) Gafniy bilan legirlangan va (2) sinov namunalarida

Adabiyotlar

1. Milns L. Primesi s glubokimi urovnyami v poluprovodnikax. – M., Mir, 1977, 547s.
2. Boltaks B.I., Baxadыrxanov M.K., Gorodetskiy S.M., Kulikov G.S. Kompensirovannыy kremniy. – L. Nauka, 1972, 122 s.
3. Zaynabidinov S.Z., Daliev X.S. Defektoobrazovanie v kremnii. Tashkent, Universitet, 1993, 191s.

ELEKTR STANSIYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

D.I.Kamalova, S.Q.Bekniyozov, O.D.O’rinova
Navoiy davlat pedagogika instituti
kamalova.di@mail.ru

Hozir hayotimizni radio, televideniye, telefon, telegrafsiz, turli xil yoritish jihozlari va qizdirish asboblarisiz, mashina va qurilmalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bularning hammasi elektr energiyasi (toki) bilan ishlaydi.

Elektr energiyasi qayerdan olinadi? Uni elektr stansiyalarida maxsus mashinalar — elektr toki generatorlari hosil qiladi. Generatorlarning turlari ko‘p. Energiyasi kichkina uyni yoritish uchungina yetadigan mitti elektr generatorlardan tortib, katta shaharni elektr energiyasi bilan ta’minlay oladigan ulkan elektr generatorlarigacha bor.

Generator elektr toki berishi uchun uning asosiy qismi — rotor aylantiriladi.

Katta generatorlarning rotori bir necha yuz tonna bo‘lganligi uchun uni maxsus mashina — turbina aylantiradi. Har qaysi turbina kuraklari yoki parraklari bo‘lgan ish g‘ildiraklariga ega. Qizdirilgan gaz yoki suv bug‘i oqimi katta kuch bilan turbina g‘ildiragi parraklariga urilib, uni aylantiradi, turbina bilan birga generator rotori ham aylanma harakatga keladi.

Suv oqimi aylantiradigan turbina gidravlik turbina deyiladi, bunday turbinalar o‘rnatilgan elektr stansiyalari esa gidroelektr stansiya yoki qisqacha GES deb ataladi. Turbinani issiqlik elektr stansiyalari (IES) da bug‘, gaz turbinali elektr stansiyalarida esa qizdirilgan gaz lar oqimi aylantiradi.

Gidroelektr stansiyalari Sirdaryo, Chirchiq, Bo‘zsuv kabi sersuv daryolarda yoki tog‘dan tushadigan tezoqar daryolarda quriladi. IES uchun esa to‘g‘on va suv havzalarining keragi yo‘q. Shu sababli, ularni hamma joyda qu rish mumkin. Lekin IES da suvni isitib, bug‘ hosil qilish uchun har doim yoqilg‘i bo‘lishi zarur. IES uchun ko‘mir ortilgan poyezdlar birin-ketin kelib turadi yoki quvurlardan gaz yetkazib beriladi.

Atom elektr stansiyalari (AES) da esa yoqilg‘i juda oz talab qilinadi. Lekin, bu yoqilg‘i o‘zgacha. Atigi 10 gramm atom yoqilg‘isi bir vagon ko‘mirning o‘rnini bosadi. Issiqlik elektr stansiyalaridagi kabi, atom elektr stansiyalarida ham elektr generatorlarini bug‘ turbinalari aylantiradi. Lekin AES larda na ko‘mir yoqiladigan, na gaz yoqiladigan o‘txona, na bug‘ qozoni bor. Bug‘ hosil qilish uchun zarur issiqlik AESning yuragi – atom reaktorida yadro reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladi. Yadro reaksiyasini uzluksiz takrorlanuvchi kichik-kichik atom portlashlari bilan qiyoslash mumkin. Lekin bu tinchlik maqsadidagi portlashlardir. Reaktor qalin beton devorlar bilan ishonchli berkitilgan. Yadro reaksiyasini muntazam ravishda avtomatik asboblar nazorat qilib turadi (lekin zarur texnikaviy shart-sharoitlarga to‘liq rioya qilinmasa, AES atrofdagi aholi va tabiat uchun o‘ta xavfli ekan. Buni Chernobil AES dagi baxtsiz hodisa tasdiqlab turibdi).

Olimlar va muhandislar elektr energiyasining yangi manbalarini izlamoq dalar. Masalan, dengizning qirg‘oqqa urilib-qaytib turadigan to‘lqinlarini ishga solish mumkin emasmikan? Elektr stansiyalarining turbinalarini aylantirish uchun dengiz suvi kuchidan foydalanib bo‘lmasmikin? Ma’lum bo‘lishicha, mumkin ekan.

Saxovatli Quyosh milliard yillardan buyon o‘z nurini Yerga sochib turadi. Quyosh nuri ham energiya. Odamlar uni elektr tokiga aylantirishni o‘rganib oldilar. Buning uchun maxsus yarimo‘tkazgichli asboblar — fotoelementlar yaratilgan. Ular birgalikda quyosh batareyasini tashkil qiladi.

Quyosh radiatsiyasi energiyasini amalda foydalanish uchun qulay bo‘lgan energiya turlariga aylantirib berish masalalari bilan shug‘ullanadigan texnika sohasi geliotexnika deb

ataladi. Geliotexnika yordamida elektr energiyasi yetib bormagan joylar (masalan, chorvadorlar istiqomat qiladigan joylar) ni elektr toki bilan ta’minlash, uylarni elektr nurlari yordamida isitish, issiq xonalarni isitish va boshqa ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Kosmik kemalar va Yer ning sun’iy yo‘ldoshlarini elektr energiyasi bilan aynan quyosh batareyalari ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Камалова Д.И., Бобоқулова Ш.О. Муқобил энергия турларидан Қуёш энергияси ва унинг Ерга таъсири. «Муқобил энергия манбалари ва улардан фойдаланишнинг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-техник анжумани материаллари тўплами. Бухоро. 2015-йил 25-26 ноябрь.
2. Камалова Д.И., Мансурова Ш.М., Турабова Л.Х. Қуёш физикасини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш. «Образование и наука в XXI веке». Международный научно-образовательный электронный журнал. Январь. 2021. №10. 30-33 стр.

$p-por-Si/p-Si$ STRUKTURALAR KONTAKT SOHASIDAGI DIFFERENSIAL QARSHILIKNI HARORATGA BOG’LIQLIGI

U.S.Boboho’jayev, M.A.Usmanov, I.Sh.Voxobjonov, Z.Z.Salimjonova
Namangan davlat universiteti

Hozirgi kunda kristall kremniy ($c-Si$) asosidagi quyosh elementlaridan keng miqyosda foydalanilmoqda. Shuning uchun $c-Si$ asosidagi quyosh elementlarini samaradorligini oshirish uchun bir necha yo’nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1,2]. Ushbu yo’nalishlardan biri metall-yarim o’tkazgich kontakt sohasida sodir bo’ladigan sirtiy rekombinatsiyani quyosh elementlarini samaradorligiga ta’sirini o’rganish. Ma’lumki agarda yorug’lik $p-c-Si/n-c-Si$ strukturani $p-c-Si$ sirtidan tushganda generatsiyalangan kovaklarni ma’lum foizi metal kontakt elektronlari bilan rekombinatsiyalashib tok tashuvchilarni konsentratsiyasini va o’z navbatida I_q (qisqa tutashuv toki) ni kamayishiga olib keladi. Ushbu hodisani kamaytirish uchun [3,4] ishlarda $c-Si$ ning sirtiy qatlamiga $p-a-Si:H$ (amorf gidridlangan kremniy) va uning modifikatsiyalari $p-nc-Si:H$ va $p-\mu c-Si:H$ yupqa pardalar o’stirib kovaklarni metall tomon harakatiga to’siq qatlam xosil qilingan. Ammo ushbu turdagi yarim o’tkazgichlar yuqori qarshilikli va o’stirish texnologiyasi bilan farq qilgani uchun ishlab chiqarishda keng tadbig’ini topmadi.

So’ngi yillarda $c-Si$ ning sirtini kimyoviy yuvish orqali g’ovakli qatlam $por-Si$ hosil qilish orqali $por-Si/c-Si$ strukturalar ustida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [5,6], $c-Si$ qatlam sirtida yupqa $por-Si$ qatlam o’stirish orqali olingan quyosh elementlarini samaradorligi 2-3% ga ortishi tajribalarda kuzatildi. Samaradorlikni yanada ortirish va texnologiyani mukammallashtirish uchun esa $p-por-Si/c-Si$ strukturani kontakt sohasida sodir bo’layotgan elektrofizik jarayonlarni xarakterlovchi parametrlar haqidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishda $p-por-Si/c-Si$ strukturani kontakt sohasini differensial qarshiligi va unga tashqi harorat ta’siri o’rganilgan.

Kimyoviy yuvish bilan $p-c-Si$ qatlam sirtiga $por-Si$ o’stirish jarayonida ~100 Å o’lcham atrofida g’ovaklar xosil bo’ladi va kristall panjaralarning mexanik zo’riqish tufayli esa ko’ndalang yo’nalishda panjaralarni uzilishi sodir bo’ladi. Buning natijasida qo’shimcha zaryadli xolatlar xosil bo’lib Fermi sathini siljishiga va taqiq sohani kengayishiga olib keladi. Shuning xisobiga $p-por-Si/p-c-Si$ struktura kontakt sohasida geteroo’tish xosil bo’ladi (rasm-1).



1-rasm

Ushbu strukturada $p-por-Si$ qatlam $p-c-Si$ qatlamdan kovaklarning injeksiyalanishiga to’siq xisoblanadi, ammo taqiq sohasini kattaligi xisobiga tushayotgan $h\nu < E_g$ energiyali yorug’liklar uchun shaffof xisoblanadi. Shuning uchun asosiy yorug’lik

$p-c-Si$ qatlamda yutiladi, bu esa ushbu strukturani $p-p^+$ sifatida qarash imkonini beradi. Demak asosiy tok tashuvchilar sifatida kovaklar deb qarash imkonini beradi.

Yorug’lik tushmagan holatda ham $p-por-Si/p-c-Si$ strukturani kontakt sohasida p/p^+ o’tish sohasi xosil bo’ladi. Ushbu farazning to’g’riligini tashqi kuchlanish qo’yilmaganda diffuzion tok yuzaga kelishi, ya’ni $U=0$ da $j\neq 0$ ekani tasdiqlaydi [7].

Shuning uchun ushbu ishda yorug’lik tushmagan xol uchun $p-por-Si/p-Si$ strukturani differensial qarshiligini tadqiq qilamiz. Differensial qarshilik uchun analitik ifodani quyidagi tenglamalardan foydalanib keltirib chiqaramiz

$$j_p = e\Delta p\mu_p E - eD_p\frac{d\Delta p}{dx} \tag{1}$$

$$e\frac{d\Delta p}{dt} - divj_p = G - \frac{\Delta p}{\tau_p} \tag{2}$$

Bu yerda Δp, μ_p, D_p va τ_p– lar mos ravishda kovaklar konsentratsiyasi, harakatchanligi, diffuziya koeffisiyenti va o’rtacha yashash vaqti. G– issiqlik generatsiya koeffisiyenti, j_p– tok zichligi, E – tashqi maydon kichik kuchlanishlar uchun ko’ramiz. Ushbu xolda $e\Delta p\mu_p E$ va $eD_p\frac{d\Delta p}{dx}$ xadlar orqali topiladigan kattaliklarni taqqoslasa bo’ladigan qiymatlarga ega deb olamiz. Xolat statsionar bo’lgani uchun $\frac{d\Delta p}{dt}=0$ munosabat bajariladi. $j_p \ll 1$ bo’lgani uchun $divj_p \approx 0$ deb xisoblaymiz. U xolda (1) tenglamadan quyidagi tenglamani keltirib chiqaramiz.

$$\Delta p - \frac{D_p}{\mu_p E}\Delta\dot{p} = \frac{j_p}{eE\mu_p} \tag{3}$$

(3) ifoda birinchi darajali differensial tenglama bo’lib $x=0$ da $\Delta p(0)$ boshlang’ich shartdan foydalaib ishlaymiz, tenglama yechimni $D_p=\mu_p\frac{kT}{e}$ ifodani xisobga olib quyidagicha yozamiz

$$\Delta p(x) = \frac{j_p}{eE\mu_p} + \left(p(0) - \frac{j_p}{eE\mu_p}\right)\exp\left(\frac{eE}{kT}x\right) \tag{4}$$

Agar na’munadan tok o’tmasa, ya’ni $j_p=0$ bo’lsa

$$\Delta p(x) = p(0)\exp\left(\frac{eE}{kT}x\right)$$ bo’ladi

$x=d_1$ sathda esa, ya’ni $p-c-Si$ qatlamni d_1–chuqur ichida.

$$\Delta p(d_1) = p(0)\exp\left(\frac{eU_{01}}{kT}\right) \qquad (U_{01}=Ed_1) \tag{5}$$

$por-c-Si$ qatlamda esa kovaklar konsentratsiyasi eksponensial ravishda kamayib bordi, ya’ni

$$\Delta p(-d_2) = p(0)\exp\left(-\frac{eU_{02}}{kT}\right) \qquad (U_{02}=Ed_2) \tag{6}$$

Geteroo’tish chegarasidagi [8] ga ko’ra quyidagiga teng

$$p(0) = N_A\exp\left(-\frac{e(U_v-\Delta U_F)}{kT}\right) \tag{7}$$

(4) – (7) ifodalarni xisobga olgan holda (1) ifodadan quyidagiga ega bo’lamiz

$$j_p = e\frac{U_0 + U}{\mu N_A}\exp\left(-\frac{e(\Delta U_v - \Delta U_F)}{kT}\right)\left(1 - \exp\left(-\frac{eU}{kT}\right)\right) \quad (8)$$

8) ifodadan foydalanib $U = 0$ dagi differensial qatshilikni aniqlaymiz

$$R = \left(\frac{dj}{dU}\right)^{-1}_{U=0} = \frac{kTd_1}{e^2U_0\mu N_A}\cdot\exp(e\frac{\Delta U_v - \Delta U_F}{kT})$$

Adabiyotlar

1. Sh.Sh.Qahramonova, N.A.Mirzaalimov, A.A.Mirzaalimov. Kremniy asosidagi quyosh elementlarning optik xususiyatlarini oshirish usullari. Fotonika muammolari va rivojlanish istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Urganch 2022.
2. E.Purwandaria, S.Mutma’inah, W.Maulina, A.Arkundato. Simulation of Hydrogenated Amorphous Silicon-based Solar Cell: Investigation of J-V Characteristic in Optimum Thickness. International Symposium on Physics and Applications (ISPA 2020).
3. V.P.Afanasyev, A.S.Gudovskiy. Солнечные элементы на основе гетероструктуры аморфный/монокристаллический кремний. Известия СПбГЭТУ «ЛЭТИ» № 4/2017.
4. A.S.Titov, A.S.Abramov, D.A.Andronikov, K.V.Emtsev, A.F.Semenov. Investigation of light-induced degradation of tandem photoconverters on a-Si:H/μc-Si:H. Journal of Physics: Conference Series 769 (2016).
5. V.V.Tregulov. The efficiency of solar energy conversion by the CdS/por-Si/p-Si heterostructure: the dopant effect. St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Physics and Mathematics. 13 (2) 2020.
6. Н.Н.Мельник, В.В.Трегулов, Н.Б.Рыбин, Н.В.Рыбина. Особенности строения приповерхностной области гетероструктуры CdS/por-Si/p-Si с пленкой пористого кремния, сформированной металл–стимулированным травлением. Краткие сообщения по физике ФИАН номер 7, 2020 г.
7. В.В.Трегулов, В.А.Степанов, В.Г.Литвинов, А.В.Ермачихин. Особенности механизмов токопрохождения в полупроводниковой структуре фотоэлектрического преобразователя с n+-p-переходом и антиотражающей пленкой пористого кремния. Журнал технической физики, 2016, том 86, вып. 11.

IMAGE PROCESSING TOOLBOX PAKETIDA TASVIRLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISHNING DASTURIY VOSITALARI TAHLILI

N.A.Qarshiboyev
Jizzax politexnika instituti

Hozirgi vaqtda MATLAB yadrosi matritsali hisoblashlar uchun eng zamonaviy dasturiy ta’minotni o‘z ichiga oladigan LAPACK (Linear Algebra Package) va BLAS (Basic Linear Algebra Subprograms) kutubxonalariga o‘rnatilgan. Universitet muhitida MATLAB matematika, texnika va boshqa ilmiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich va chuqurlashtirilgan kurslar uchun standart hisoblash asbobi hisoblanadi.

Sanoatda esa MATLAB ko‘pgina tadqiqotchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan keng foydalaniladi. MATLAB tizimidan ingliz tilida toolbox (asboblar to‘plami) deb ataladigan ixtisoslashtirilgan dasturlar to‘plamlari ko‘rinishida keng foydalaniladi [21].

Image Processing Toolbox raqamli ishlov berish va tasvirlar tahlili uchun vositalarning keng spektorini tavsiya etadi. MATLAB ilovalarini ishlab chiqish muhiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Image Processing Toolbox paketi kuchni asosiy ilmiy yoki amaliy vazifani hal etishga to‘plash imkonini yaratgan holda sizni kodlashning uzoq davom etadigan operatsiyasini bajarish va algoritmlarni sozlashdan xalos etadi.

MATLAB va Image Processing paketi foydalanuvchining yangi g‘oyalari va usullarini rivojlantirish, joriy etish uchun maksimal darajada moslashtirilgan [28].

Image Processing Toolbox ilovasi MATLAB muhitida raqamli hisoblashlar imkoniyatini kengaytiradigan funksiyalar to‘plamidan iborat. Ilova tasvirlarga ishlov berishning turli operatsiyalarini, jumladan quyidagilarni, o‘z ichiga olgan holda qo‘llab quvvatlaydi:

- tasvirlarning vaqt oralig‘idagi qayta o‘zgarishi;
- morfologik operatsiyalar;
- o‘zgaruvchan va qobiqli ishlov berish;
- turli filtrlar yordamida liniyali filtrlash;
- tasvirlarni tahlil qilish va ularni yaxshilash;
- tasvirlarni tiklash;
- buzilishlarni yo‘q qilish;
- qaratilgan sohasiga ishlov berish.

Ilovaning ko‘pgina funksiyalari MATLAB tizimida mantiqiy-fayllar ko‘rinishida taqdim etiladi. Ularda tasvirlarga ishlov berishning eng ko‘p ma’lum bo‘lgan algoritmlari amalga oshirilgan. Shuningdek, funksiyalarning ushbu algoritmlarni amalga oshiradigan dasturiy kodlarini qo‘rib chiqish imkoni mavjud.

typefunction_name

Image Processing Toolbox ilovasining barcha M-fayllari bir xil funksiyalarga ega va ulardan Signal Processing Toolbox va Wavelet Toolbox kabi boshqa ilovalar M-fayllari kombinatsiyalarida foydalanish mumkin.

Image Processing Toolbox paketi olimlar va muhandislar uchun raqamli ishlov berish va tasvirlarni tahlil qilish uchun vositalarning keng spektrini taqdim etadi.

Asosiy xususiyatlar:

- Tasvirlar detallarini tiklash va ajratish;
- Tasvirning ajratilgan uchastkasi bilan ishlash;
- Tasvirni tahlil qilish;
- Liniyali filtratsiya;
- Tasvirlarni qayta o‘zgartirish;

- Geometriko‘zgarishlar;
- Muhim detallar kontrastligini oshirish;
- Binar o‘zgarishlar;
- Tasvirga ishlov berish va statistika;
- Rang o‘zgarishlari;
- Palitraning o‘zgarishi;
- Tasvirlar turlarini o‘zgartirish.

MATLAB Image Processing Toolbox paketi bizga bizning ko‘p kuch va mablag‘larimizni saqlab qoladigan yuqori sifatli algoritmalarni qo‘llash imkonini berdi [32].

Image Processing Toolbox paketi MATLAB muhiti bilan to‘liq moslashadigan grfik tasvirlarni yaratish va talil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu paket tasvirlarni manipulyatsiya qilish imkonini beradigan o‘zgaruvchan interfeysni, grafik tasvirlarni ineraktiv ravishda ishlab chiqishni, mahlusotlar to‘plamini vizualashtirish va texnik ta’riflar, ma’ruzalar va nashrlar uchun annotatsiya tuzish imkonini ta’minlaydi.

Paketning o‘zgaruvchanligi, algoritmlarining MATLAVning matritsa-vektorli ta’rifi kabi o‘ziga xos xususiyati bilan birlashib paketni grafikaga ishlov berish va uni taqdim etish bo‘yicha har qanday masalani hal etish uchun juda qulay moslashgan qiladi.

MATLABga maxsus ishlab chiqilgan protseduralar kiradi. Ular grafik qobiqning samaraliligini oshirish imkonini beradi. Xususan ana shunday xususiyatlarni belgilab o‘tish mumkin:

- Grafikaga ishlov berishda interaktiv sozlash;
- Algoritmni bajarish vaqtini optimallashtirish uchun profilirovkachi;
- GUI-shablonlarni ishlab chiqarishni tezlashtirish uchun foydalanuvchining GUIBuilder) interaktiv grafik interfeysini qurish vositasi.

Ushbu paket foydalanuvchi uchun standart grafik tasvirlarni yaratish uchun kam vaqt sarf qilish, shu tariqa foydalanuvchiga ushbu tasvirning muhim detallari va o‘ziga xos xususiyatlarida e’tiborni kuchaytirish imkonini yaratadi.

MATLAB va Image Processing Toolbox paketi foydalanuvchining yangi g‘oyalari va usullarini rivojlantirish uchun maksimal darajada moslashgan. Buning uchun mumkin bo‘lgan o‘ziga xos masalalarni va noan’anaviy masalalarni hal etish uchun yo‘naltirilgan paketlar to‘plami mavjud.

MATLAB tili ochiq arxitekturaga ega, bu esa modullarni tanlash va C, FORTRAN, MATLAB bilan bog‘lash imkonini beradi. Ma’lumotlar bazalari, algoritmlar va dasturiy kodlar turli operatsion muhitlarda, jumladan PC, Unix va Macintosh muhitlarda saqlanadi. MathWorks da test o‘tkazish MATLAV muhitining barcha, jumladan qo‘shimcha komponentlari ushbu operatsion muhitlarda to‘liq ishlay olishini ko‘rsatdi [19].

Image Processing paketi hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha 4000 ta kompaniya va universitetlarda ishlatiladi. Shu bilan birga foydalanuvchilar ushbu paket yordamida juda ko‘p sohalarga tegishli masalan: kosmik tekshiruvlar, harbiy ishlab chiqarishlar, astronomiya, meditsina, biologiya, robotlarni qurish, materialshunoslik, genetika va boshqa bilan bog‘liq masalalarni hal etmoqdalar.

MATLAB va Image Processing paketi ob’ektning uch o‘lchamli shaklini tez ishlab chiqish imkonini berdi. Vizuallashtarish bo‘yicha imkoniyatlari esa ob’ekt modelini ishlab chiqish uchun ketadigan vaqtni ancha qisqartirish imkonini berdi [21].

MATLAB texnik va ilmiy hisoblashalarni hal etish uchun yuqori darajali til hisoblanadi. Unda hisoblashlar, vizualizatsiya va dasturlash qulay bo‘lgan foydalanuvchi muhitida integrallashgan, undagi masalalar va ularning echimlari birlamchi matematik belgilashlar yordamida ifodalanadi.

Amallarning namunaviy to‘plami o‘z ichiga quyidagilarni oladi:
- matematik hisoblashlar;
- algoritmdarni ishlab chiqish;
- prototip tizimlarni modellashtirish va yaratish;
- ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni o‘rganish va vizualizatsiyani;
- turli grafiklarni qurish;
- ilovalar va foydalanuvchi interfeysini ishlab chiqish.

Image Processing Toolbox ilovasi tasvirlarga ishlov beradigan standart algortmlar va grafik vositalarning to‘liq to‘plamidan iborat. Siz tasvirni yaxshilashni, shovqinni kamaytirishni, tahlil qilish, vizuallashtirish va algoritmlarni rivojlantirishingiz mumkin. Image Processing Toolbox muhandislar va olimlar tomonidan tasvirlarni siqish, uzatish va yaxshilash tizimini ishlab chiqish, kuzatish va tanib olish, biometrika, yarim o‘tkazgichlarni testdan o‘tkazish, mikroskopiya, sensorlarni ishlab chiqish, materialshunoslik va boshqa sohalarda qo‘llanadi [28].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гонсалес Р. Цифровая обработка изображений Ғ Р. Гонсалес, Р. Вудс. - М. : Техносфера, 2005. - 1072 с.
2. Претт У. Цифровая обработка изображений: Пер. с англ. - М.: Мир. 1982. - Кн. 1 и 2
3. Reusch B. Soft Computing Multimedia and Image Processing B. Reusch, M. Fathi // Proceedings of the World
4. Тавбоев С. А., Каршибоев Н. А. МЕТОДЫ УЛУЧШЕНИЯ КОНТРАСТА ИЗОБРАЖЕНИЙ ПРИ НЕЧЕТКОЙ ИСХОДНОЙ ИНФОРМАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 427-432.
5. Tovbaev Sirojiddin Karshiboev Nizomiddin International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 4 Issue 4, June 2020 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
6. Tavboyev Sirojiddin Akbutayevich, Qarshiboyev Nizomiiddin Abdumalikovch Application of the theory of indistinct sets in the estimation of
quality of educational process // Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 12.2020

VERTIKAL O‘QLI SHAMOL ENERGETIK QURILMASI PARRAGINING QO‘ZG‘ATISH UCHUN KERAKLI TEZLIKNI ANIQLASH.

M.E.Yo’lchiyev, X.T.Kamilov, N.M.Abdullayev, N.M.Abdullayev, *A.B.Raxmonov*
mashalbek@mail.ru, Xotamjon.kamilov@mail.ru, abdullaev13101999@gmail.com
Andijon mashinasozlik institute

Hozirgi rivojlanib borayotgan bir davrda aholining energiyaga bo‘lgan ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Tabiatdagi jami energiya resurslarni tugab borishi ko‘plab davlatlarni havotirga solib qo‘ydi. Hususan neft, gaz, ko‘mir, torf va boshqa tabbiy boyliklar yildan yilga qazib olish va ularni qayta ishlash kamayib kelmoqda. Har bir davlat aholisining energiyaga bo‘lgan istemoliga qarab qayta tiklanauvchan energiya manabalariga bosqichma bosqich o‘tib kelishmoqda. Hozirda jahonning Germaniya, Daniya, Ispaniya, Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlari quyoshdan, shamoldan, suvdan va bigaz maxsulotlaridan keng ko‘lamli foydalanishni yo‘lga qo‘yishmoqda. Tabbiy boyliklardan foydalanish, axolining orib borishi ulardan hosil bo‘lgan chiqindi maxsulotlarini ko‘payib ketishi iqlimni buzilishiga yani havoning ifloslanishiga olib kelmoqda. Havoning ifloslanishi yani turdagi kassalikni paydo bo‘lishiga va iqlimning keskin o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli biz yashil energiyadan foydalanishimiz kerak. O‘zbekistonda ham bunday energiya turlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘zbekiston sharoitida quyosh nuridan foydalanib elektr energiya olish uchun qulaydir. Quyosh panellarini fotoelektrik hossalarini oshirishda O‘zbek olimlari ko‘plab ilmiy ishlar qilishmoqdalar va samarali natijalar olishyapti. O‘zbekiston hududidagi maydonlardan quyoshdan energiya olibgina qolmay, shamoldan ham energiya olishni boshlab yuborishgan. Shamol energetik qurilmalarini o‘rnatishga qulay bo‘lgan hududlar Zarafshon, Qo‘qon, Qoraqolpog’iston, Buxoro va boshqa hududlarda shamol elektr stansiyanini qurish allaqochon ishlarni boshlab yuborilgan. Shamol energiyasidan foydalanib tabiy va toza holdagi energiya olishga erishamiz. Boshqa ko‘plab davlatlar ham shamol elektr stansiyalari orqali o‘z aholisini energiyaga bo‘lgan ehtiyojini bir oz bo‘lsada qondirishmoqda. Rivojlangan davlatlar shamol energetik qurilmasini ishga tushurib hamda ularga kerakli bo‘lgan konstruksiyalarini ham eksport qilishmoqda. Asosan Germaniya va Daniya vertikal o‘qli hamda gorizontal o‘qli shamol energetik qurilmalari uchun parraklar ishlab chiqarib sotishni yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda shamol energiyasidan foydalanishda gorizontal o‘qli shamol energetik qurilmasi uchun joylar ajratilib berildi va ushbu joylarda qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bizning hududimizda vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi qo‘llash katta magisdtral yo‘llarga joylashtirilmoqda, undan olingan energiyani yo‘l belgilarini yoritishda hamda ko‘cha chiroqlarini yoritishda foydalanib kelinmoqda.

Natijalar. Shamol energetik qurilmasi shamolning kinetik energiyasidan foydalangan holda ishlaydi. Havoning turli temperaturada bir biri bilan aralashib oqishi hisobiga turli balandlikda turli tezlikdagi shamol hosil bo‘ladi. Gorizontal o‘qli shamol energetik qurilmasi parraklari asosan 3 ta dan iborat bo‘ladi vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi parraklar soni undan biror ko‘proq bo‘ladi. Bizning vertikal o‘qli shamol energetik qurilmamizni parraklari soni 4 tani tashkil etadi. Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmalari parraklari bir o‘qga maxkamlanib ushbu o‘q pachemniklar orqali doimiy magnit yordamida qo‘zatiladigan o‘zgarmas tok generatori maxkamlanadi. Parraklar yuzasi o‘zgaruvchan bo‘lib ular orasidagi burchak 90^0 ni tashkil etadi. Parrakning o‘rtasiga asos qilib tayanch maykamlangan u o‘rtadagi o‘qga biriktirilgan. Parraklarni shamol bilan birinchi tasirlashuvchi qismi yassiroq qilib oxiri chiqib ketuvchi qismi esa botiqroq qilib ishlangan. Bu holatda yasalishi parraklarga urilgan havo oqimi undan chiqib ketishda keyingi parrakda tormozlovchi kuch hosil qilmaydi. Bu ifoda quyidagich aniqlanadi.

$$F=ma \qquad a=\frac{v_0-v_2}{\Delta t}$$

Parrak o‘lchami va shakli uning yasalish mexanizmi murakkab jarayon hisoblanadi. Asosiy o‘rinda barcha shamol energetik qurilmasiga tegishli har bir jihozlarni birin ketinlik bilan o‘z joyiga o‘rnatish kerak. Dastlab taglik qismini yaratish so‘ng uni aylanuvchi mexanizmini va boshqa qismlarini joylashtirishimiz kerakdir. Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasiga tegishlik bo‘lgan barcha jihozlar va ularni o‘lchamlari keltirilgan.



1-Rasm Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasining tashkil qiluvchi tuzilmalari.

Shamol energetik qurilmasi konstruksiyasi shakli manashu ko‘rinishni olgan holda yig‘iladi. Ushbu vertikal parraklar asosan havoning old qarshilik kuchi hisobiga ishlaydi. Bizning tajribamizda vertikal o‘qli shamol parraklar bo‘yining uzunligi 6sm ni tashkil etadi.



2-Rasm Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi parragi.

Parrak eni uzunligi 3sm uni maxkamlanish qismining uzunligi esa 1sm ni tashkil etadi. Maxkamlanish uzunligi bo‘lishiga asosiy sabab markazdan qoshma kuchni kattalashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Uni maxsus qurilma orqali vertikal o‘qga

maxkamlaymiz. Maxsus maxkamlanuvchi qurilma esa o‘zgarmas tok dvigatelidan 3.5sm balandlikga o‘rnatilgan bo‘lib, bu nuqta parrakning markaziga to‘g‘ri kelib diametri 2sm ni tashkil etadi. Shamol energetik qurilmasini parraklarini harakatga keltirish uchun tabiiy shamol va suniy shamoldan foydalanamiz. Tajribamizda shamol suniy bo‘lib shamollatgich (ventilyator) dan foydalanildi.

Shamol tezligini o‘lchash ushun elektronlashgan anemometrdan foydalanib o‘lchadik. Bunga ko‘ra shamol tezligi parraklarga urilish oldidan o‘lchanib olindi va parraklarni bir qismiga urilishini hisobga oldik. Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi uchun shamol faqat bir tomondan kelishi foydalidir sababi ikkinchi tomondan shamol esishi unda tormozlovchi kuchni hosil qiladi. Shamol esib parrakga urilish yuzasini ham umumiy yuzani yarmi olinadi. Shamol kelib uriluvchi yuzani to‘g‘ri to‘rtburchak deb hisoblasak undan faqat shamol yo‘nalishiga nisbatan aylanadigan qismini hisobga olamiz. Shamol yo‘nalishida aylanadigan qismi botiqroq shamol yo‘nalishiga nisbatan qarshi tomoni qavariq qilib ishlangan hisoblandi. Shu sababli botiq tomonida shamolning parrakga beruvchi kuchi qavariq tomonga beruvchi kuchida ancha katta bo‘ladi. O‘lchangan natijalarga ko‘ra shamolning tezligi 2.8m/s tezlikga yetganda parraklar harakatlana boshlagani malum bo‘ldi.

3-Rasm Anemometr

Ushbu rasmda anemometr ko‘rinishi aks etgan bo‘lib u shamolni tezligini va yo‘nalishini aniq o‘lchab beradi. Unga turli xil datchiklar o‘rnatilgan bo‘lib shamol esib turgan hududni kengligini, geografik joylashishi, shamol harakat yo‘nalishi, havo namligi, shamolni tezlik miqdorni aniqlab beradi. Bunda shamol tezligi qaysi tomondan kelishdan qatiy nazar aniq o‘lchab beradi. Shamol kinetik energiyasi hisobga anemometr ichki qismidagi parraklar aylanadi va shamol tezligi aniqlanadi.

Xulosa

Olingan natijalardan ko‘riladiki shamolning tezligi malum miqdorda bo‘lgandagina shamol parragi aylanishni boshlar ekan. Bunga asosiy sabab har qanday qurilma uchun qarshilik kuchi mavjud bo‘lib uni yengigan so‘ng ishlashni boshlaydi. Shamol parrakni aniq bir tezlikga yetganda qo‘zg‘aladi. Bu qo‘zg‘alish tezligi shamol energetik qurilmasi uchun yasalgan parrakni yuzasiga va ularni parraklar soniga bog‘liq bo‘ladi. Bizning tajribamizda parraklar soni 4 ta bo‘lib aylanish uchun qulaydir. Bunda qo‘zg‘alish tezligi 2.8m/s ekanligi anemometr yordamida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boeing Engineering and Construction: MOD-2 Wind Turbine System Concept and Preliminary Design Report, Vol. II, Detailed Report, DOE/NASA 0002-80/2, NASA CR-159609, July 1979.
2. AWEA (2002) The most frequently asked questions about wind energy. American Wind Energy Association, Washington D.C.
3. Grover, R. D. and E. G. Kadlec: *Economic Analysis of Darrieus Vertical Axis Wind Turbine Systems for the Generation of Utility Grid Electrical Power. Vol. III: Point Designs*, Sandia Laboratories Report SAND78-0962, August 1979.
4. Lee L G (2004) Wind energy developments: Incentives in selected countries. EIA
5. Komilov M. (2021) Norwegian Journal of development of the International Science. MODELING THE PHOTOELECTRIC PARAMETERS OF THIN SILICON-BASED SOLAR CELLS USING THE SENTAURUS TCAD (стр. 62-65)

$CSPBI_2Br$ PEROVSKIT FAOL QATLAMLARINI OSON VA PAST HARORATLARDA TAYYORLASH

I.R.Boynazarov[1],A.X.Tursunova, A.A.Saparbayev[1,2]
U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va lazer texnologiyalari instituti[1]
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti[2]
ilhomboynazarov0821@gmail.com

Noorganik $CsPbI_2Br$ perovskit materiallar yuqori termal mustahkamlik va faza barqarorligiga ega ekanligi bilan perovskit asosidagi quyosh elementlari uchun istiqbolli hisoblanadi. Biroq, $CsPbI_2Br$ perovskitning barqaror va yuqori samaradorlikka ega kubik strukturali qora fazasini olish uchun >250 ^oC yuqori haroratli qizdirish talab qilinadi.[1] Perovskit quyosh elementlari uchun kubik strukturali qora faza ideal holat hisoblanadi. Sababi bunday holatda perovskit faol qatlam Ichida zaryadlarning harakatlanishi va yashash vaqti eng yaxshi natijaga erishadi, ya’ni ajralgan qaramaqarshi zaryad jufti eksitonning yashash vaqti uzoqroq bo’lib tezda rekombinatsiyaga uchramaydi. Shuningdek qora fazada perovskit faol qatlamning yutilish spektri ham keng diapazonda bo’ladi. [2] Ushbu ishda, samarali va barqaror quyosh elementi materiallari sifatida ta'kidlangan yuqori samarali noorganik $CsPbI_2Br$ perovskitni yasash uchun qulay past haroratli bir bosqichli usul ishlatilgan bo’lib, noorganik $CsPbI_2Br$ perovskit quyosh elementini bir bosqichli spin koating usuli yordamida oson yotqizildi va 100^oC past haroratli qizdirish jarayoni orqali $CsPbI_2Br$ faol qatlamlari tayyorlanib yutilish spektrlari tadqiq qilindi.



1-rasm. $CsI+PbI_2+PbBr_2$ *va* $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ *eritmasidan foydalangan holda 100^oC da qizdirilgan ikki xil* $CsPbI_2Br$ *perovskit faol qatlamlarning yutilish spektrlari*

1-rasmda yutilish spektri grafigidan ko’rish mumkinki, odatda $2CsI+PbI_2+PbBr_2$ prekursor eritmasi orqali olingan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlami 100 ^oC haroratda 10 daqiqa davomida qizdirish orqali kristallanishi qiyin. Olingan bu $CsPbI_2Br$ faol qatlam sariq och jigarrang va sariq faza xususiyatlarini ko'rsatadi. Yutilish spektri intensivliklaridan ko’rish mumkinki, tayyorlangan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlam yutilish chegarasi 450 nm dan boshlanadi va intensivlik piki esa 400 nm atrofida bo’lib, 400 nmdan katta to’lqin uzunliklar sohasida yutilish koeffisenti deyarli nolga teng. Bu natija $CsI+PbI_2+PbBr_2$ eritmasi orqali tayyorlangan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamning kristallanishi 100 ^oC dan past haroratda

erishish qiyin ekanligini ko'rsatadi. Natijada sariq faza strukturaga ega perovskit faol qatlamlari juda yomon fotovoltaik natijalarni namoyon etadi. Shu sababli, PbI_2 perovskit materiali o’rniga $HPbI_3$ materialini almashtirgan holda quyidagi $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ eritmani hosil qildik. Ushbu eritmani ham oddiy bir bosqichli spin qoplama jarayoni yordamida perovskit faol qatlamini oldik. 1-rasmda yutilish spektri grafigidan 100 ^oC haroratda 10 daqiqa qizdirish orqali sariq faza strukturasidan qora faza strukturasiga o’tish jarayoni yetarli darajada bo’lganligini ko’rish mumkin. Ya’ni perovskit faol qatlam strukturasi qizdirish natijasida to’lig’icha kubik struktura xosil qilmoqda. Past haroratda qizdirilgan $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ eritmasi orqali olingan $CsPbI_2Br$ faol qatlamning yutilish spektrini $CsI+PbI_2+PbBr_2$ eritmasi orqali tayyorlangan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamning yutilish spektri bilan solishtirilsak, shubhasiz, $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ eritmasidan foydalangan holda tayyorlangan perovskit faol qatlam barqarorligi, yutilish intensivligining yuqoriligi va quyosh nurining kengroq diapazonda yutilishini ko’rishimiz mumkin. $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamning yutilish chegarasining boshlanishi taxminan 679 nm ni tashkil qiladi, bu natija esa qora faza strukturaga ega $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlam uchun olingan yutilish spektri natijlari bilan mos keladi[5]. $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ eritmasidan foydalangan holda tayyorlangan $CsPbI_2Br$ faol qatlamga asoslangan perovskit quyosh elementlarning energiya o’zgartirish samaradorligi 10,56% samaradorlikni ko’rsatdi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, perovskit quyosh elemntlarini past haroratlarda va oson usullarda tayyorlashga erishish uchun perovskit materiallarning tanlovi ham muhim ahamaiyatga ega ekan. Sababi perovskit quyosh elementlari tayyorlashning bir necha minglab kombinatsiyasi mavjud. Bizning bu olgan natijamizdan kelgusida perovskit quyosh elementlarini tayyorlashdagi materiallar tanlovi uchun foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Zhao, Y., & Zhu, K. (2016). Organic–inorganic hybrid lead halide perovskites for optoelectronic and electronic applications. Chemical Society Reviews, 45(3), 655-689.
2. Xing, G., Mathews, N., Sun, S., Lim, S. S., Lam, Y. M., Grätzel, M., ... & Sum, T. C. (2013). Long-range balanced electron-and hole-transport lengths in organic-inorganic $CH_3NH_3PbI_3$. Science, 342(6156), 344-347.
3. Yang, W. S., Park, B. W., Jung, E. H., Jeon, N. J., Kim, Y. C., Lee, D. U., ... & Seok, S. I. (2017). Iodide management in formamidinium-lead-halide–based perovskite layers for efficient solar cells. Science, 356(6345), 1376-1379.

YARIMO`TKAZGICh TERMOELEKTR ENERGIYA O`ZGARTIRGIChLAR NING ISSIQLIK VA ELEKTROFIZIK TAVSIFNOMALARINI TEKShIRISh

M.B.Nabiyev[1], M.Omonova[2]
Farg’ona davlat universiteti,
mbnabiyev52@gmail.com, mohidilomonova95@gmail.com

So`nggi paytlarda mamlakatimizda qaytadan tiklanadigan va muqobil energiya manbalariga, ya’ni issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirishga qiziqish ortib borayotgani sababli, yarim o`tkazgich termoeyektrik asboblar va fotoelektr stantsiyalarning qurilish loyihalarini amalga oshirilayotganligi juda dolzarb bo`lib, mamlakatimizni yosh ilmiy tadqiqotchilari yarim o`tkazgich materiallarning xossalarini tekshirish va o`rganishning yangi xususiyatlarini optimallashtirish bo`yicha, turli tadqiqotlarni o`tkazmoqdalar, 1821 yilda nemis olimi Zeyebek tomonidan quyidagi kashfiyot kuzatildi: Bu hodisani tub mohiyatini Zeyebek darhol tushuntirib bera olmagan bo`lsada, Pelьtьye tomonidan o`tkazilgan tajriba ancha aniqlik kiritdi. Pelьtьye xuddi shunday turlicha elektrofizik parametrlarga ega bo`lgan materiallar jufti zanjiriga o`zgarmas tok manbaidan elektr toki yuborib bir payvandlangan uchni harorati juda pastlab ketganini va ayni bir paytda esa ikkinchi payvandlangan uchni harorati yuqori ekanligini tekshirdi (rasm-1). Bu ikki o`zaro teskari hodisa keyinchalik to`g`ri talqin qilib berildi va u termoelektrik energetika asosini tashkil qildi.



1-расм. Пельтье тажрибасига мисол.

Shunday qilib, 1.) Zeyebek hodisasi mazmuni: O`tkazgichlar kavshar langan uchida tashqaridan qo`shimcha energiya ta’siri bo`lguncha kristall panjaradagi o`z orbitasida joylashgan elektronlar tinch holatda bo`ladilar. Chunki ular yadro bilan bog`langai bo`lib uni ajratish uchun faqat qo`shimcha energiya darkor.Payvandlangan uchga sham yoki boshqa issiqlik manbai orqali ta’sir etilganda yadro bilan avvalo bo`shroq bog`langan elektronlar, bora-bora esa kuchliroq bog`langan elektronlar ham yadrodan uzilib erkin harakat qila boshlaydilar. Natijada issiq uchida erkin elektronlar kontsentratsiyasi ortadi. O`tkazgichlarni sovuq uchlarida esa doimo sovutgich yordamida harorat past darajada ushlab turilganligi sababli elektronlar harakatlana olishmaydi, natijada esa erkin elektronlar deyarli yo`qdek. Issiq uchlarida erkin elektronlar kontsentratsiyasi ko`payishi ularni “bo`shroq” tomonlarga qarab (ya’ni o`tkazgichlarni sovuq uchlari tomon) harakatlanishiga olib keladi. Elektronlarni issiq uchlaridan sovuq uchlari tomon harakatlanishiga asosiy sabab ulardagi energiya ko`pligidir. Bunday elektronlarni oqimi keyinchalik elektr yurituvchi kuchlar deb atala boshladi. Bu E.Yu.K. quyidagicha aniqlanadi: $\sum \mathrm{E}_{AB} = \ell_{\mathrm{A}} - \ell_{B}$ (1)Agar zanjir berk holda bo`lsa, Om qonuniga ko`ra shu E.Yu.K vazanjirni tashkil etuvchilar ichki qarshiliklari hisobiga elektr toki orqali:

$$J = \frac{\sum \mathrm{E}_{AB}}{\sum R} \quad (2)$$

Termoelement zanjiriga yuklama sifatida ulangan qarshilikka ajrab chiqayotgan elektr quvvat: $W_{T\Theta} = \mathrm{E}J$ (3) bo`lib, u TE ni generatorlik xossasini belgilaydi.



2.)Peltye hodisasini zonalar diagrammasi yordamida oson tushuntiriladi. Buning uchun ikki xil yarimo`tkazgich payvandlangan kontakt diagrammasiga murojaat qilamiz. (rasm-2) A va B yarimo`tkazgich zanjiriga elektr manbasini ulab, hoh u tomonga yoki qutblarini o`zgartirgan holda hoh bu tomonga elektr tokini yo`naltiraylik. Ma’lumki turli elektrofizik parametrli yarimo`taazgichlarni zona diagrammasida ham farq bo`ladi. Shulardan biri ta’qiqlangan zona (T.Z) kengligi hamdir. Misolimizda A yarimo`tkazgichni taqiqlangan zonasidan B yarimo`tkazgichni taqiqlangan zonasi biroz kengroq bo`lganligi sababli tashqi elektr ta’sir yo`nalishi J_1 holatda bo`lgan o`tkazuvchan zonaga yotib olgan elektron o`tish maydoni ta’sirida B yarimo`tkazgichdan A yarimo`tkazgichga o`tadi. Bu elektron qoidaga ko`ra A yarimo`tkazgichni o`tkazuvchan zonasida eng pastda joylashgan va bo`sh bo`lgan energetik sathni egallamog`i darkor. Ammo bu sathenergiyasidan erkin uchib kelgan elektron energiyasi $+\Delta\varepsilon_g$ ga ortiqcha bo`lganligi sababli joylasha olmaydi. Joylashish uchun esa shu $+\varepsilon_g$ miqdordagi energiyani o`zidan issiqlik nurlanishi sifatida chiqarib yuborilib kristall panjaraga uzatmog`i lozim. Xuddi shunday bularda ham elektronlarni uzluksiz ravishda ortiqcha energiya miqdorini kristal panjaraga berishi natijasida shu payvandlangan qism qiziydi.Endi tok yo`nalishi J_2 holatda bo`lgan paytdagi hodisani ko`raylik. Bunda tokni yo`nalishga mos holla A yarimo`tkazgich valent zonasidagi (V.Z) elektronlar o`tkazuvchan zonaga o`tgach elektr va o`tish maydoni ta’sirida B yarimo`tkazgichning o`tkazuvchan zonasiga o`tishi kerak bo`ladi. Buni amalga oshirish uchun $-\Delta\varepsilon_{g1}$ energiya yetishmaydi. Elektron xuddi shu yetishmagan energiya miqdorini esa kristall panjaradan oladi. Elektronlarni tinimsiz ravishda kristall panjara energiyasi hisobiga A yarimo`tkazgichdan B yarimo`tkazgichga o`tishi materialni shu uchini sovib ketishiga olib keladi. Bu hodisalarni elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish jarayonlari uchun ham misol qilib olinsa bo`ladi.Termoelektrik energetikada asosan Zeyebek xodisasiga asoslangan kurilmalardan foydalanilib ular yordamida issiqlik energiyasi yordamida elektr energiyasi olinadi. Termoelementlar (TE) Zeyebek misolida ko`rsatilganidek ikki xil elektrofizik parametrlarga (ya’ni elektro`tkazuvchanlik $\sigma$ , issiqlik o`tkazuvchanlik χ va issiqlik elektr yurituvchi ku-chi koeffitsiyenti α ga) ega bo`lgan yarimo`tkazgich materiallardan yasaladi. Bu materiallarni biri r-tipidagi o`tkazuvchanlikka ega bo`lsa, ikkinchisi esa r—tipidagi o`tkazuvchanlikka egadir. Termoelementlar shakli ham turlicha bo`lishi mumkin. Ulardan eng ko`p tarqagani to`g`ri to`rtburchak yoki tsilindrsimon shakldagilardir .



Termoelementlarni issiqlik qabul qiluvchi yuqori uchlari va sovutilib turuvchi pastki uchlari kommutatsion (birlashtiruvchi) plastinkalar bilan tutashtirilgan bo`lib, ular orqali isitgichga (yoki sovutgichga) ulanadi. Bir necha termoelementni ketma-ket ulansa termobatareya hosil bo`ladi (rasm- 3).TEni f.i.k.si $\eta_{ÒÝ}$ ni hisoblash quyidagicha: $\eta_{T\Theta} = \frac{T_U - T_C}{T_U} \cdot \frac{M-1}{M + \frac{T_C}{T_U}}$ bu yerda

$$M = \sqrt{1 + \frac{1}{2} Z(T_C - T_U)}$$

$$Z = \frac{\alpha^2 \sigma}{\chi} \approx 2{,}4 \div 2{,}7 \cdot 10^{-3} \, epa\partial^{-1}$$

TE f.i.k.ni T_i ga bog`liqligi grafigini chizish va eksperimentga matematik model yaratish mumkin.

Adabiyotlar.

1. Ye.K.Iordanishvilli. ”Termoelektrik energiya manbaalari” M.1968y.
2. M.B.Nabiyev., K.E.Onarqulov., Ya.Usmonov va bosh,, Termoelektr energiya o`zgartirgichlar.FDUnusxa ko`paytirish tipografiyasi, Farg`ona-2018yil.
3. M.B.Nabiyev Yarim o`tkazgichli termoelementlar. Monografiya. “FDU” nashiriyoti.Farg`ona-2022.

TERMOELEKTRIK GENERATORLAR MODULIDAN FOYDALANISH

X.A.Mo’minov, A.J.Iskandarov, M.SH.Mamadaliyev
Namangan muhandislik texnologiya instituti,

Ma’lumki, hozirgi kunda ko’plab olimlar ekologik toza usulda olinadigan energetikani rivojlantirish ustida ko’plab izlanishlar olib bormoqdalar. Spu yo’nalishda issiqlikni to’g’ridan to’g’ri elektr energiyasiga aylantirib beruvchi termoelektrik ganeratorlar ham alohida ahamiyatga ega.

Kuchlanish va quvvatni ortirish uchun shunday termojuftliklar sonini ortirib 1 - rasmdagidek ketma-ket ulanishi kerak.



1-rasm. Termojuftliklar ulanishini yon tomondan ko’rinishi.

Odatda juda ko’p sondagi tekmojuftlarni bir to’plamga joylab termoelektrik juftliklar modulini yaratiladi.

2-rasmdagidek qurilmani termoelektrik generator moduli deyiladi. Uning yuqori qismiga issiqlik beriladi, pastki qismidan issiqlik olib ketiladi.



2-rasm. Termoelektrik generator moduli.

Bunday termoelektrik modullar yordamida olingan maksimal quvvatga tashqi yuklama va ichki qarshiliklar nisbati

$$m=\frac{R_T}{R_N}\approx 1,4$$

bo’lganda erishilishi kuzatilgan.

Termoelektrik generatorlar samaradorligi uning foydali ish koeffitsienti $\eta = P/Q_L$ orqali aniqlanadi.

FIKni oshirish uchun isitilayotgan va sovutilayotgan tomonlarga berilayotgan Q_t va olib ketilayotgan Q_c issiqlik energiyasi farqini ortirish kerak. Elektr quvvati temperaturalar farqining kvadratiga proportional bo’ladi.

$$P=Q_L-Q_C\approx J^2R_n\sim\Delta T^2$$

Ko’ramizki, temperaturalar farqini va moduldagi termoelementlar sonini yetarlicha tanlansa, yoritish tizimida samarali ishlatiladigan elektr energiyasi manbaiga ega bo’lish mumkin. Haqiqatdan ham kundalik yoritish tizimidagi uzilishlarni qoplashda energiyasi tez tugaydigan sham, fonar va turli akkumulyatorli yoritgichlar o’rniga termoelektrik generatorlardan foydalanib, yuklama qarshilik o’rnida diod lampalar ishlatilsa, ancha qulaylikka va iqtisodiy tejamlikka erishiladi. Aytish kerakki, bu tizimda termoparalar modulini yaratgach, issiq va sovuq temperaturalar farqini hosil qilish muammosini hal etish lozim. Buning uchun bir tomonga xonadonni isitadigan pech, o’choq, batareya va hokazolardan, ikkinchi tomondan atmosfera temperaturasidan foydalanish mumkin. Temperaturalar farqi 50 – 100^0 C bo’lgandayoq EYUK hosil bo’lishi kuzatila boshlaydi va u bir necha to’plamli yorug’lik diodlarini energiya bilan tahminlashga yetarli bo’ladi.

Issiqlik oqimi zichligini o’lchashda termoelektrik generatorlardan foydalanish mumkin. Odatda turli dvigatellarni issiqlik rejimini nazorat qilish, turli asbob va mexanizmlarda issiqlik yo’qotilishini aniqlash, issiqlik o’tkazuvchanlik koeffitsientlari haqida ma’lumot olish, biologik ob’yektlarni issiqlik chiqarishi dozalarini nazorati, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ko’plab boshqa sohalarda issiqlik yo’qotilishini nazorati zarur. Teplomer sifatida termoelektrik moduldan foydalanishni asosiy ish tamoyili yordamchi devor deb ataladigan usuldan iborat. Issiqlik oqimi yo’liga o’lchov devori qo’yiladi – u ma’lum issiqlik o’tkazuvchanlik koeffitsientiga ega bo’lib, termoelektrik modulda devor rolini bir tomoni o’ynaydi. Boshqa hech qanday qo’shimcha asbob talab etilmaydi. Buning afzalligi shundaki, termoelektrik modulda hosil bo’lgan EYUK qiymatiga qarab, temperaturalar farqi, ya’ni issiqlik oqimi o’lchanadi. Termogeneratorlarni teplomer sifatidagi ish rejimi bu ularning generatsiyasining xususiy holi bo’lib tashqi yuklama qarshilik cheksizga teng bo’lgan holidir.

Adabiyotlar

1. Bronshteyn A.I. Fizicheskiye osnovi rascheta poluprovodnikovix termoelektricheskix ustroystv. M.: Fizmattiz, 1962.
2. Goldsmit G. Primeneniya termoelektrichestva / Per. s angl. Pod red. A.F. Chudnovskogo. M.: Fizmattiz, 1963.
3. Oxotin A.S., Yefremov A.A., Oxotin V.S.,Pushkarskiy A.S. Termoelektricheskiye generatori. M.: Atomizdat, 1971.
4. Iordanishvili Ye.K. Termoelektricheskiye istochniki pitaniya. M.:Sovetskoye radio, 1968.

ORGANIK QUYOSH ELEMENTLARINI YUTILISH SPEKTRLARINI O’RGANISH (P3HTva PCBM ASOSLI).

B.K.Sobirova[1,2], I.I.Tojiboyev[1]
O‘zRFA U. A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti[1]
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti[2]

Quyosh ulkan energiya manbai. Quyosh spektral nurlanishining yer yuzasida intensivligi 1000 Vt/m^2 Quyosh elementlari quyosh nuridan energiya olish uchun ixtiro qilingan. Quyosh elementi - bu yorug'likni to'g'ridan-to'g'ri fotovoltaik ta'sir orqali elektr energiyasiga aylantiradigan qattiq holatdagi elektr qurilma. Yorug'likning elektr energiyasiga aylanishi atomlarni ionlash uchun yetarli energiyaga ega fotonlarni yutish va shu orqali erkin, manfiy zaryadlangan elektronlar va musbat zaryadlangan ionlarni hosil qilish orqali amalga oshiriladi [1].

Organik quyosh elementlarini noorganik quyosh elementlaridan afzalligi uning tannarxining arzonligi, yengilligi, egiluvchanligi, olish texnologiyasining murakkab emasligi organik quyosh elementlariga bo’lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Organik yarimo’tkazgichli quyosh elementlarining noorganik yarimo’tkazgichli quyosh elementlariga qaraganda energiya samaradorkigini pastligi, ishlash vaqtining qisqaligi, degradatsiyaga tez uchrashi, siljish xarakatchanligining son qiymati noorganik yarimo’tkazgichli elementlatga qaraganda ancha pastligi [2] kabi kamchiliklari mavjud.

Biz organik quyosh elementlarini yasashdagi tadqiqotlarimizda donor poli 3-geksiltiofen (P3HT) va elektron akseptor 6,6-fenil-C71-butirik kislota metal efiri (PCBM)faol donor-akseptor aralashmasidan tayyorlangan faol qatlamli organik quyosh ekementlaridan foydalanyapmiz. Tajribada (Indiy Tin oxide) ITO/ poli (3,4-etilendioksitiofen); polisrtol sulfat (PEDOT;PSS)/P3HT;PCBM/Al strukturaviy fotoelement qurilmasi tayyorlanib, fotoelektrik parametrlari va optik yutilish spektrlari tadqiq qilinadi. Laboratoriya sharoitlarida OQElarning samaradorligini oshirish bo’yicha ilmiy izlanishlarda eng ko’p qo’llaniladigan va qulay texnologik yondashuvlardan biri sifatida faol qatlamni taglikka yotqizishdagi spin qoplama (spin koating) usuli hisoblanadi [3].

P3HT:PCBM quyosh elementlari tuzilishi qurilmani ishlab chiqarish jarayoni turli OQElar uchun farq qiladi. Odatda P3HT: PCBM quyosh batareyasini ishlab chiqarish jarayoni quyida tasvirlangan: P3HT va PCBM ishlab chiqarishdan 24 soat oldin xlorbenzolda eritilgan. Aralash eritmasi jami 1 Wt% bo'lib, P3HT va PCBM 1:1 nisbatidan iborat. ITO (Indiy Tin Oxide) kontakt yotqizilgan shisha tagliklar bir necha bosqichda (deionlashtirilgan suv va atsetonda ultratovushli vannada) tozalanadi va azot gazi yordamida tozalanadi. So’ngra bir necha daqiqa davomida kislorod pazmasida tozalanadi [4]. Dastlab ultratovushli vannani yoqib unga distillangan suv quyamiz va har bir bosqichimizda 13 minutda tozalab olamiz.

1) dionizatsiyalangan suvda 13 minut
2) atsetonda 13minut
3) dionizatsiyalangan suvda 13 minut
4) izopropil spirtida 13 minut

Ultratovushli vannaga solib tozalab olamiz, eng so’nggida (ITO) qoplangan shishamiz izopropil spirtida qolishi kerak. Keyin har bir (ITO) qoplangan shishani azot bilan quritamiz. Taglikni tozalash yakunlangandan so’ng kovaklarni yaxshi tashilishi va elektronlarga buffer vazifasini bajaruvchi, xlorobenzol yordamida eritib tayyorlangan PEDOT:PSS materiali atmosfera muhitida “Spin coating" usulida yotqiziladi [5]. Tayyor bo’lgan shisha (ITO) PEDOT:PSS tagliklar azot bilan to’ldirilgan qo’lqopli maxsus qutiga joylashtiriladi. Shisha

(ITO) PEDOT:PSS tagliklar ustiga sof P3HT:PSBM va ularning aralashmalaridan tayyorlangan P3HT:PSBM yupqa qatlamlari “Spin coating” usulida yotqiziladi.

Organik quyosh elementlarini laboratoriya sharoitida tayyorlab olgandan so’ng uning yutilish spektrlari o’lchandi. Bu natijalar shuni ko’rsatdiki P3HT:PCBM asosli organik quyosh elementlari 400-700 nm to’lqin uzunlikdagi nurlarni yutish hususiyatiga ega ekan.



1-rasm .P3HT:PCBM geterostrukturaning yutilish spektlari

Rasmdan ko’rinib turibdiki PCBMning yutilish spektri 300-600 nm oralig’ini o’z ichiga oldi. P3HTning yutilishi 400-600 nm oralig’ida. P3HT:PCBM geterostrukturasining yutilish spektri 400-700 nm oralig’ini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkunki P3HT:PCBM geterostrukturaga ega bo’lgan quyosh elementlari quyosh nurlarini ko’proq qismini yutishi bilan ajralib turadi. Bu esa OQElari kelajakda istiqbolli natijalarga erishishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Burke D. J., Lipomi D. J. Green chemistry for organic solar cells //Energy & Environmental Science. – 2013. – Т. 6. – №. 7. – С. 2053-2066.
2. H.Hoppe and N. S. Sariciftci, \Organic solar cells: An overview," Journal of Materials Research, vol. 19, pp. 1924{1945, 2004.
3. Lu L, Zheng T, Wu Q, et al.. Chemical reviews: 2015, 115 (23): 12666-12731.
4. The Fraunhofer Institute for Solar Energy Systems ISE, Soitec[J]. CEA-Leti and the Helmholtz Center Berlin: 2013.
5. Perzon, E.; et al.. Synthetic Metals 154, (2005) pp.53-56

KREMNIYGA ASOSLANGAN BOSHQARILADIGAN FOTO SEZUVCHAN SPEKTORLI FOTODETEKTORLAR.

A.A.Abdullayev, Q.A.Yo’ldashev
[1]*Namangan Muhandislik Qurulish Instituti,*
yoldashevqodirjon11@gmail.com

A^2B^6 birikmalaridan yarimo’tkazgichli asboblar (yadroviy nurlanish detektorlari, fotodetektorlar) uchun eng istiqbolli material kadmiy tellurid va kadmiy sulfiddir. Quyosh elementlarining yarimo’tkazgich fizikasi nuqtai nazaridan Si-CdS tizimi yangi ob’ekt - qatlamli geterostrukturalardir. Kremniy er qobig’ida eng ko’p tarqalgan elementdir. Hozirgi vaqtda kremniyni olish va tozalash texnologiyasi yaxshi rivojlangan, shuning uchun kremniy mikroelektronika va elektronika sanoati uchun asosiy materialdir. Kadmiy tellurid va kadmiy sulfidining yarim o’tkazgich xususiyatlarining afzalliklarini kremniy bilan birlashtirish dolzarb vazifadir, xususan, kadmiy tellurid, kadmiy sulfid va kremniy o’rtasida ideal diapazonli diagrammaga ega bo’lgan geterobirikmani yaratish yarimo’tkazgichli asbobsozlikda yangi imkoniyatlar ochadi. Bir qator muammolarni hal qilish uchun ultrabinafsha (UB) va infraqizil (IQ) hududlarda fotosensitivlik spektrining turli shakllariga ega selektiv fotodetektorlar (FD), shu jumladan to’lqin uzunligiga qarab fotovoltaj belgisini inversiyalash kerak.



1-rasm. a) va b) p/Si-p/CdTe -p/CdS tuzilmalarining fotoo'tkazuvchanligining 300 K da o'lchanadigan spektral va inversion xarakteristikalari.

Nurlanishning ma’lum to’lqin uzunligiga sezgir bo’lgan fotodetektorlarni olishning texnologik usullari mavjud. Bunday usullardan biri [1, 2] ishlarda ko’rib chiqilgan bo’lib, u erda samarali qatlamli ultrabinafsha fotodetektorlarni ishlab chiqarish haqida xabar berilgan, bunda maksimal spektral sezgirlik (S_{max}) ZnS-CdS tizimining qattiq eritmasining tarkibiga qarab spektrning keng diapazonida (280-480 nm) bo’lishi mumkin. Biroq, Si-CdTe-CdS asosidagi IQ sohasida fotointensivlik spektri shakliga ega bo’lgan fotodetektorlar o’rganilmagan. Shuning uchun, IQ sohada ishlaydigan fotodetektorlarni olish va UB mintaqasida ishlaydigan fotodetektor bilan birlashtirish yarimo’tkazgichli asboblar fizikasida alohida qiziqish uyg’otadi.

Ushbu maqolada IQ sohada ishlaydigan fotodetektorlarni olish natijalari va p/Si-p/CdTe-n/CdS heterostrukturasining elektr xossalari keltirilgan. Bunday geterostrukturalar KDB-10 tipidagi kremniy plastinka yuzasiga qalinligi 300-400 mkm va bosimi 10^{-5} torr vakuumda bo’lgan yarim yopiq tizimda CdS kukunlarini cho’ktirish orqali yaratilgan.

MII-4 mikroskopidan foydalangan holda yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, CdS qatlamlari ustunli kristalitlardan (donachalardan) iborat bo’lib, ularning o’lchamlari ≈ 3-5 mkm bo’lib, ular butun qatlam qalinligi ≈2 mkmni to’liq qoplaydi. Indiy (In) atomlarining CdS qatlamsi yuzasida vakuumda cho’kishi natijasida qalinligi 50 Å ga teng bo’lgan og’ir qo’shilgan n+CdS qatlami hosil bo’ldi. Tellurid va kadmiy sulfid asosidagi hosil bo’lgan strukturalarning spektral va inversiya xususiyatlari o’rganildi. O’lchov natijalari 1-rasmda ko’rsatilgan. a) va b) mos ravishda. Uzunroq to’lqin uzunligi inversiya nuqtasi U_f (l) pozitsiyasi qo’llaniladigan egilish kuchlanishiga chiziqli bog’liqligi ko’rsatilgan (1b-rasm). Ushbu struktura uchun inversiya sezgirligi 8,4 nm / mV ni tashkil qiladi.



Konstruksiyalarning joriy kuchlanish xarakteristikasi (VAX) ham tekshirildi. 2-rasmda. VAX berilgan (p/Si-p/CdTe -n/CdS).

Adabiyotlar

1. Chen Z., Lu C. – Sens. Lett, № 3, p. 274-281, Mach 2005.
2. Korvink J.G., Chandran L., Boltshauser T. – Sens. Mater., № 4, p.323-328, April. 1999.
3. Rittersma Z.M., Splinter A., Bodecker A., Benecke W. – Sens. Actuators, v. B 68, C. 210-217, January. 2000.
4. I.B. Sapaev, Sh.A. Mirsagatov and B. Sapaev. The fabrication and investigation of n/CdS-p/CdTe-n/Si// Applied Solar Energy (English translation of Geliotekhnika). 2011. № 4, pp.31-35.

PLANAR FOTOQARSHILIKLAR

Abdulaziz
Namangan davlat universiteti

So‘nggi paytlarda A^3B^5 materiallari asosida SHottki barerli , p-n-gomo yoki geterootishli planar fotoo‘tkazgichlar ko‘rinishidagi va zatvorli maydon fototranzistorlarni yaratish va tadqiq etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki bu turdagi fotodetektorlar, u tushayotgan nurlanish ta'sirida yupqa qatlam (kanal) qarshiligining o'zgarishiga asoslangan. Shuni ta'kidlash kerakki, fotoqarchiliklar ham, fotosezgir maydon tranzistorlar ham uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan.Ammo ular hozirda qayta izlanishlarni boshdan kechirmoqda.Bu ultraqisqa yoruglik impulslarni generatsiyalash metodlarini rivojlantirish bilan asoslanadi va bu yangi imkoniyatlar ochdi, pikosekundli uzunlikdagi kogerenht yoruglik impulslar generatsiyasi mos keladigan tezkor ishlaydigan fotodetektorlar ishlab chiqarishni talab qildi. Mavjud yarimotkazgigichli elektron qurilmalar pikosekundli uzunlikdagi impulslarni shaklantirish imkonini bera olmaydi.

Boshqa tomondan, yarimo'tkazgichli materiallar texnologiyasidagi yutuqlar GaAs <Cr>, InP <Fe> kabi materiallarning yarim izolyatsiyali tagliklarining mavjudligi, yupqa ligerlanmagan qatlamlarning epitaksial o'sishi, A^3 B^5 tipidagi materiallarda tashuvchining yuqori harakatchanligi,asosiy bolmagan zariyad tashuvshilarning yashash vaqtini boshqarish metodini ishlab chiqilishi , submikron o'lchamlarini fotolitografiyani ishlab chiqish, selektiv legirlanlgan geterostrukturalarda geterochegaraga parallel yo'nalishda tashuvchining harakatchanligini oshirish ta'sirini aniqlashlar, pikosekundli tezlikda ishlaydigan fotodetektorlarning jadal rivojlanishiga hissa qo`shdi. Va hozirda pikosekundli tezlikli fotodetektorlar kuchli yuqori tezlikdagi optoelektronik kalitlar, modulyatorlar va generatorlar hamda yadro va rentgen nurlanishining detektorlari sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu sinf tuzilmalarini qo'llashning ba'zi jihatlari (56,57) maqolalarda muhokama qilingan. Ushbu maqolada biz ularning optik nurlanishni qabul qiluvchi sifatidagi ishini ko'rib chiqish bilan cheklanamiz.

1. Planar fotoqarshiliklar. O`tatezkor ishlaydigan fotoo`tkazgichlar tayyorlashda Ge, Si, GdSe amorf plyonkalar bilan bir qatorda mos ravishda GaAs ,InP va InGaAs epitaksial qatlamlar yarim-izolatorli GaAs<Cr> va InP<Fe> tagliklarda optik nurlanishni qabul qiluvchi sifatidagi ishini ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. Bundan tashqari, fotodetektorlarni yaratish uchun yarim izolyatsion tagliklargga, mikropolosali ohmik kontaktlar to'g'ridan-to'g'ri qoplanadi.Kontaktlar orasidagi masofa odatda 2-100 mkm. Elektrodlar orasidagi kichik masofalarda, yorug'lik kiritish samaradorligini oshirish uchun, kontaktkfh bir-biriga kiritilgan ikkita "taroq" shaklida amalga oshiriladi ", bunda kontakt polosalari (har biri 2 mkm kengligida) bir-biridan bir xil masofada joylashgan.

Yorug`lik nuri tomonidan fotoo'tkazgichlarda, yaratilgan $\Delta$n=$\Delta$p konsentratsiyali asosiy bo`lmagan zaryad tashuvchilari o`tkazuvchanlikni $\Delta\delta_f = q\Delta n(\mu_n + \mu_p)$ga oshishga olib keladi, va ichki kuchaytirish yoki samaradorlik asosiy bo`lmagan zaryad tashuvchilarni yashash vaqtini uchish vaqtiga nisbatiga proportsionaldir $\tau/t_{uch.o`}$.Fsosiy bo`lmagan zaryad tashuvchilarni yashash vaqti odatda qurilmaning tezkorligini aniqlaydi.

Shuning uchun ko'p hollarda pikosekundli fotoo'tkazgichlarni yaratish uchun asosiy bo`lmagan zaryad tashuvchilarning yashas vaqti juda qisqa bo'lgan materiallardan foydalaniladi. Juda qisqa yashash vaqtiga erishish uchun turli usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida ishlatiladigan materialda samarali rekombinatsiya markazlari vazifasini bajaradigan yuqori zichlikdagi strukturaviy nuqsonlar yaratiladi. Bular materialning amorfizatsiyasi (58), uni proton yoki ion bombardimoni ta`sirida (59,60) radiatsion nuqsonlar,

aralashmali chuqur markazlar kiritish orqali yaratiladi. (61,62). Bu usullar foydalaniladigan materiallarda asosiy bo`lmagan zariyad tashuvchilarning yashash vaqti $10^{-11} \div 10^{-12}$ sek. Shu bilan birga harakatchanlik sezilarli kamayadi, materialni o`zi o`ta nisbatan yuqori solishtirma qarshilikka ega bo`ladi. Bunday fotodetektorlarning samaradorligi 1 dan ancha kichik va 10^{-3}-10^{-5} ga teng. Fototokning ko`tarilish va pasayish vaqtlari pikosekund birliklarida bo`ladi. Yuqori tezkorlik materialning o'ziga xosdir yani asosiy bo`lmagan zaryad tashuvchilarning qisqa yashash vaqti ,va u odatda qo`yilgan kuchlanishga va elektrodlar orasidagi masolarga bog`liq bo`lmaydi. Bu fotoqarshiliklar yuqori darajadagi uyg`otishlarda ishlaydi. Shunday qilib, bunday strukturaga pikosekundlik davomiylikdagi kuchli yoruglik impuls ta’sir qilganida faol sohada muvozanat holatidagidan bir necha marta ortiq bo`lgan tashuvchilarning yuqori zichligi hosil bo‘ladi.Shuning uchun ham bunday signalni kuchaytirishni zarurati ham yo‘q.

Keling, tashuvchilarning harakatchanligi yuqori bo'lgan materiallarga asoslangan planar fotodetektorlarning yana bir turini ko'rib chiqaylik, ularda ishlash tezkorlik va kuchaytirish zaryad tashuvchilarning uchib o'tish vaqtlari bilan belgilanadi. Yuqori samaradorlik va tezlikning muvaffaqiyatli kombinatsiyasi InP va InGaAs ning yupqa epitaksial qatlamlari asosidagi yarim izolyatsiyalovchi InP taglikdagi fotoo'tkazgichlarda olindi.Birinchi marta GaAs ga asoslangan ushbu turdagi yuqori tezlikdagi fotoo'tkazgichlar [63] da tasvirlangan. A^3B^5 tipidagi materiallarga asoslangan planar fotoo'tkazgichning sxematik ko'rinishi quyida keltirilgan (7-rasmga qarang). Kontaktlar orasidagi masofalar d bilan bir necha mikrometrli va NCC ning yashash vaqti faol sohada sekin tashuvchilar tomonidan uchish vaqtidan katta (A^3B^5 holatida bu kovaklar), maksimal mumkin bo'lgan kuchaytirish $G \sim 1 + (\frac{\mu_n}{\mu_p})$ ni tashkil qiladi va tezkorlik teshiklarning uchub o`tish vaqti bilan $t_{uch}^h = \frac{d}{\mu_p E}$, belgilanadi chunki $\tau_n = \tau_p = t_{uch}^h$.

Ushbu turdagi fotoo'tkazgichlarning asosiy xarakteristikalari o'tish vaqtlari bilan aniqlanganligi sababli, kuchaytirish va tezkorlik qo'yilgan rkuchlanishga bog'liq. InGaAs asosidagi fotoo`tkazgichning kuchaytirish koeffitsientining qo`yilgan kuchlanishga tipik bog`lanishi (1 rasm)da ko`rcatilgan. Kuchaytirish elektronlar to'yinganlik darajasiga yetadigan maydon kuchiga qadar chiziqli ravishda ortadi.Xuddi shu rasmda elektron tezligining elektr maydoniga (65) bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Fotoo`tkazgichlarda qorong'u toklarni kamaytirish uchun imkoni boricha u yuqori qarshilikka ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.Buning uchun epitaksial qatlamlarni o`tkazgich kanalini kesimi kivyoviy usulda ydiriladi yoki epitaksial qatlamlardagi asosiy tashuvchilarning konsentratsiyasini kamaytirish uchun noyob tuproq elementlari bilan ligerlanadi (66).

InP va InGaAs asosidagi planar fotoo`tkazgichning xarakterli xususiyati spektral sezgirlikning keng hududi bo'lib, qisqa to'lqinli hududga o'zining yutilish chegarasidan ancha uzoqqa cho'zilgan.Spektral harakteristikani tipik shakli 1-rasmda (66)ko'rsatilgan. Qisqa to'lqin uzunligi sohasida sezuvchanlikning keskin pasayishining yo'qligi, ehtimol, sirt rekombinatsiyasining nisbatan past tezligi bilan bog'liq, shuning uchun deyarli qo'llaniladigan past kuchlanishlarda ham, tashuvchilar sirtda rekombinatsiyalanisnidan oldin kontaktlarga borishga ulgiradi.

Oxirgi holat bunday fotoo'tkazgichlardan ultrabinafsha nurlanishning samarali fotodetektorlari sifatida foydalanishga imkon beradi (66,67)

bu turdagi fotoo'tkazgichlar asosiy bo`lmagan zaryad tashuchilarning yashash vaqti juda qisqa bo'lgan materiallarga asoslangan fotoqarshiliklar bilan solishtirganda biroz sekinroq javob beradi.

Odatda, kuchaytirish коэффициенти G=$4 \div 5$ bo`lganda fototokning ko'tarilish vaqtlari taxminan $10^{-10}$ sekga yaqinni tashkil qiladi.(67) ishda InP $< Fe >$yarim izolyator taglikda ligerlanmagan $In_{0,53}Ga_{0,47}As$ epitaksial qatlamga asoslangan planar fotoo'tkazgichda fototokning ko'tarilish vaqti bilan. 32 ps va impulsning to`la kengligi yarim balandligida 46 ps , λ=1,7 mkm uchun sezgirlig S_λ= 3A/Vt



1-rasm. Kuchaytirish koeffitsienti G va v elektronlar drift tezligining yuklatilgan maydon kuchlanganligi E ga bog'liqligi

So'nggi paytlarda ichki kuchaytiruvchi planar fotoo'tkazgichlarning tezкorligi va fotosezgirligini yanada oshirishning istiqbolli yo'li belgilandi. Zaryad tashuvchilarni uzatish jarayoni xususiyatlarini o`rganish zaryad tashuvchilarni uchub o`tish vaqtlari bilan belgilanadigan fotodetektorlarda zaryad tashuvchilarni harakatchanligi asosiy parametr ekanligi allaqachon qayd etilgan. (68).

Bunday strukturalarda tor sohali materialdagi elektron yaqinlikning katta miqdori tufayli keng sohali materialdan harakatlanuvchi tashuvchilar tor sohali materialga o'tadi ,bu erda ma'lum sharoitlarda ular ikki o'lchovli elektron gazni hosil qiladi. Modulyatsiyalangan va selektiv ravishda legirlangan geterostrukturalarda ham geterochegara bo'ylab tashuvchilarning harakati kvantlanvaydi. Shu bilan birga,elektronlar ionlangan donor markazlari bilan fazoviy ravishda ajralib turadi,bu,ayniqsa past haroratlarda,aralashma tarqalishining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi, bu esa hajmiy kristallardagi past harorat sohasida ustunlik qiladi. Yuqori sifat tufayli heterostrukturalar chegarasi GaAs-AlGaAs, InGaAs AS-InP, InGaAs-AlGaAs geterochegarada tashuvchilarning sochilishi yuqori emas. Ko'rib chiqilayotgan strukturalarda harakatchang tashuvchilarning kontsentratsiyasi yorug'lik yordamida yoki kuchlanish yani boshqaruv elektrodini ishlab chiqarishda nazorat qilinishi mumkin.

Adabiyotda 0,8-0,9 mkm (69 1.) va GaAs-AlGaAs, 1,0-1,55 mkm (70.2) spektral diapazon uchun modulyatsiyalangan ligerlangan GaInAs-AlInAs geterostrukturaga asoslangan yuqori tezlikdagi planar fotoo'tkazgichlar bayon etilgan.



2-rasm. S(a) sezgirlikning spektral xarakteristikasi va planar foto o'tkazgichning sxematik tasviri

Ligerlash modulyatsiyalangan fotoo'tkazgich strukturasining sxematik ko'rinishi va uning zonna energetk diagrammasi 3- rasmda ko'rsatilgan(70)-. Yorug`lik keng sohali material tomondan kiritiladi.Kontaktlarning qarshiligini kamaytirish uchun keng sohali qatlamga qalinligi 100-200 $\dot{A}$ bo'lgan kuchli ligerlangan tor sohali material qatlami yotqiziladi.Bunday strukturalarda, ichki kuchaytirish G = 18, ko'tarilish vaqti 80 ps va yarim balandlikdagi impulsning to'liq kengligi 250 ps.



3-rasm. Selektiv ligerlangan heterostrukturaga asoslangan planar foto o'tkazgichning sxematik ko`rinishi (a) va uning energetik zona diagrammasi (b) U-Istok, C-Stok

Tanlangan selektiv ligerlangan GaAs-AlGaAs-heterostrukturaga asosidagi planar foto o'tkazgichlar ham xuddi shunday tuzilishga ega . Fotoo`tkazgich 1,5 gigagertsli chastotada 100 ps davom etadigan yorug'lik impulslari bilan qo'zg'alganda, 4mkm kontaktlar orasidagi masofa va 94 mkm kenglikda birlashtirilgan fotodetektorning λ=0,82 mkm uchun eng yuqori sezgirligi 2 A/Vt ni. tashkil qildi.

Shunday qilib, izlanislarning birinchi natijalari yuqori samarali o`tatezkor fotodetektorlarni yaratish uchun modulyatsiyalangan (selektiv) ligerlangan planar strukturalardan foydalanish istiqbollarini ko'rsatdi.

Adabiyotlar

1. Pans Y.M., Chen C.Y., Garbinski P.A.,-Elektron.Lett.,1983,vol.19,N18, p.716-717.
2. Chen C.Y., Pang Y.M., Garbinski P.A et al.-Appl.Phys,Lett.,1983, VOL.43,n 3 p. 308-310

TARKIBIDA SCN BO’LGAN Li POLIMER BATAREYALARINING ISHLASH KUCHLANISH

O.O.Mamatkarimov, A.A.Abdukarimov, B.I.O’ktamaliyev
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
E-mail: uktamaliyevb@mail.ru

Xozirgi davrda Li-ion batareyalarining bir nechta turlari mavjud. Bu turdagi batareyalar ichida Li-polimer batareyalari keng qo’llanilib kelmoqda. Li-polimer batareyalari elektrolitning tarkibiga qarab 3 turga bo’linadi: Gel polimer, kompozit polimer, qattiq polimerlar[1]. Qattiq polimer elektrolit asosli batareyalar ayrim fizik hamda kimyoviy parametrlari jihatdan ustunlikka ega[2]. Shuningdek quyida PMMA asosli qattiq polimer elektrolitli Li-polimer batareya tayyorlandi. Birinchi martda PMMA ni tarkibiga SCN tuzni kiritilib elektrolit tayyorlab olindi. Li-polimer batareyamiz asos uch(katod, qattiq polimer elektrolit, anod) qisimdan tashkil topgan[3]. Batareyani zaryadlanish hamda zaryadsizlanishini o’rganganimizda namunamiz tarkibida 30% SCN30 batareyaning 10-siklda zaryadlanishida o’zgarmas 0.0063 mA tok oqimi hosil bo’ldi hamda birinchi siklda zaryadlash uchun 1 soat 29 munit vaqt ketdi. Zaryadlanish boshlangan vaqtidagi boshlang’ich kuchlanishi 3.4 V dan boshlandi hamda zaryad olib bo’ldi 4.9 V da. Zaryadlanishda umumiy sig’imi $9.3\ mAh/g$

LiSCN30 batareyaning zaryadsizlanishi o’rganildi 10-siklda zaryadsizlanishida o’zgarmas 0.0062 mA tok oqimi hosil bo’ldi hamda zaryadsizlanish uchun 1 soat 32 munit vaqt ketdi. Zaryadsizlanish boshlangan vaqtidagi boshlang’ich kuchlanishi 3.8 V dan boshlandi hamda zaryadsizlanish 3.0 V da tugadi. Zaryadsizlanishda umumiy sig’imi $9.3\ mAh/g$(1-rasm).

Bunday turdagi batareyalarning sig’imi, kuchlanishi asosiy parametrlari hisoblanadi. Zaryadlanish hamda zaryadsizlanishdagi ishlash kuchlanishi o’zgarishi o’zaro o’xshash funksiya sifatida o’zgarib bordi.



1-rasm. SCN30 batareyaning zaryadlanish/zaryadsizlanishda ishchi kuchlanishi

Olingan natijalar asosida quydagi xulosaga kelsak bo’ladi. Zaryadlanish hamda zaryadsizlanish vaqtidagi kuchlanishi miqdor jihatidan farq qildi lekin sifat jihatidan bir hil bo’ldi. Zaryadlanishdagi hamda zaryadsizlanishdagi sig’imlari bir hil qiymatga ega bo’ldi.

Adabiyotlar

1. Z. Osman and A. K. Arof, “FTIR studies of chitosan acetate based polymer electrolytes,” *Electrochim. Acta*, vol. 48, no. 8, pp. 993–999, 2003, doi: 10.1016/S0013-4686(02)00812-5.

2. A. Chandra, A. Chandra, R. S. Dhundhel, and A. Bhatt, “Sodium-ion-conducting solid polymer electrolyte: temperature-dependent ionic parameters and solid-state polymer battery fabrication,” *Indian J. Phys.*, vol. 96, no. 4, pp. 1069–1074, 2022, doi: 10.1007/s12648-021-02032-1.

3. Абдукаримов Абдуллазиз Абдубанноевич, Ўктамалиев Бекзод Икромжон Ўғли, Имомалиев Ғайбулло Хайрулло Ўғли. //Полимер асосли li-ion батареяларининг таркибий қисмлари ва уларни тайрлаш технологияси.// Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi. 2021. № 10. S.10-14. (01.00.00; №3)

QUYOSH ELEMENTLARI ASOSIDAGI SHAFFOF MATERIALLAR

M.R. Xamroboyev
Toshkent davlat texnika universiteti

Yangi O’zbekistonning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yurtimizda “yashil” energetikani rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda yurtimizda 2-3 milliard kilovatt soat elektr energiyasiga qo’shimcha talab borligi, kelgusi besh yilda esa bu ehtiyoj 10 milliard kilovatt soatga oshishi kutilayotganligini aytib, bunday vaziyatda eng samarali yo’li uy, korxona, bog’cha, maktab va shifoxonalarda muqobil energiyadan foydalanishni ko’paytirish ekanligini ta’kidladilar. Buni inobatga olgan mamlakatimiz hukumati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga quyosh panellarini o’rnatish taklifini hamda uni jadallashtirish uchun ko’mak berilmoqda.

Ma’lumki muqobil energiyaning keng tarqalgan turlaridan biri bu quyosh energiyasi. Quyosh energiyasi yorug’lik energiyasini elektr energiyasiga aylanishi hisobidan hosil qilinadi. Asosiy texnologik va elektrofizik jarayonlar yesa quyosh nuri tushayotgan quyosh panellari elementlarida sodir bo’ladi. Quyosh panellari sirtiga tushayotgan quyosh nurlarini ma’lum qismini yutadi. Energiyaning saqlanish va bir turdan boshqa turga aylanish qonuniyatiga ko’ra yutilgan yorug’lik energiyasi elektr energiyasi aylanadi. Jarayon yarim o’tkazgichlarda kechadigan fotoeffekt hodisalar asosida yuz beradi. Yorug’lik tushayotgan yuzaning o’lchamlari, yoritilganlik darajasi va nurning tushish burchagi ham energiya samaradorligiga katta ta’sir qiladi. Shu 1 kilovaattlik Quyosh panellari 5÷6 m^2 maydonni yegallashini inobatga olib quyidagi tahliliy jadvalni keltirish mumkin.

№	Panel quvvati	Egallagan maydoni, (m^2)	Ishlab chiqaradigan elektr energiyasi (yillik)
1	5 kW· soat	30÷60	7500÷12500
2	10 kW· soat	60÷120	15000÷25000
3	20 kW· soat	120÷240	30000÷50000

Quyosh elementlarini juda ko’p joylarda juda ko’p qurilish jihozlarining o’rniga joydan yutish maqsadida foydalanilmoqda. Masalan Solar City kompaniyasi tomonidan qurilish hom ashyolaridan ko’ra uylarni tomini quyosh panellari bilan qoplash taklif etilmoqda. Bu birinchidan tomni qurish uchun sarflanadigan pulning bir qismini tejashga va quyosh paneli band qilishi mumkin bo’lgan joylarni iqtisod qilishga yordam beradi. Shuningdek, inshootlarni derazalariga ishlatiladigan oynalar o’rniga shaffof quyosh yelementlaridan foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda ushbu soha mamlakat miqyosida ye’tibor qaratilsada, lekin ushbu soxada qilingan ilmiy izlanishlar soni juda oz. Quyida shu kabi izlanishlardan birini va unda kutilgan natijalarni tahlil qilishimiz mumkin.

Shaffof quyosh elementlari asosan metall oksidlardan yasaladi. Chunki, metal oksidlarning aksariyatini elektr o’tkazuvchanligining ta’qiqlangan zona kengligi katta va bu uni asosan ultrabinafsha nurlarini yutushini ta’minlaydi. Shuning uchun ushbu materiallar shaffofdir. Eng yaxshi o’rganilgan shaffof quyosh elementlari bu n-ZnO / p-NiO quyosh elementidir. [2]. Ushbu materiallar sintez jarayonida vakansiyalar tufayli n tip o’tkazuvchanlikka yega yarimo’tkazgich hosil bo’ladi. Ya’ni ushbu materiallar sintez qilinganda n-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. NiOni sintez qilinganda yesa p-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. n-ZnO / p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liq. ZnO qatlam qalinligi 40 nm va NiO qatlam

qalinligi 5 mkm bo’lgan n-ZnO / p-NiO quyosh elementining yutilish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yourg’lik to’lqin uzunligiga bog’liq bo’lishi aniqlangan.[2,3].

Olingan natijalarga ko’ra, ZnO qatlam qalinligi 40 nm bo’lganda n-ZnO / p-NiO quyosh elementi maksimal 7.785% fotogeneratsiya koeffitsientiga erishgan. [2]. Ushbu struktura shaffof bo’lgani uchun uning fotogeneratsiya koeffitsienti juda past. Chunki, u asosan ultrabinafsha nurlarni yutadi va ko’rinarli soxadagi va infraqizil nurlar soxasidagi nurlarni yutmaydi va o’tkazib yuboradi. ZnO qatlam qalinligi 10 nm dan 40 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 0.55% ga ortgan va qalinlik 40 nm dan 100 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 1.036% ga kamaygan. [2]. Demak n-ZnO / p-NiO struktura uchun emitter qatlamning optimal qalinligi 40 nm ga tengligi aniqlangan. n-ZnO / p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liq. Bu uni inshootlarga oyna sifatida foydalanish mumkinligini isbotlaydi. Albatta uning foydali ish koeffitsienti pastroq lekin uyni past energiyali ehtiyojlarini qondirish uchun samarali foydalanish mumkinligi aniqlangan. [1,2,3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, quyosh elementlaridan foydalanish salmog’ini oshirish uchun ularni uy qurilishida foydalaniladigan bino qismlari o’rniga foydalanish kerak. Inshootlar uchun oyna sifatida foydalnish mumkin bo’lgan shaffof quyosh elementlari modellashtirish natijalariga ko’ra, ZnO qatlam qalinligi 40 nm bo’lganda n-ZnO / p-NiO quyosh elementi maksimal 7.785% fotogeneratsiya koeffitsientiga erishishi aniqlangan. [2,3]. Bu o’z navbatida yorug’likni quyosh panellaridagi faolligini oshirib qurilmalarning foydali ish koeffitsentini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar

1. Quyosh elementlaridan foydalanish istiqbollari. Matyoqubov H.Sh “Янги материаллар ва гелиотехнологиялар” Халқаро илмий конференция тезис ва маърузалари тўплами 20-21 май 2021 йил.

2. R. Aliyev, Sh. Qahramonova, J. G’ulomov. Keng zonali quyosh elementlari asosidagi shaffof quyosh elementlarini modellashtirish orqali optimallashtirish. Вестник магистратуры. 2022. № 5-4 (128)

3. Baxadirxonov M.K., Sodiqov U., Zikrillaev N.F., Norqulov N., Materiallarga elektron ishlov berish, 2007 yil, 5-son, 106−108-betlar.

4. N.F. Zikrillayev, O.B.Tursunov, SH.I. Hamroqulov, G‘.A. Kushiyev. Rux va selen asosidagi binar nanoklasterli kremniyning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari Fotoenergetikada nanostrukturali yarimo‘tkazgich materiallar Xalqaro ilmiy anjumani 9-10 oktyabr Toshkent 2020 yil.

5. Б.А. Абдурахманов, А.Ш. Мавлянов, У.Х. Содиков, Н. Норкулов. Новые материалы для солнечных элементов на основе кремния с квантовыми ямами CdS И ZnS Ташкентский государственный технический университет им. А.Р. Беруни, Университетская, 2, г. Ташкент, 700095, Республика Узбекистан Национальный университет Узбекистана

6. П.А.Трошин, Р.Н.Любовская, В.Ф.Разумов, Органические солнечные батареи: структура, материалы, критические параметры и перспективы развития, Российские нанотехнологии, 2008

QUYOSH ENERGIYASI “YASHIL ENERGIYA” MANBASI – DAVR TALABI

R.A.Ametov
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
ruslan.physic@mail.ru

“Qayta tiklanuvchi energiya” yoki “Yashil energiya” tushunchalariga 2019-yil 16-aprelda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda maqullangan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida (2019-yil 21-may, O‘RQ-539-son) quyidagicha ta’rif beriladi:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi.

Quyosh yer yuzidagi hayot manbai bo‘lgan “yashil energiya”ning asosi hisoblanadi. Shamol va suvning tabiatda erkin aylanishi va boshqa iqlim sharoiti bilan bog‘liq jarayonlarning barchasi planetamizga beminnat nur sochib turgan — quyoshning faolligi hisobiga amalga oshadi. Qisqacha aytganda, yerga tushayotgan quyosh nuri qayta ishlangani uchun “qayta tiklanuvchi” deb, ekologiyaga deyarli zarari bo‘lmagani uchun “yashil energiya” deb ta’riflanadi.



1-rasm. Respublikamiz issiqlik elektr stansiyalariga yoqilgan energiya resurslari

Yaqin kelajakda an’anaviy energiya manbalaridan foydalanishda global ekologik muammolar kelib chiqishi va foydalanish imkoniyatlarining cheklanib borilishi kuzatilmoqda.

Ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi asosiy energiya manbasi elektr energiyaning asosiy qismi foydali qazilmalarning yoqilishidan olinadi (ko‘mir, tabiiy gaz, neft, slanets, torf). Xalqaro energetika agentligi (XEA)ning xabariga ko‘ra, 2021 yilda jami elektr energiyaning 37 foizi ko’mirdan, 23,5 foizi esa tabiiy gaz yoqilishidan ishlab chiqarilgan. Worldometer saytining xabariga ko‘ra, dunyoda 200 milliard tonnadan kam neft zaxirasi qolgan. Bu 47 yilga yetadi, xolos.

Ko‘mir zaxirasi 1 trillion tonna, tabiiy gaz 170 milliard kub metr atrofida qolgan. Ularning zaxirasi, ya’ni ko‘mir taxminan 133 yilga, gaz 52 yilga yetadi.

Bu an’anaviy energiya manbalaridan foydalanishlar davom etishi yer yuzining global iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan har qanday hosil bo‘lgan chiqindi planetamizning atmosferasiga, biosferasiga, gidrosferasiga va litosferasiga salbiy ta’sirini tekkizib kelmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilda energetika sohasida (transport, issiqlik ishlab chiqarish, sanoat, qurilish, uy va korxonalarni yoritish va isitish uchun) dunyo bo‘yicha atmosferaga 76 foiz tashlanmalar aniqlangan. Uning 68 foizi 10 ta mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi - Xitoy (26,1

foiz), AQSh (12,67 foiz), Yevroittifoq (7,52 foiz), Hindiston (7,08 foiz) va Rossiya (5,36 foiz).

Respublikamizdagi atmosferaning ifloslanishini quyidagi O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari aksiyadorlik jamiyati bergan ma’lumotlar bo‘yicha tasavvur qilib olsak, bo‘ladi (1-rasm).

O‘z-o‘zidan ma’lumki, yuqorida keltirilgan raqamlar atmosferaga chiqarilgan behisob uglerod oksidi, minglab tonna kul va boshqa zararli moddalar haqida so‘zlab turibdi. Ammo dunyo miqyosida Ekotizimga yetkazilayotgan ekologik talafotlar natijasini, bugungi kundagi iqlim o‘zgarishlaridan bilib olish qiyin emas. Demak, ushbu muammolarni inkor qadar qisqartirish uchun optimal, tezkor va favqulodda echimlarni qabul qilishimiz shart bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-57-son qarorining chiqishi, yuqoridagi muammolarning echimi sifatida va ayni o‘z vaqtida qabul qilingan qaror sifatida qarasak bo‘ladi.

Yerga uzatiladigan Quyosh energiyasining miqdori, hozirda dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiya miqdoridan taxminan, 20 marta ko’pdir. Ammo, Quyosh nurlari oqimining zichligi kam bo’ladi, shu sababli bu energiya juda qimmat turadi. Hozirgi vaqtda Quyosh energiyasi quyi potensialli (harorati 100 gradusga qadar bo‘lgan) issiqlikga aylantiriladi va undan kommunal xo‘jalik issiq suv ta‘minotida, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (mevalar) quritishda foydalaniladi.

Yoz oylarida suv ta’minoti uchun mo‘ljallangan quyoshli qurilmalar ayniqsa, asqotadi. Ulardan qishloq joylarida foydalanish katta samara beradi. Chunki maishiy qulaylikni shahar sharoitiga yaqinlashtiradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 2 milliondan ortiq quyosh issiqlik tizimi ishlab turibdi. AQShda quyosh kollektorlarining umumiy maydoni 15 million kvadrat metrni, Yaponiyada 12 million kvadrat metrni, Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa umumiy maydoni 20 million kvadrat metrga yaqin quyosh kollektorlari hamda Isroilda mamlakat issiq suv ta'minotining 75 foizini ta’minlaydigan 1millionga yaqin quyosh moslamasi ishlayapti.

Respublikamiz Quyosh energiyasini o’zlashtirish uchun dunyoda qulay bo‘lgan hududlar sirasiga kiradi. Bizda, O’zbekistonda quyoshli kunlar yilning 365 kunidan 92-125 kunigacha davom etadi. Bu vaqt ichida Quyosh energiyasi tushishi yiliga har kvadrat metrga 1200 dan 1700 kilovatt soatni tashkil qiladi. Bu quyosh nurlanishi Portugaliya ko‘rsatkichlariga tengligini yoxud mamlakat yoqilqi-energetika hajmida munosib o‘ringa ega bo’lgan Yaponiya ko’rsatkichlaridan ikki barobar yuqori ekanligini ko’rsatadi. O‘zbekistonning qayta tiklanadigan energiya manbalarining salohiyati 51 million tonna neft ekvivalentiga teng. Agar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining texnikaviy salohiyatidan to‘liq foydalanilsa, atmosfera havosiga chiqariladigan 450 million tonnaga yaqin is gazining (uglerod ikki oksidi) bartaraf qilinishiga sharoit yaratiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda energiya resurslarining asosini uglevodorodlar: tabiiy gaz va neft tashkil qiladi. Umumiy energiya quvvatlari 11000 MVt dan ortiqroq bo‘lib, Markaziy Osiyo birlashgan energiya tizimi quvvatlarining 50% i mamlakatimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Respublikamizning yalpi quyosh energiyasi salohiyati 50973 mln.t.n.e., texnikaviy salohiyati esa 176,8 mln.t.n.e. Lekin, hozirgi kunda quyosh energiyasining faqatgina 3% i o’zlashtirilgan xolos.

Quyosh energiyasini mukammal foydalanishda quyosh panellaridan foydalanish hozirgi kun energiyaga bo‘lgan talabga javob beruvchi echimlardan biri. Kremniy quyosh batareyasining FIKi uchun maksimal nazariy chegara 29 foizni tashkil qiladi. Biroq bu ko‘rsatkichga hali hech kim erisha olmagan. Amaliyotda FIK 20 foizga yaqinni tashkil qiladi, rekord ko‘rsatkich esa 25,6 foizni tashkil qilgan. Yaponiyalik olimlar bu ko‘rsatkichni 26,3 foizga yetkazishga muvaffaq bo‘ldilar.

Energetika sohasi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatiga ta’sir etuvchi asosiy faktorlardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelajakda yashil energetikaning rivojlantirish strategiyasini va maqsadlarini, shuningdek, rag‘batlantirishning tegishli mexanizmlarini ishlab

chiqish O‘zbekistonda iqtisodiyotning yangi tarmog‘i, avvalambor, qayta tiklanadigan energiya manbalarini umumiy salohiyatining qariyb 99 foizini tashkil etadigan quyosh energetikasini keng ko‘lamda rivojlantirish uchun, qolaversa, mamlakatimiz tabiatining mussafoligini ta’minlashga qulay asos yaratadi.

Adabiyotlar

1. R. Safarova “Quyosh energiyasi mo‘jizalari” “Ekologik xabarnoma” 2010 y. 4 son.
2. SH.O. Muradov, U.R. Panjiyev “EKOLOGIYA” (ma’ruzalar matni) Qarshi – 2007
3. А.П. Баскаков “Теплотехника”. М. Энерго. 2005.
4. Ў.Худойбердиев «Ўзбекистон МЭТ» АЖ Ахборот хизмати https://zarnews.uz/post/muqobil-energiya-kelajak-energiyasi-kafolati-boladimi
5. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/521
6. https://kun.uz/uz/news/2017/03/23/fojdali-is-koefficienti-rekord-kursatkicli-kues-batareasi-aratildi

TURLI USULDA “SPIN COATING” QILINGAN POLIMER FAOL QATLAMLARNING OPTIK XOSSALARI

F.M.Ro’ziyev[1], A.Y.Turg’unboyev[1], B.G‘.Xidirov [1], I.R.Boynazarov[1], A.A.Saparbaev[1,2]
[1]O‘zRFA A.U. Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti
[2]Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti

Hozirgi paytda polimer quyosh elementlari (PQE) yengil vaznlilik, moslashuvchanlik, tan narxi arzonligi, egiluvchanligi kabi afzalliklari bilan ko'pchilikning e'tiborini tortmoqda. Polimer quyosh elementlari muhandisligi polimer quyosh elementlarining fotovoltaik ish faoliyatini yaxshilashning samarali usullaridan biridir. Biz o’rganayotgan polimer asosli PQElari tashqi ta‘sirlar (atmosfera, issiqlik ta‘siri va hokazo)ga chidamli va EO’S yuqori hisoblanadi. Yangi avlod quyosh elementlarini yaratishda polimerlarning optik xossalari muhim ahamiyatga ega, chunki PQElar uchun ishlatiladigan polimer materiallari keng spektr sohasida yorug’lik yutishi, imkon qadar qizil nur sohasida ko’proq yutishi kabi optik paramaetrlar PQElarning fotovoltaik parametrlarini optimallashitirishga xizmat qiladi[1]. Shu sababli, ushbu ishda PBB-TSD polimer donor va Y6 polimer akseptorga asoslangan qatlamma-qatlam va an'anaviy hajmiy geterostruktura (HGS) usulida polimer quyosh elementlarining faol qatlamlari tayyorlanib yutilish spektrlari tadqiq qilindi.



1-rasm. (a) PBB-TSD va (b) Y6 ning yutilish spektrlari

HGS va qatlamma-qatlam polimer faol qatlamlarini quyidagi usulda tayyorlanadi. Dastlab PBB-TSD va Y6 polimerlarga asoslangan ikki xil tartibda eritmalar tayyorlab olinadi. Birinchi eritma tayyorlanish jarayoni quyidagicha amalga oshirildi. PBB-TSD va Y6 10 mg/ml polimer donor konsentratsiyasi bilan bog’liq proporsiyada xlorobenzolga solinib, eritma bir necha soat davomida xona haroratida magnitli aralashtirgich yordamida donor-akseptor aralashmasidan iborat faol qatlam eritmasi hosil qilinadi. Ikkinchi usulda ya’ni qatlamma-qatlam spin coating qilish uchun PBB-TSD polimer donorni va Y6 polimer akseptorni xlorobenzolda alohida xona haroratida doimgidek bir necha soat davomida magnitli aralashtirgich yordamida tayyorlab olinadi. Keyin indiy qalay oksidi (ITO) shisha tagliklari ultratovushli vannada asetonda, deionizatsiya qilingan suvda va izopropil spirtida har biri 10 daqiqa davomida tozalanib, so’ngra esa toza azot gazi yordamida quritildi. Shundan so’ng, shisha/ITO sirt tayyor bo’lgach, spin qoplama usuli yordamida PEDOT:PSS ni 3000 ayl./min. (ayl./min.-bir daqiqadagi aylanishlar soni) tezlik bilan 30 sekund davomida aylantirilib 100 nm qalinlik atrofida yotqiziladi va tayyor PEDOT:PSS qatlamlaridagi suv molekulalarini yo’qotish uchun pechkada atmosfera sharoitida 10 daqiqa davomida 150 °C haroratda qizdiriladi. PEDOT:PSS qatlami tayyor bo’lgach spin qoplama usuli yordamida 15

soniya davomida 3000 ayl./min. tezlikda birinchi PBB-TSD:Y6 hajmiy geterostruktura olindi hamda, ikkinchi PBB-TSD/Y6 qatlamma-qatlam strukturali faol qatlami hosil qilindi.

Ikki xil usulda tayyorlab olingan faol qatlamlarning optik parametrlari spektroskopik usulda tadqiq qilishdan oldin, PBB-TSD va Y6 polimerlarni alohida “spin coating” usuli bilan qoplagan qatlamlarning yutilish spektrlari o’lchandi.

1a-rasmga e’tibor qaratadigan bo’lsak, PBB-TSD polimerni “spin coting” usuli bilan tayyorlab olingan yupqa qatlamni laboratoriyamizda mavjud bo’lgan UV-1280 spektrofotometr qurilmamiz yordamida yutilish spektirini o’lchaganimizda PBB-TSD qatlamning yutilish spektri 360 nm, 510 nm hamda 585 nm to’lqin uzunliklarida maksimum piklar hosil bo’ldi. Demak PBB-TSD qatlami mana shu maksimum piklarni hosil qiluvchi to’lqin uzunliklarda yorug’likni yaxshi yutishini ko’rishimiz mumkin. Yutilish spektri kengligi esa 350 nm dan 650 nm gacha ekanligi aniqlandi. 1b-rasmda esa Y6 polimerni yutilish spektri 550 nm hamda 850 nm to’lqin uzunlikda maksimum piklarni kuzatishimiz mumkin. Ularning yutilish spektrlarini tahlil qiladigan bo’lsak PBB-TSD 360-690 nm to’lqin diapazonida yaxshi yutadi hamda Y6 polimer esa 550-900 nm gacha bo’lgan to’lqin uzunligi diapazonida yaxshi yutganini kuzatishimiz mumkin. Bu ikkita polimerlarning yutilish spektridan shuni xulosa qilish mumkinki, bu ikkita donor va akseptor aralashmasidan hosil qilingan faol qatlamning yutilish spektri 350 nm dan 900 nm gacha bo’lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Shundan so’ng 2-rasmda berilganidek PBB-TSD va Y6 asosli faol qatlamlarning hajmiy va qatlamma-qatlam strukturalarining yutilish spektrlari o’rganildi.



2-rasm. Qatlamma-qatlam va hajmiy geterostrukturali faol qatlamlarning yutilish spektrlari.

1-rasmda alohida PBB-TSD ning yutilish spektri 360-690 nm to’lqin uzunligida, xuddi shuningdek Y6 ning yutilish spektri 550-900 nm to’lqin uzunligi diapazonida yorug’lik nurini yaxshi yutishini tahlil qilgan holda keltirilgan xulosamizni 2-rasmdagi PBB-TSD va Y6 polimerlarni qatlamma-qatlam va hajmiy geterostrukturali faol qatlamlarning yutilish spektrlari tasdiqlayotganini ko’rishimiz mumkin. Grafikdan ko’rinib turibdiki ikkala holda ham yutilish spektri intensivligi va yutilish diapazoni kengligi yaxshilangan. PBB-TSD:Y6 HGS ega faol qatlam yurilish spektriga qaraganda PBB-TSD/Y6 qatlamma-qatlam usulida tayyorlangan faol qatlam yutilish spektri 300-600 nm oralig’ida ko’proq ekanligini ko’rishimiz mumkin. Buni sababi shundaki, qatlamma-qatlam usulida tayyorlagan faol qatlam tarkibida ITO shisha ustiga birinchi donor polimeri spin coating qilingan, keyin polimer qatlam ustiga akseptor “spin coating” usulida yotqizilgan, shu sababli, qatlamma-qatlam

yotqizilgan faol qatlamning yutilish spektrida akseptorning yutilish koeffisenti ko’proq bo’lgan. Natijada PBB-TSD:Y6 faol qatlamning yutilish spektriga nisbatan akseptorning yutilish spektri intensivligi kuzatilgan, ammo ikkala faol qatlamda ham yutilish spektri shakli bir xil ekanligini ko’rishimiz mumkin. Umumiy xulosa qiladigan bo’lsak, PBB-TSD:Y6 va PBB-TSD/Y6 asosli polimer faol qatlamlarini ikkala usulda olganda ham bir-biri bilan yaxshi donor-akseptor struktura hosil qilishini ko’rishimiz mumkin. Hamda hajmiy geterostrukturali PBB-TSD:Y6 asosli faol qatlamning yutilish spektri qatlam-qatlam PBB-TSD/Y6 asosli faol qatlamga qaraganda qizil to’lqin tomonga biroz surilganini ko’rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. W. Yang, W. Wang, Y. Wang, R. Sun, J. Guo, H. Li, M. Shi, J. Guo, Y. Wu, T. Wang, G. Lu, C.J. Brabec, Y. Li, J. Min, Balancing the efficiency, stability, and cost potential for organic solar cells via a new figure of merit, Joule 5 (2021) 1209–1230.

2. Komikado T. et al. Multi-layered mirrors fabricated by spin-coating organic polymers //Thin Solid Films. – 2007. – T. 515. – №. 7-8. – C. 3887-3892.

TO‘LQIN O‘TKAZUVCHAN KVANT O‘RALI YARIMO‘TKAZGICHLI LAZERLARNING EKSPERIMENTAL TADQIQOTLARI

[1]D.F.Sayfilloyev, [2]F.M.Ro’ziyev,[1]A.U.Soatillayev
[1]Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti
sayfulloyevdoston9@gmail.com
[2]O‘zRFA A.U. Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti

№ 1 strukturadan stimullashgan nurlanish generatsiyasi chegarasiga xaydash quvvati zichligi 260 Vt/sm^2 bo‘lganida suyuq azot temperaturasida (77 K) uzluksiz Nd:YAG lazeri yordamida erishildi (1-rasm). Ushbu xolat fazoviy strukturada kvant o‘ralarning to‘lqin o‘tkazuvchan effekti mavjudligining isbotidir.[1]

Lazer struktura № 1 uchun qatlam parametrlari *1-jadval*

Taglikdan boshlab qatlam raqami	Qatlam nomi	O‘tkazuvchanlik turi va qatlam tarkibi	Qatlam qalinligi (nm)	Legirlash darajasi (sm^{-3})
1	Taglik	n^+-InP	-	10^{18}
2	To‘lqin o‘tkazgichli	n- InP	1862	10^{17}
3	Faol (KYA1)	i-$In_{0\,53}Ga_{0\,47}As$	9	Legirlanmagan
4	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	49	Legirlanmagan
5	Faol (KO‘2)	i-$In_{0\,53}Ga_{0\,47}As$	9	Legirlanmagan
6	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	49	Legirlanmagan
7	Faol (KYA3)	i-$In_{0\,53}Ga_{0\,47}As$	9	Legirlanmagan
8	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	49	Legirlanmagan
9	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	1274	10^{18}

Lazer nurlanishni faqat struktura parchasidan kuzatish mumkinligi qayd etilib, bu uning to‘lqin o‘tkazgichda sochilishi deyarli yo‘qligini bildiradi. Bu xolat taklif etilgan to‘lqin o‘tkazgichning to‘lqin olib o‘tuvchi xossalarini yaxshi ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Uzluksiz damlash quvvati zichligi qiymati turlicha bo‘lganida 3 kvant o‘raga ega InP/In0.53Ga0.47As struktura nurlanish generatsiyasi spektri: 1 – 250 Vt/sm^2, 2 – 260 Vt/sm^2, 3 – 315 Vt/sm^2

Xona temperaturasida (293 K) generatsiya chegarasi ancha yuqori (yorug‘likning parametrik generatori MOPO-SL "Spectra-Physics" bilan xaydashda 5 kVt/sm^2). 77 K va 293 K temperaturalar uchun generatsiya chegaralaridagi bunday katta farq ishda ko‘rsatilganidek, InP li panjara doimiysi bo‘yicha mos keluvchi In0.53Ga0.47As kvan o‘ralar uchun temperaturaning oshirilishida Oje rekombinatsiyalari chastotasining katta oshishi bilan bog‘langan.[2]

Shu ishda kuchlangan kvant o‘ralarining qo‘llanilishi xona temperaturasida generatsiya chegarasini pasaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Shuning uchun № 2 struktura kuchlangan kvant o‘ralar In0.65Ga0.35As bilan o‘stirilgan, biroq ularning qalinligi (7 nm) katta va kristik qalinlikka yaqin bo‘lib, bu struktura sifatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Lazer struktura № 2 uchun qatlam parametrlari ***2-jadval***

Taglikdan boshlab qatlam raqami	Qatlam nomi	O‘tkazuvchanlik turi va qatlam tarkibi	Qatlam qalinligi (nm)	Legirlash darajasi (sm^{-3})
1	Taglik	n^+-InP	-	10^{18}
2	To‘lqin o‘tkazgichli	n- InP	368	$3 \cdot 10^{17}$
3	Faol (KO‘1)	i-$In_{0\,65}Ga_{0\,35}As$	12	Legirlanmagan
4	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	92	Legirlanmagan
5	Faol (KYA2)	i-$In_{0\,65}Ga_{0\,35}As$	12	Legirlanmagan
6	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	92	Legirlanmagan
7	Faol (KO‘3)	i-$In_{0\,65}Ga_{0\,35}As$	12	Legirlanmagan
8	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	92	Legirlanmagan
9	Faol (KYA4)	i-$In_{0\,65}Ga_{0\,35}As$	12	Legirlanmagan
10	To‘lqin o‘tkazgichli	i- InP	92	Legirlanmagan
11	To‘lqin o‘tkazgichli	p- InP	2208	10^{18}
12	Kontaktli	i-$In_{0\,65}Ga_{0\,35}As$	184	10^{19}



2-rasm. p-n-o‘tishga perpendikulyar bo‘lgan tekislikda InP/In0.65Ga0.35As lazeri yo‘naltirilganligi diagrammasi. To‘liq kvadratlar – eksperiment, qora egri chiziq –xisoblashlar

Bundan tashqari kontakt qatlam In0.53Ga0.47As yetarlicha qalin bo‘lib, bu lazerdagi yo‘qotishlarni kuchli oshirgan. Natijada tokli xaydashda lazer generatsiyasi chegarasi 77 K temperaturada (10±0.4) A gacha oshirilib, 77 K temperaturada to‘lqin uzunligining 1.55 mkm gacha qizil siljishi yuz berdi. InP/In0.65Ga0.35As lazeri nurlanishi yo‘naltirilganligi diagrammasi (№2 struktura) p-n-o‘tishga perpendikulyar bo‘lgan tekislikda 2-rasmda keltirilgan.[3] Xisoblashlarda yo‘naltirilganlik diagrammalarining yaxshi mosligi aniqlangan bo‘lib, bu yana bir marta kvant o‘ralar yaqinida lokallashgan modalarning bo‘lishi haqidagi nazariy xulosalarni tasdiqlaydi.

To‘lqin o‘tkazuvchan kvant o‘ralari bo‘lgan strukturalar asosidagi lazerlar keng to‘lqin o‘tkazgichli lazerlarga qaraganida afzalliklarga egadir: yo‘naltirilganlik diagrammasi torroq va modalari lokallanish sohasi keng bo‘lishi evaziga ko‘zguga beradigan yuklanishi kichik. Biroq keng to‘lqin o‘tkazgichli lazerlardan farqli tarzda ular modalarining a’lo selektivligiga ega. Xususan, lazer to‘lqin o‘tkazgichning muhokama qilinayotgan konstruksiyasida bittagina moda bo‘lib, shuning uchun yuqori tartibli modalarni uyg‘otish muammosi mavjud emas. Yana bunday to‘lqin o‘tkazgichlarda sochilgan lazer nurlanishlarining deyarli bo‘lmasligi va konstruksiyasining soddaligini ham qayd etish kerak. Kamchiligiga, ular modalari lokallanishi sohasining kengligi tufayli erkin tashuvchilarda yutilishning oshishini va bunday to‘lqin o‘tkazgichlarning faqat kvant o‘ralari sindirish ko‘rsatgichlari farqi yetarlicha katta bo‘lgan sistemalardagina va ularni o‘rab turgan sohalardagina qo‘llash mumiknligini kiritish mumkin.[4]

Adabiyotlar

1. Huikari J. M. T. et al. High-energy picosecond pulse generation by gain switching in asymmetric waveguide structure multiple quantum well lasers //IEEE journal of Selected Topics in Quantum Electronics. – 2015. – T. 21. – №. 6. – C. 189-194.
2. Miller D., Weiner J., Chemla D. Electric-field dependence of linear optical properties in quantum well structures: Waveguide electroabsorption and sum rules //IEEE Journal of Quantum Electronics. – 1986. – T. 22. – №. 9. – C. 1816-1830.
3. Weber, Christoph, et al. "Picosecond pulse generation and pulse train stability of a monolithic passively mode-locked semiconductor quantum-well laser at 1070 nm." IEEE Journal of Quantum Electronics 54.3 (2018): 1-9.
4. Hu, S. Y., Young, D. B., Gossard, A. C., & Coldren, L. A. (1994). The effect of lateral leakage current on the experimental gain/current-density curve in quantum-well ridge-waveguide lasers. IEEE journal of quantum electronics, 30(10), 2245-2250.

РАЗВИТИЕ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

А.К.Тургунов
Наманганский государственный университет

Все солнечные элементы имеют одинаковую структуру, которая была заложена Александром Бреккелем в 1839 году. В 1883 году Чарльз Фритт разработал фотоэлемент, основанный на золото-селеновом переходе эффективностью 1%. Александр Столетов создал фотоэлемент на основе внешнего фотоэлектрического эффекта в 1988 году.

Солнечные элементы, как правило, изготавливаются из полупроводниковых материалов соединенных между собой. Их работа основана на явлении p-n перехода, возникающего под воздействием солнечного света. Фотоны, попадая на солнечный элемент в зону полупроводника с большей шириной запрещенной зоны, «выбивает» электроны, которые начинают движение к зоне проводимости, а затем, пройдя через цепь (нагрузку) связываются с положительными зарядами (дырками). В результате движения электронов образуется разность потенциалов, или напряжение.



Кристаллический кремний

Первое поколение солнечных элементов это классические кремниевые элементы с традиционным p-n переходом. Обычно они состоят из пластин чистого монокристаллического или поликристаллического кремния, толщиной 200-300 мкм. Отличаются высоким КПД (17-22%) и высокой себестоимостью. В настоящее время доля рынка около 81,5%.

Аморфный кремний

Принцип работы второго поколения солнечных элементов также основана на использовании p-n перехода. Однако в качестве основного материала не используют кристаллический кремний. Обычно используются такие материалы, как теллурид кадмия (CdTe), селенид меди-индия-галлия (CIGS) и аморфный кремний (a-Si). Толщина слоя полупроводника, поглощающего свет, составляет от 1 до 3 мкм.

Процесс производства таких фотоэлементов более автоматизирован и имеет значительно меньшую себестоимость. Основным недостатком второго поколения элементов является меньшая эффективность, чем элементы первого поколения, которая колеблется в зависимости от технологии от 7-15%. В настоящее время доля рынка около 18%.

Третье поколение солнечных элементов тоже относятся к тонкопленочным технологиям, однако без использования p-n перехода, а значит, без полупроводников. В настоящее время это поколение включает в себя разнообразные технологии, такие как перовскитовые солнечные элементы и другие. Большинство технологий основаны на применении органических полимерных материалов.



Полимерный солнечный элемент

Преимуществами (+) полимерных солнечных батарей в сравнении с обычными кремниевыми являются: низкие производственные затраты; гибкость, прозрачность, простота использования; энергосберегающее производство. К недостаткам (-) относятся низкая эффективность, и требуемая за ним больших площадей (чтобы достичь требуемых мощностей) и недолговечность из-за разложения органических соединений на солнечном свете.

Солнечные элементы на основе перовскита являются относительно новой разработкой и основаны на соединениях перовскита (титанат кальция $CaTiO_3$). Эти солнечные элементы имеют эффективность около 31%. Они обладают потенциалом для значительной революции в автомобильной промышленности, но все еще существуют проблемы со стабильностью этих элементов. Титанат кальция состоит из трех химических элементов: кальция(Ca); титана(Ti); кислорода(O_2). В кристаллической решетке вещества они располагаются в определенном порядке. Они собирают свет и поглощают его внутри. Обходятся они недорого, легко «вписываются» в конструкцию солнечных панелей и не требуют установки дорогостоящего оборудования. Но когда эти структуры подвергаются сильному нагреву от Солнца, они становятся нестабильными. Это представляет собой серьезный недостаток, который нуждается в корректировке. Устранить данный недостаток можно было только одним путем – перестроить расположение молекул внутри слоя вещества. Этот процесс идет до сих пор.

Примерная динамика совершенствования фотоэлектрических ячеек на базе $CaTiO_3$ выглядит следующим образом:

Год	Срок службы (часы)	КПД, %
2000	4-6	1,5
2005	12-28	3,5
2010	150-200	7-8
2015	800-1200	13-14
2020	7500-9000 (более 1 года)	> 20

В связи с этим для них характерен ряд важных достоинств: неорганическая структура, возможность использовать в роли электродов углерод вместо золота, высокая скорость и доступность оборудования для изготовления и экологическая чистота.

Преимуществом фотоэлементов третьего поколения является низкая себестоимость и простота изготовления. Главным препятствием на пути популяризации является низкая эффективность, которая не превышает 14%. В настоящее время рыночная доля третьего поколения элементов не превышает 0,5%

Научные исследования и эксперименты продолжаются, и нет сомнений в том, что все проблемы, связанные с полимерными солнечными батареями, будут решены.

Солнечные батареи широко используются в качестве возобновляемого источника энергии в масштабах от самых маленьких портативных устройств до питания целых сообществ. Солнечная энергия, похоже, станет частью общей структуры возобновляемых источников энергии. Вместе с этим появятся инвестиции и технологические достижения, а также снизятся затраты на солнечные энергетические системы.

Литература

1. https://solarsoul.net/razvitie-fotoelementov
2. https://econet.ru/articles/evolyutsiya-solnechnoy-batarei-proshloe-nastoyaschee-buduschee
3. https://nova78.ru/chto-takoe-solnechnye-batarei/
4. https://mywatt.ru/poleznaya-informaciya/osobennosti-perovskitnyh-solnechnyh-elementov
5. https://mywatt.ru/poleznaya-informaciya/organicheskie-solnechnye-batarei-preimucshestva-materialy-i-perspektivy
6. https://solarb.ru/polimernye-solnechnye-batarei-i-ikh-preimushchestva

STATSIONAR BO’LMAGAN INSHOOTLARDA ISSIQLIK REJIMIDA ICHKI VA TASHQI IQLIMNING TA’SIRINI MODELLASHTIRISH.

Sh.U.Eshonqulov, A.L.Ne’matov
Jizzax Politexnika instituti

Maqolada avtomatizatsiya va kompyuter tizimlari va havoni konditsionerlik tizimlarini ishga tushirish muammolari ko‘rib chiqilgan. Ushbu masalalarni echish uchun fizik model taklif etilgan bo‘lib, unga ko‘ra xona turbulent oqimlarning faol zonasiga va ikkilamchi oqimlar zonasiga bulinadi.

Xozirgi vaqtda xonalarning statsionar bo‘lmagan issiqlik rejimi muammolarini xal qilishda ko‘pchilik tadqiqotchilar hisob-kitob sifatida xonalarni birma-bir modellashtirishdan foydalanadilar.

Isitish va ventelyatsiya texnologiyasini rivojlantirishning xozirgi bosqichi binolarning issiqlik rejimini avtomatik boshqarish tizimlarini keng joriy etish bilan tavsiflanadi. Avtomatlashtirilgan isitish va shamollatish tizimlari va konditsioner tizimlarini loyixalash ikkita asosiy vazifani hal qilishni talab qiladi.

Ulardan birinchisi, talab qilinadigan nazorat chegaralarini baholash, shuningdek tanlash uchun yilning xarakterli davrlarida (hisoblash kunlari, besh kunlik va boshqalar) binolarning issiqlik rejimi dinamikasini taxlil qilish zarurati bilan bog‘liq. Energiya iste’moli nuqtai nazaridan optimal bo‘lgan uskunalar va muxandislik tizimlari.

Ikkinchi muammo xonalarning issiqlik rejimini avtomatik boshqarish tizimlarini optimal loyixalash jarayonida paydo bo‘ladi (ularning ishlashining barqarorligini taxminlash, berilgan rejimga chiqish vaqtining minimal davomiyligi va boshqalar) dinamik xarakteristikalar xaqida ma’lumot. Binolarni avtomatik boshqarishning umumiy tizimida alohida bo‘g‘inlar sifatida.

Ushbu muammolarni hal qilish binolarning statsionar bo‘lmagan issiqlik rejimini o‘rganish bilan bog‘liq. Xona xarorati massasi teng bo‘lgan moddiy nuqta sifatida qaraladi. Xavoning issiqlik sig‘imi o‘rab turgan tuzilmalarning issiqlik sig‘imidan sezilarli darajada past ekanligini va shuning uchun undagi issiqlik jarayonlari ancha tezroq ketishini hisobga olsak, modeldan foydalanib, sekin statsionar bo‘lmagan issiqlik jarayonlarini etarli darajada aniqlik bilan hisoblash mumkin. Konditsioner tizimlari, binolarni davriy isitish tizimlari va boshqalarning issiqlik va sovutish yuklarini xisoblashda shunga o‘xshash muammolar paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu model masalani matematik modellashtirishni sezilarli darajada osonlashtiradi, chunki *Navier-Stokes* tenglamalari tizimi birinchisi tartibli oddiy differentsial tenglamalar bilan almashtiriladi.

Biroq, ba’zi bir aniq muammolarni hal qilishda (avtomatik boshqaruv tizimlarini hisoblash bilan bog‘liq), dastlabki davrda statsionar bo‘lmagan issiqlik jarayonining xususiyatlarini bilish zarur bo‘lganda, konsentratlangan modellashtirish zaruriy aniqlikni taxminlamaydi. Shuning uchun xonaning statsionar bo‘lmagan issiqlik rejimini xisoblash uchun ikkinchi jismoniy model taklif qilindi, unga ko‘ra xona turbulent oqimlarning faol aylanishi zonasiga va ikkilamchi oqimlar zonasiga bo‘linadi. Biz, shuningdek, boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, dastlabki davrda xonaning turli nuqtalarida o‘tish jarayoni turli xil sur’atlarda rivojlanadi. Ushbu bo‘linish xavo oqimlarining xarakati fizikasiga mos keladi. Xonadagi xarorat maydonlarining shakllanishi isitish va shamollatish moslamalaridan keladigan turbulent oqimlarning ta’siri ostida davom etadi. Rivojlanayotgan turbulent jetlar atrofdagi kosmosdan havo chiqaradi va xonada sirkulyatsiya zonalarini yaratadi. Ushbu zonalarning joylashuvi va ularning

o‘lchamlari isitish va shamollatish tizimlarini loyixalashga bog‘liq. Zonalarning o‘lchamlarini aniqlash xonada rivojlanayotgan turbulent jetlarni xisoblash bilan chambarchas bog‘liq.

Tavsiya etilgan model asosida binolarning statsionar bo‘lmagan issiqlik rejimini xisoblashda xar bir zona mustaqil ravishda ko‘rib chiqiladi, ularning xar biri uchun massiv va radiatsiyaviy korpuslarning statsionar bo‘lmagan issiqlik o‘tkazuvchanligi tenglamalari va issiqlik balansi tenglamalari havo yig‘iladi. Ikkinchisini tuzishda faol aylanish zonasi va ikkilamchi oqimlar zonasi o‘rtasidagi konvektiv issiqlik almashinuvini hisobga olish kerak. Bu issiqlik oqimini taxminan ***F*.** Kontakt maydoniga ega bo‘lgan suyuqlik va qattiq sirt o‘rtasidagi α_k issiqlik almashinuvini hisobga olgan xolda ishlatiladigan formulaga o‘xshash formula bilan tavsiflanishi mumkin. Faol aylanish zonasida t_{ak} va resirkulyatsiya $t_{r.}$

$$Q \text{ q } \alpha_k F\,(t_{ak} - t_p)$$

Mintaqalar o‘rtasida issiqlik uzatish jarayonini tavsiflashning bu usuli yagona mumkin emas. Havo oqimlarining entalpiyasini xisoblash yo‘li bilan faol aylanish va resirkulyatsiya sohalari orasidagi konvektiv issiqlik almashinuvini hisobga olish mumkin.

Qabul qilingan fizik modeldan qat’i nazar, statsionar bo‘lmagan issiqlik uzatish muammolarini matematik tarzda amalga oshirish bir necha usullar bilan amalga oshirilishi mumkinligini aniqladik.

Dastlabki differentsial tenglamalarni chekli farqli yaqinlashish uchun ko‘p sonli farq sxemalaridan birini qo‘llash mumkin, uning batafsil taqdimoti maxsus adabiyotlarda mavjud. Cheklangan ayirma usuli differentsial tenglamalarni echishda ixtiyoriy chegara va boshlano‘ich shartlarni amalga oshirish imkonini beradi, bu uning so‘zsiz afzalligi hisoblanadi. Shu bilan birga, statsionar jarayonlarni hisoblashda chekli farqlar usuli tizimni dastlabki ixtiyoriy belgilangan xolatdan statsionar xolatga olib borishni talab qiladi. Buning uchun taxminan oldingi besh kun uchun statsionar bo‘lmagan rejimni hisoblash kerak va kompyuter dasturlash asosida u iqtisodiy bo‘lmagan bo‘lishi mumkin.

Binolarni statsionar bo‘lmagan issiqlik uzatishning chiziqli muammolarini mumkin bo‘lgan raqamli hal qilishning ikkinchi usuli - bu dastlabki funktsiyalarni Fure seriyasiga kengaytirish usulidan foydalanish. Bu usul trigonometrik funktsiyalar qonuniyatlari bo‘yicha operatsion buzilishlar o‘zgarganda eng qulay hisoblanadi. Boshqa turdagi bezovta qiluvchi xarakatlar bilan (davriy to‘rtburchaklar, chiziqli va boshqalar) asl funktsiyalarni aniq yaqinlashtirish uchun ketma-ketlikning ko‘p sonli xarmonikalaridan (30 ta xarmonikadan) foydalanish kerak.

Bir qator boshqa mualliflarning ishlarida statsionar bo‘lmagan issiqlik uzatishning turli muammolarini xal qilishda integral *Laplas* transformatsiyalari usuli qo‘llaniladi.

Olingan bog‘liqliklarga asoslanib, mualliflar binolarning issiqlik rejimini hisoblash uchun kompyuter dasturini ishlab chiqdilar. Dastur o‘zboshimchalik bilan o‘zgaruvchan bezovta qiluvchi ta’sirlar bilan xona ichidagi havo xaroratini hisoblash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Toshmatov, N. U., &Saydullaev, S. R. (2016). О методах определения потери подсосов воздуха в вентелиационных сетях.
2. Takaboev, K. U., Musaev, Sh. M., &Xojimatova, M. M. (2019). - Загружение атмосферу вредному веществами мероприятие их сокращение. Экология: *вчера, сегодня, завтра*.
3. Tursunov, M. K., &Ulugbekov, B. B. (2020). - Оптимизация размешения солнечьных коллекторов на ограниченной площади. Me′morchilik va qurilish muammolari, 56.
4. Mamasoliev, K. M., &Mamarazhabovich, M. S. (2020). - The essence of the theory of gasliquid flow and its use in solving technical problems. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, *10*(12), 1318-1322.
5. Alibekova, N. N. (2020). - Зонирование водо-проводных сетей. Science and Education, 1(9), 228-233.

6. Xajimatova, M. M. (2021). - Некоторые гидро-динамические эффекты, проявляемые при пузырковом и снярадном режимах течения газожидкостной смеси. Science and Education, 2(4), 257-264.
7. Karimovich, T. M., &Obidovich, S. A. (2021). To increase the effectiveness of the use of Information Systems in the use of water. Development issues of innovative economy in the agricultural sector, 222-225.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПОЛУПРОВОДНИКОВОЙ ФОТОВОЛЬТАИКИ

Р.Алиев
Андижанский государственный университет

В развитии полупроводниковой фотовольтаики характерны новые направления прикладного научного исследования. Полупроводниковые фотоэлектрические преобразователи (ФП) разделены на три поколения: ФП первого поколения; ФП второго поколения и ФП третьего поколения. Активные исследования проводятся по развитию ФП второго и третьего поколений. Появление и интенсивное развитие методов цифрового моделирования позволяли поднять качество исследований на существенно высокий уровень. Возможность комплексной реализации теории классической и квантовой физики твердого тела, формирования информационных баз множества экспериментальных данных позволяли выполнят научные исследования более качественными, интенсивными и результативными.

В этом отношении можно отметить следующие наиболее важные направления в фундаментальном научном и прикладном отношении.

1. Заслуживает особое внимание, что на основе ФП первого поколения могут быть созданы многосторонне-освещаемые элементы. Выполненные в этом направлении теоретические и экспериментальные исследования свидетельствовали о хорошем перспективе создания матричных ФП с вертикальными *p*-*n*-переходами. Такие ФП преобладают не оспоримые преимущества в задачах генерации высоких выходных напряжений и преобразования концентрированного солнечного излучения. Кроме этого, выполнение таких ФП в многосторонне чувствительной конструкции позволяет до трех-четырех раз сократит расход полупроводникового кремния.

2. В последнее время возобновились исследования по усовершенствованию тонкопленочных ФП (второго поколения) на основе аморфного кремния. При этом большой интерес проявляют новые гетеро-переходные конструкции ФП, созданные по “HIT-технологии“. Такой подход позволяет преодолеть ряд проблем, связанных с нестабильностью свойств тонких слоев аморфного кремния. Сочетается достижения современных методов текстурирования и нанотекстурирования поверхности с формированием внутренних многослойных структур аморфного кремния, в результате достигается созданию ФП с конкурентоспособными по эффективности и стабильностью параметров.

3. Формирование поверхностных и объемных оптических уловителей фотонов за счет использования методов нанотехнологии способствуют управлять процессами фотогенерации неравновесных носителей заряда в тонких слоях полупроводников. Поэтому в тенденциях развития полупроводниковой фотовольтаики характерно разработка инновационных разнообразных конструкций ФП.

4. В развитии ФП третьего поколения особое внимание заслуживает использование гетеро-переходных структур. Для этой цели начали использовать новые широко-зонные, перовскитные, полимерные и ряд других органических материалов. Благодаря широкому диапазону оптических и диэлектрических параметров таких новых материалов показаны возможности существенного повышения эффективности фотоэлектрического преобразования. Однако, такие положительные результаты получены преимущественно методами теоретического расчета и моделирования. В настоящее время такие методы исследования опережают реальные эксперименты.

Достижение реальных результатов в создании высокоэффективных ФП на основе новых материалов часто сдерживается неустойчивостью физических

параметров, связанных с нестабильностью межатомных и межмолекулярных химических связей, особенно при освещении.

Таким образом, анализ ситуации исследований по данным открытых публикаций за последние десятилетие способствует концептуального определения актуальных и приоритетных направлений фотовольтаики как по материаловедческой, так и приборостроительной точек зрения.

5. Представляет большой интерес научно-прикладные исследования, связанные с эксплуатацией ФП в условиях сухого, жаркого, континентального и пыльного климата, например в республиках Средней Азии. Поэтому остаются актуальными задачи по созданию солнечных фотоэлектрических устройств, приспособленных континентальному изменению климата. В этом отношении перспективно разработать и внедрит солнечные фотоэлектрические энергетические установки 3D формата, в которых впервые исключается использование плоских панелей. Необходимо отметить, что такие энергетические установки конкурентоспособны для преобразования концентрированного солнечного излучения.

Природная нестабильность первичных потенциалов возобновляемых источников остаётся нерешенной проблемой во всем мире. Поэтому с целью получения непрерывной энергии из возобновляемых источников необходимо создавать гибридные энергетические установки. Весьма актуально разработать такие гибридные энергетические установки, как: «Солнечные-ветровые», «Солнечные-фотоэлектрические», «Солнечные-фотоэлектрические-тепловые», «Солнечные-гидравлические», «Ветровые-гидравлические» и «Солнечные-ветровые-гидравлические».

Будут презентованы результаты расчетных и экспериментальных исследований лаборатории «Возобновляемые источники энергии» при АГУ по вышеуказанным пяти актуальным направлениям. По всем указанным приоритетным направлениям опубликованы [1-8] в журналах, индексируемы в базах Scopus, WoS и получены официальные патенты [9-17] в 2022 г.

Литература

1. A.Mirzaalimov, J.Gulomov, R.Aliev, N.Mirzaalimov, S.Aliev. A study of silicon p-n structures with mono and multifacial photosensitive surfaces. //Information technologies mechanics and optics, 2022, Volume 22, Issue 1, (25-32 pp.) (Scopus)

2. J.Gulomov, O.Accouche, R.Aliev, B.Neji, R.Ghandour, I.Gulomova, M.Azab. Geometric Optimization of Perovskite Solar Cells with MetalOxide Charge Transport Layers. //Nanomaterials, 2022, Issue 12(15), 2692(1-15 pp.), DOI: 10.3390/nano12152692 (Scopus,Web of Science)

3. N.M.Yuldasheva, M.Z.Nasirov, S.D.Matboboyeva, J.J.G'ulomov. Semi-Empirical Plasmon Coefficients of Metals for Nanoplasmonics. //Journal of Nano- and Electronic Physics, 2022, Volume 14, Issue 4, 04024(1-3 pp.), DOI: doi.org/10.21272/jnep.14(4).04024 (Scopus)

4. J.Gulomov, O.Accouche, R.Aliev, M.Azab, I.Gulomova. Analyzing the ZnO and CH3NH3PbI3 as Emitter Layer for Silicon Based Heterojunction Solar Cells. //Computers, Materials & Continua, 2022, Volume 74, Issue 1, (575-590 pp.), DOI: 10.32604/cmc.2023.031289 (Scopus)

5. J.J.G'ulomov, R.Aliev, N.A.Mirzaalimov, B.D.Rashidov, J.Aliyeva. Study of Mono- and Polycrystalline Silicon Solar Cells with Various Shapes for Photovoltaic Devices in 3D Format: Experiment and Simulation. //Journal of Nano- and Electronic Physics, 2022, Volume 14, Issue 5, 05012(1-8 pp.), DOI: doi.org/10.21272/jnep.14(5).05012 (Scopus)

6. J.J.G'ulomov, J.N.Ziyoitdinov, I.M.G‘ulomova. The Effect of Temperature and Base Thickness on Photoelectric Parameters of Amorphous Silicon Solar Cells. //Journal of Nano-

and Electronic Physics, 2022, Volume 14, Issue 5, 05010(1-6 pp.), DOI: doi.org/10.21272/jnep.14(5).05010 (Scopus)
7. J.J.G'ulomov, O.Accouche. Gold Nanoparticles Introduced ZnO/Perovskite/ Silicon Heterojunction Solar Cell. //IEEE Access, 2022, Volume 19, (119558-119565 pp.), DOI: 10.1109/ACCESS.2022.3221875 (Scopus,Web of Science)
8. J.J.G'ulomov, O.Accouche, Z.Al Barakeh, R.Aliev, I.M.G‘ulomova, B.Neji. Atom-to-Device Simulation of MoO3/Si Heterojunction Solar Cell. //Nanomaterials, 2022, Volume 12, Issue 23, 4240(1-16 pp.), DOI: doi.org/10.3390/nano12234240 (Scopus,Web of Science)
9. Алиев Р.,Урмонов Б.К.,Ғуломов Ж.Ж.,Хайдаров Д.М.,Темиров С.И.. Осветительное устройство. ЎзР, Патент № FAP 02036, 29.07.2022
10. Aliev R.,Mirzaalimov N.A.,Ziyoitdinov J.N.,Aliev S.R.,Rashidov B.D.,Komilov M,O'ktamov R.X.. Quyosh suv ko'tarish qurilmasi. ЎзР, Патент № FAP 01973, 10.05.2022
11. Aliev R.,Xaydarov D.M.,Eraliyev A.,Akbarova G.O.,Nasrddinov S.,Kaxramonova Sh.Sh.,Aliyeva G.A.. Quyosh kollektori. ЎзР, Патент № FAP 01931, 18.04.2022
12. Aliev R.,G'ulomov J.J.,Temirov S.I.,Foziljonov M.B.,Mamatova G.J.,Aliyeva J.,Qahhorov J.I.. Gibrid quyosh fotoelektrik - issiqlik energetik qurilma. ЎзР, Патент № FAP 01932, 18.04.2022
13. Aliyev R.,Urmanov B.,Ziyaitdinov J.,Kaxxorov J.,Aliyeva J.. Kremniyli fotoelektrik o'zgartirgichni tayyorlash usuli. ЎзР, Патент № FAP 01840, 28.02.2022
14. Aliyev R.,Mirzaalimov N.A.,Ziyaitdinov J.,Aliyev S.R.. Fotoelektrik modul. ЎзР, Патент № FAP 01804, 24.01.2022
15. Aliyev R.,Gulomov J.J.,Abduvoxidov M.K.. Ultrabinafsha nurlanish detektori. ЎзР, Патент № FAP 01802, 24.01.2022
16. Aliev R.,G'ulomov J.J.,Mirzaalimov N.A.,Abduvoxidov M.K.,Urmonov B.K.,Mirzaalimov A.A.,Matboboyeva S.,Abduazimov V.. Yarimo'tkazgichli fotoelektrik o'zgartirgich. ЎзР, Патент № FAP 01806, 24.01.2022
17. Aliyev R.,Gulomov J.J.,Urmanov B.,Rashidov B.D.,Aliyev S.R.,Mirzaalimov N.A.. Fotoelektrik o'zgartirgich. ЎзР, Патент № FAP 01801, 19.01.2022

KREMNIYLI QUYOSH PANELLERINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

S.I.Jiyanova, X.X.To’raev, X.E.Eshmurodov
Termiz davlat universiteti.
E-mail: jiyanovasayyora2021@gmail.com

Elektr energiyasi iste’molining ortishi, an’anaviy energiya manbalari – ko‘mir va neftning cheklangan zahiralari tufayli muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish zaruriyatini vujudga keltiradi [1]. Yoqilg‘i energetika resurslarining bunday cheklangan zahiralari va energetikani rivojlantirish bilan bog‘liq ekologik muammolarni hal qilishda ko‘payib borayotgan qiyinchiliklar energiya ishlab chiqarishning yangi, noan’anaviy usullarini izlash zaruriyatiga olib keladi. Quyosh energiyasini fotoelektrik usulda elektr energiyasiga aylantirish ekologik tozaligi bilan boshqa usullardan ajralib turadi [2]. Ekologik toza energiya manbalarining turlari orasida quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirish kelajak energiyasining eng istiqbollisi hisoblanadi [3]. Hafta davomida Yer yuzasiga tushadigan quyosh energiyasining umumiy miqdori dunyodagi barcha neft, gaz, ko‘mir va uran zahiralarining energiyasidan yuqori ekanligi o‘rganilgan [4].

Bugungi kunda, butun dunyoda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham tabiiy boyliklarni tejash va ishlab chiqarish tarmoqlariga ekologik sof texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki, bu ham iqtisodiy barqarorlikka erishish, ham atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishda juda muhim omil hisoblanadi. Ya’ni bu masalalar yurtboshimizning “2023 yildan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son qarorida nazarda tutilgan. Bu qarorga ko‘ra, 2023 yil 1 maydan boshlab foydalanishga topshiriladigan ko‘p qavatli uylar tomlari bo‘sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o‘rnatish talabi joriy qilinadi.

Mamlakatimiz muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha ham ulkan salohiyatga ega. Jumladan, yurtimiz hududiga tushadigan quyosh energiyasi hamda hosil bo‘ladigan nazariy quvvat miqdori 6 milliard 750 million tonna shartli yoqilg‘iga teng. Bu mavjud qayta tiklanmaydigan resurslar zahirasiga nisbatan uch barobar ko‘pdir [5]. Biz tadqiqot ishimiz davomida Surxondaryo viloyatidagi o‘rnatilgan quyosh panellari quvvatlarini o‘rganib chiqdik (yillar va tumanlar miqiyosida).

Surxondaryo viloyati statistika qo‘mitasidan olingan ma’lumotiga ko‘ra, shu vaqtgacha viloyatda 2010-2022 yillar davomida o‘rnatilgan quyosh panellari umumiy quvvati haqida ma’lumotlar diagrammasi (1-rasm).

1-rasm. Surxondaryo viloyatida o‘rnatilgan quyosh panellari quvvatlari

Surxondaryo viloyati tumanlarida o‘rnatilgan quyosh panellarining umumiy quvvati (2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlarida o‘rnatilgan quyosh panellarining umumiy quvvati (tumanlar kesimida)

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, o‘rnatilayotgan quyosh panellarining quvvati yillar davomida tumanlarda ham ortishi fotoelementlarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Fotoelement yacheykalarida yorug‘lik nurlanish energiyasi elektr energiyasiga aylantiriladi. Fotoelektr yacheykalarini tayyorlashda birinchi bo‘lib, mono- yoki polikristall kremniydan foydalanilgan. Hozirgi kunda bu elementdan tayyorlanadigan yacheykalar, butun dunyoda o‘rnatilgan tizimlarning 80 % ni tashkil etadi. Ularning foydali ish koeffitsenti 11 - 16% ni tashkil etadi [6].

O‘zbekistonda kvars qumining konlari mavjud bo‘lib, ular kelajakda yarimo‘tkazgich sanoati uchun xomashyo bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Chunki, kremniy (IV) oksidi (SiO_2) mahalliy kvars qumlaridan tarkibida yuqori foizlarda bo‘ladi. Yuqori texnologiyali sanoat va yarimo‘tkazgich tizimining rivojlanishi bilan toza kvars qumiga talab ortib bormoqda. Mahalliy kvarts qumining kristall tuzilishida (Na, K, Al, Mg, Ca, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu va boshqalar) aralashmalarning mavjudligi uni tozalash uchun ilmiy ishlanmalarni talab qiladi [7]. Bu borada xorijiy va yurtimiz olimlari ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ukrainalik olimlar O.V.Solovyev, B.P.Masenko, I.A.Xlopenova quyidagi reaksiya asosida texnik kremniy ajratib olish ustida ish olib borganlar:

$$2Zn+SiO_2 \rightarrow Si+2ZnO.$$

Reaksiya natijasida kremniy (IV) oksidi rux yordamida qaytarilganda va kimyoviy ishlov berilgandan so‘ng olingan material 99,993% tozalikka ega bo’lgan [8]. O‘zbekistonlik olimlar Qodirov M.Sh., Abduraxmanov K.P., Abduraxmanov B.M. va Kostetskiy M.A. tomonidan mahalliy xomashyodan foydalanib, texnik kremniy olish imkoniyatlari elektr yoyli pechda olib borilgan tajribalar asosida o‘rganilgan va Kr1 markali texnik kremniy olish mumkinligi aniqlangan.

Bizning tadqiqot ishimizda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan olib kelingan qum tarkibi rentgen fazaviy usulda analiz qilinganda undagi moddalar tarkibi quydagicha ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Boyitilmagan Sherobod kvars qumlaridagi moddalar miqdori (%)

Temir uch oksidi	Fe_2O_3	0,4
Kremniy	Si	1,1
Kremniy (IV) oksidi	SiO_2	96
Alyuminiy (III) oksidi	Al_2O_3	2,5

Bu qum quyidagi usullarda boyitildi: 1) Olingan qum namunasi turli o‘lchamli elaklar yordamida elandi. 2) 10-15 min davomida yuvildi. 3)100℃-110℃ li pechda quritildi. 4) Boyitilgan qum magniy bilan aralashtirilib, 600℃ li mufel pechida qaytarildi:

$$SiO_2+2Mg=Si+2MgO$$

Demak, ushbu tadqiqot natijasida olingan krenmiy texnik kremniy hisoblanib, metallurgiyada mustahkamlikni oshirish maqsadida foydalanish mumkin. Magniy bilan qaytarilgan SiO_2 distillangan suvda 4-5 marta yuvilib, xlorid kislota yordamida ortiqcha elementlardan tozalandi. Bunda olingan natija rentgen fazaviy usulda qayta tekshirildi va uning unumi 75% ekanligi o‘rganildi. Unumni oshirish uchun bidistillangan suvda va sulfat kislotada bir necha marta qayta yuvish lozim bo‘ladi.

Adaboyotlar

1. Н.Н. Баранов. Прямое преобразование энергии для автономной энергетики.//Энергия:экономика, техника, экология.-2000.-№8.-с.23-34.
2. Стребков Д.С. Роль солнечней энергии в энергетике будущего [Текст]/ Д.С Стребков // Энергетическая политика, 2005.-№2.-С.27-36.
3. Энергия будущего возобновляемая энергия. Стратегия Европейского Союза в области возобновляемых источников энергии.// Возобновляемая энергия.-2000.-№10.-С. 14.
4. Новая энергетическая политика России./Под ред. Ю.К. Шафранника. М:Энергоиздат, 1995.- с.512.
5. Боходирханов М.К., Зикриллаев Н.Ф., Абдурахмонов Б.А., Саитов Э.Б. International Theoretical and Practical Conference Education and science for sustainable development April 6-8, 2016 Tashkent, Uzbekistan. Қуёш элементларини ишлаб чиқаришда нанотехнологиянинг ўрни. pp. 59-60.
6. Саитов Э.Б. Возможность создания высокоэффективных солнечных фотоэлементов на основе кремнии. “Физика фанининг ривожида истедодли ёшларнинг ўрни” “Илмий амалий конференция мақолалар тўплами” 2015 й. б. 381-385.
7. Атаев Э.К., Матьякубов А.А., Батманов Б.Х. Обогащение каракумского кварцевого песка. Мары, Туркменистан.2022г
8. Aulich H. A., Grabmaier J. G. Solar-grade silicon prepared by advanced carbothermic reduction of silica // Siemens Forschungs und Entwicklungs.- 1986.- Bd 15, N. 4.- S. 157-210.

ERUVCHANLIK VA GERMANIY TAGLIKDA $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ QATTIQ ERITMALARNI OLISH TEXNALOGIYASINI O’RGANISH

Q.A. Yo’ldashev[1], A.A. Abdullayev[1]
[1]Namangan Muhandislik Qurulish Instituti
yoldashevqodirjon11@gmail.com

Hozirgi vaqtda A^3B^5 иA^4B^4, A^2B^6 asosidagi yarim o'tkazgichli qattiq eritmalar o'zining noyob xususiyatlari tufayli mikroelektronikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi va ba'zi qurilmalar uchun ular o’zgartirib bo’lmas materiallarga aylanadi.

Shu munosabat bilan Ge,GaAs ning past haroratlarda Pb dagi eruvchanligini va ularni o‘stirish usullarini takomillashtirish, yangi yarimo‘tkazgichli konstruksiyalarni ishlab chiqarish maqsadida allaqachon ma’lum bo‘lgan yarimo‘tkazgichli qattiq eritmalarni olish shartlarini o‘rganish juda muhim yo‘nalish hisoblanadi.

A^3B^5, A^4B^4 qatlamlarini o'stirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri suyuq fazali epitaksiya usuli hisoblanadi.

Suyuq fazada kristallanish jarayonini nazorat qilish va tarkibiy qismlar va aralashmalarning kerakli taqsimoti bilan qattiq eritmalarni olish uchun fazalar muvozanati va suyuqlik fazasidagi komponentlar va aralashmalarning o'zaro ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar talab qilinadi.

Ushbu maqolada Pb-Ge-GaAS tizimlarida fazalar muvozanatini o'rganish bo'yicha eksperimental va hisoblash ma'lumotlari, germaniy substratlari bo'yicha ushbu tadqiqotlar natijalari asosida qattiq eritmalar $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ olinadi.

Ge va GaAs larning qo‘rg‘oshindagi eruvchanligini o‘rganish bo‘yicha tajribalar biz tomonidan shudring nuqtasi t = 60÷65°C bo‘lgan tozalangan vodorod atmosferasida o‘tkazildi. Vodorodning tozaligi har safar tajribadan oldin va keyin o'lchangan.

Shunday qilib, biz Ge va GaA larning qo'rg'oshindagi eruvchanligiga eruvchanligi va o'zaro ta'sirini o'rgandik.

Ge va GaAs ning suyuq metall erituvchilarda eruvchanligi, shuningdek ularning o'zaro ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, qo'rg'oshinni erituvchi sifatida ishlatish "maxsus" sharoitlarni ta'minlaydi [1]. haqiqiy qattiq eritmalar $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$. Eruvchanlikni o'rganish vazn yo'qotish usuli bilan amalga oshirildi va jarayon davomida eritma-eritma doimiy ravishda aralashtiriladi.

Birinchi marta pirolitik sintez yo'li bilan Ge - GaAs tizimi asosida metastabil uzluksiz qattiq eritmalar tayyorlash haqida [2] xabar berilgan, unda bunday bog'liqliklar panjara parametri va olingan qattiq eritmalarning tarmoqli oralig'iga bog'liq $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$. Ish [3] ushbu qattiq eritmalarning elektrofizik xususiyatlarini keyingi tekshirishga bag'ishlangan.

Qattiq eritmalarni olishning nazariy sharti $(C_2^4)_x$ $A^3B^3{}_{1-x}$ umumlashtirilgan momentlar nuqtai nazaridan ularning hosil bo'lish imkoniyatlarini tahlil qilish edi. , suyuq metall erituvchilarda Ge va GaAs eruvchanligi bo'yicha tajriba ma'lumotlarining yuqoridagi natijalari. Qo'rg'oshinni erituvchi sifatida ishlatish haqiqiy qattiq eritmalar hosil bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ [2]. Bunday holda, kristallanish jabhasida qattiq eritmaning ikkala komponentiga nisbatan etarlicha yuqori supersaturatsiyaga erishiladi. Bundan tashqari, ishlatiladigan nisbatan past o'sish harorati (650÷700°C) hosil bo'lgan qattiq eritmalarning o'z-o'zidan parchalanishini oldini oladi.

Birinchi marta $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ qattiq eritmalarning germaniy substratlarida past haroratli epitaksiya qilish sharoitlari tegishli eritma eritmasini tanlash yo‘li bilan tajriba yo‘li bilan aniqlanadi.

Aniqlanishicha, epitaksiyaning boshlanishi haroratining pasayishi bilan epitaksial qatlamlarning strukturaviy mukammalligi yaxshilanadi, pastki substratlarda eng strukturaviy mukammal qatlamlar olinadi. Substratlar orasidagi bo'shliq oshgani sayin, yuqori va pastki qatlamlarning strukturaviy mukammalligi o'rtasidagi farq sezilarli bo'ladi.

Olingan qattiq eritmalar $(Ge_2)_X(GaAs)_{1-X}$mikroelektronika uchun yangi yarim o‘tkazgich material sifatida amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Olingan plyonkalarning qalinligi $(Ge_2)_X(GaAs)_{1-X}$sovutish davomiyligiga bog'liq va 25-40 mkm oralig'ida edi. Filmning yuzasi maxsus qurilma bilan o'sish oxirida eritma-eritma qoldiqlaridan tozalangan.

Olingan plyonkalar oynadek silliq sirtga ega, p-tipli o'tkazuvchanlik tashuvchisi konsentratsiyasi $1.4 \cdot 10^{18}\text{см}^{-3}$va harakatchanligi $155\,\text{см}^2/\text{В} \cdot \text{с}$edi. , 300 K da. Komponentlarning qalinligi bo'yicha taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, Camesa tipidagi mikroanalizator yordamida o'rganilgan, epitaksial qatlamdagi GaAs tarkibi $(Ge_2)_X(GaAs)_{1-X}$o'sish o'qi bo'ylab ortib, qatlamlar yuzasida 80÷ 90% ga etadi. GaAs substratlari Ge bilan almashtirilganda komponent taqsimotining tabiati biroz o'zgaradi. Aniqlanishicha, $(Ge_2)_X(GaAs)_{1-X}$ qattiq eritmalar Ge substratida tuzilishi jihatidan mukammalroqdir. Bu plyonkalarning dislokatsiya tuzilishining morfologik tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi. Bunday holda, Ge substratida o'stirilgan plyonkalarda dislokatsiya zichligi $3 \cdot 10^4\text{см}^{-2}$ va GaAs substratlarida 10^5см^{-2}ni tashkil etdi.

As(Ka), Ga(Ka), Ge(Ka) xarakterli rentgen nurlanishida olingan rastr naqshlariga ko'ra, qatlamlar strukturaviy jihatdan mukammal bo'lib, tarkibiy qismlarning qalinligi bo'ylab ham, interfeys bo'ylab ham taqsimlanishi ancha monotondir. (1-rasm).

Shunday qilib, suyuq fazali epitaksiya usuli konstruktiv jihatdan mukammal darajali bo'shliqli qatlamlarni olish imkonini beradi, bu ularni yarim o'tkazgich mikroelektronikada, shuningdek, yarimo'tkazgich qurilmalarini ishlab chiqarish uchun ishlatish imkonini beradi.

Xarakterli nurlanishlar bo'yicha qatlamlarning rasmlari

Ga(Kα)

As(Kα)

Ge(Kα)

Adabiyotlar

1. Жидкостная эпитаксия метастабильных твердых растворов / Саидов А.С., Кошчанов Э.А., Сапаев Б., Ковардакова Г.Н. // ДАН УзССР,1988, №2. - С.26-27.
2. Алферов Ж.И., Жингарев М.З. и др. // ФТП, 1982. - т.16, в.5. - С.831-839.
3. Алферов Ж.И., Вартанян Р.С. и др. // ФТП, 1982. - т.16, в.5. - С.887-890.

O’ZARO HAR XIL NISBATLI DONOR-AKSEPTOR EGA FAOL QATLAMLARNING YUTILISH HAMDA FOTOLYUMINESSENSIYA SPEKTRLARI

[1,2]Saparbaev A.A. [1]Turg’unboyev A.Y. [1]Ro’ziyev F.M. [1]Quvondikov V.O.
[1]O‘zRFA A.U. Arifov nomidagi Ion-Plazma va lazer texnologiyalari instituti
[2]Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti
turgunovabro9606@gmail.com

So’nggi yillarda an’anaviy energiya zaxiralarining kamayishi hamda ularni yoqishda hosil bo’ladigan chiqindi gazlarning ekologiyamizga bo’lgan salbiy ta’siri muqobil energiya manbalariga bo’lgan talabning oshishiga olib kelmoqda. Ayniqsa yorug’lik nuri energiyasidan foydalanib elektr energiya beruvchi qurilmalarga qiziqish ortmoqda. Yorug’lik nuri energiyasini biz quyosh element (quyosh batareyasi bir bo’lagi) lari orqali olamiz. Shuningdek quyosh elementlarining noorganik, organik va organik-noorganik turlari mavjud. Ular ichida organik quyosh element (OQE)lari alohida ahamiyatga ega. Bunda hajmiy geterostrukturaga ega OQE lari arzon narxlarda ishlab chiqarish imkoniyati, yengil vazni, egiluvchanligi va oson ishlab chiqarishning asosiy afzalliklari bilan katta e’tiborni tortdi [1]. Hajmiy geterostrukturaga ega OQE larida faol qatlam har doim konjugatsiyalangan polimerlarni va fulleren hosilasini (masalan, [6,6]-fenil C_{61}-butirik kislota metil esteri ($PC_{61}BM$) yoki [6,6]-fenil C_{71}-butirik kislota metil esteri, ($PC_{71}BM$)) o‘z ichiga oladi [2]. Konjugatsiyalangan polimerlar bu organik makromolekulalar bo‘lib, ular o‘zgaruvchan ikki yoki bitta bog‘larning tarmoqlangan magistral zanjiri bilan tavsiflanadi. Ularning bir-biriga o‘xshash p- orbitallari delokalizatsiyalangan p -elektronlar tizimini yaratadi, bu esa samarali optik va fotovoltaik xususiyatlarni keltirib chiqarishga imkon beradi. Yangi konjugatsiyalangan polimerlarga asoslangan OQElarni yasash nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli strategiya donor-akseptor (D-A) aralashmasini qo‘llashdir. D-A aralashmali konjugatsiyalangan polimerlar katta afzalliklarga ega, masalan: 1) quyosh fotonlarini ko‘proq yig‘ish uchun yuqori yutilish koeffitsienti bilan birga keng yutilish spektriga ega; 2) optimal va osongina sozlanishi mumkin bo‘lgan molekulyar energiya sathga egaligi, natijada akseptorlarga mos keladigan ko‘proq donor polimerlarni olishni ta’minlaydi; 3) va eng asosiysi zaryadni ajratish va tashishni osonlashtiradigan yaxshilangan zaryad harakatchanligiga ega [3].

Hozirgi kunda OQElari sohasida energiya o’zgartirish samarasi (EO’S) bo‘yicha 19,2 % li natijaga erishildi [4].

Bu ishda OQE larining faol qatlami D-A materiallarini o’zaro turli xil nisbatda bo’lganda uning optik parametrlariga ta’siri o’rganildi. Buning uchun P_3HT (poli-3 geksiltiofen) va PCBM ([6,6]-fenil C_{61}-butirik kislota metil esteri) asosli D-A materiallaridan foydalanildi. Faol qatlamlarni yasash texnologiyasi quyidagicha ketma-ketlik bilan bajariladi. Dastlab qatlam qarshiligi 15 Om/sm^2 bo‘lgan ITO (indiy qalay oksidi) qoplangan shisha tagliklar ultratovush vannada ultra toza suv, aseton va izopropil spirti bilan tozalanadi. Tozalangan ITO ning ustiga PEDOT:PSS(poli(3,4-etilendioksitiofen) polistirol sulfonat) polimer moddasining xlorobenzoldagi eritmasi “spin coating” usulida (4000 ayl/daq., 20 sek.) qoplandi. Keyin 20 daqiqa davomida 160 °C haroratli pechkada quritildi. P_3HT va PCBM D-A materiallari massa ulushi bo’yicha o’zaro turli nisbat (1:0.6, 1:0.8, 1:1) larda olinib xlorobenzolda eritildi. Eritma bir necha soat davomida xona haroratida aralashtirildi va PEDOT:PSS qatlam ustiga “spin coating” usuli (3000 ayl/daq., 20 sek.) bilan qoplanadi. Bunda faol qatlam tarkibidagi P_3HT va PCBM D-A materillari massa ulushi

bo’yicha 1:0.6, 1:0.8, va 1:1 nisbatda olindi. Hosil bo’lgan faol qatlamlarning yutilish spektri UV-1280 spektrofotometri yordamida o’lchandi. Olingan natijalar 1-rasmda ko’rsatilgan.

1-rasmda o’zaro turli-xil nisbatda olingan P_3HT:PCBM faol qatlamlarining yutilish spektrining to’lqin uzunligigga bog’liqligi ko’rsatilgan. Grafikdan ko’rinib turibdiki konjugatsiyalangan P_3HT:PCBM asosli faol qatlamlarning maksimal yorug’likni yutilish spektri 512 nm to’lqin uzunligiga mos ekan. Va yana yutilish spektrlaridan shu ma’lum bo’ldiki PCBM ning massa ulushi ortishi bilan faol qatlamning yutilish spektri intensivligi ham oshishi kuzatildi. Bundan tashqari faol qatlamning fotolyuminessensiya spektri ham olindi.



1-rasm. Massa ulushi bo’yicha turli-xil nisbatlarda olingan P_3HT:PCBM asosli faol qatlamlarining yutilish spektrlari.

2-rasmda o’zaro turli-xil nisbatda olingan P_3HT:PCBM faol qatlamlarining fotolyuminessensiya spektri ko’rsatilgan.



2-rasm. Massa ulushi bo’yicha turli-xil nisbatlarda olingan P_3HT:PCBM asosli faol qatlamlarining fotolyuminessensiya spektrlari.

Fotolyuminessensiya spektri eksitonlar dissotsiatsiyasining samaradorligini nazorat qilish uchun olinadi. Chunki faol qatlamning fotolyuminessensiya intensivligi qancha kam bo’lsa faol qatlamga tushayotgan yorug’lik energiyasi asosan zaryadlarni hosil bo’lishiga sarf bo’ladi [5]. Bu yerda P_3HT:PCBM ning turli nisbatlarda olingan faol qatlamalari fotolyuminessensiya spektri 550 nm - 900 nm to’lqin uzunligi diapazonida olingan. Grafikdan ko’rinib turibdiki PCBM ning ulushi oshishi bilan faol qatlamning fotolyuminessensiya intensivligi kamayar ekan. Demak yorug’lik energiyasi ta’sirida fotoinduksiyalangan elektronlarning P_3HT dan PCBM ga o’tishi PCBM miqdorining oshishi natijasida sezilarli darajada oshar ekan.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo’lsak P_3HT:PCBM asosli OQE larida D-A nisbatining ulushini biroz o’zgartirsak faol qatlamning yutilish spektri biroz o’zgarib, fotolyuminessensiya spektrlari intensivligi esa keskin o’zgarishi mumkin ekan. Shuningdek 1:0.6, 1:0.8 hamda 1:1 nisbatdagi P_3HT:PCBM asosli faol qatlamlari o’rganildi. Va ular ichida eng optimali 1:1 nisbatda bolgan P_3HT:PCBM asosli faol qatlam ekan. Ya’ni 1:1 nisbatda bo’lgan P_3HT:PCBM asosli faol qatlami samarali OQE lariga xos maksimal yutilish spektri hamda past intensivlik fotolyuminessensiya spektriga ega.

Adabiyotlar

1. Yao H., Hou J. Recent Advances in Single-Junction Organic Solar Cells //Angewandte Chemie. – 2022. – T. 134. – №. 37. – C. e202209021.

2. Pivrikas, Almantas, Niyazi Serdar Sariciftci, Gytis Juška, and Ronald Österbacka. "A review of charge transport and recombination in polymer/fullerene organic solar cells."Progress in Photovoltaics: Research and Applications 15, no. 8 (2007): 677-696.

3. Foertig, Alexander, Juliane Kniepert, Markus Gluecker, Thomas Brenner, Vladimir Dyakonov, Dieter Neher, and Carsten Deibel. "Nongeminate and geminate recombination in PTB7:PCBM solar cells."Advanced Functional Materials 24, no. 9 (2014): 1306-1311.

4. Gao Jinhua, Na Yu, Zhihao Chen, Yanan Wei, Congqi Li, Tianhua Liu, Xiaobin Gu et al. "Over 19.2% Efficiency of Organic Solar Cells Enabled by Precisely Tuning the Charge Transfer State Via Donor Alloy Strategy."Advanced Science 9, no. 30 (2022): 2203606.

5. Y.F. Li, “Over 10% efficiencies achieved for the PSCs with thick active layer based on D-A copolymer donors and various fullerene acceptors” Sci China Chem. 58(2), 188 (2015).

$CsPbI_2Br$ FAOL QATLAMGA EGA SAMARALI PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARNI PAST HARORATLARDA YASASH

A.X.Tursunova[1], A.A.Saparbayev[1,2]
[1]Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti
[2]U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va lazer texnologiyalari institute

Noorganik $CsPbI_2Br$ perovskitlar yuqori termal barqarorlikka egaligi va faza barqarorligi bilan optoelektronik tadqiqot uchun istiqbolli hisoblanadi. Biroq, $CsPbI_2Br$ ning kerakli fotovoltaik faol perovskit fazasini olish uchun >250 ^oC yuqori haroratli qizdirish talab qilinadi, biroq bu moslashuvchan polimer taglik asosida tadqiq qilish va yasashni qiyinlashtiradi. Bu ishda, yuqori samarali to'liq noorganik $CsPbI_2Br$ perovskit quyosh elementi (PQE) ni bir bosqichli 100-130 ^oC past haroratli qizdirish jarayoni orqali oson yasalish usulida oson yotqizilgan $CsPbI_2Br$ faol qatlamlari olindi.

Yuqori tuzilish energiyasi yoki kristallanish energiya $CsPbX_3$ perovskitlarning termal barqarorligini oshirishga yordam beradi, ammo ishlab chiqarishda qiyinchilik tug’diradi. $CsPbX_3$ perovskitlar past harotratlarda PQE uchun mos bo'lmagan sariq yoki boshqacha nomi ortorombik faza tuzilishga ega bo’ladi. Yuqori haroratli qizdirishdan so’ng, bu sariq fazalar qora rangli kubik perovskit fazasini hosil qilishi mumkin. Umuman olganda, sariqdan qora rangli fazaga o'zgarishi 300 ^oC dan yuqori haroratlarda sodir bo'ladi[1]. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda bir bosqichli usulda tayyorlangan $CsPbI_{3-x}Br_x$ kristalining tuzilishi sof fazali $CsPbI_2Br$ perovskitni faqat 260 ^oC dan yuqori haroratda qizdirish orqali olish mumkinligi aniqlandi[2]. Xuddi shunday, butunlay noorganik perovskitni ishlab chiqarishning 2 bosqichli usuli orqali plyonkani 250 ^oC da 10 daqiqa qizdirilganda va keyin 350 ^oC da qo'shimcha 3 daqiqa qizdirilganda, sof fazali butunlay organik perovskitni olish mumkin. Bundan tashqari, gaz bilan ishlaydigan va to'liq vakuumli to'liq noorganik $CsPbI_2Br$ perovskitga ham >320^oC yuqori qizdirish jarayoni kerak[3]. Bu ma’lumotlarning barchasida yuqori samarali butunlay noorganik $CsPbX_3$ perovskit ishlab chiqarish uchun 260 ^oC gacha yoki undan ham yuqori haroratni zarurligi aytilgan. Biroq, bunday yuqori qizdirish harorat butunlay noorganiklar perovskitlarni ishlab chiqarishga ta'sir qiladi va ularning qo'llanilishini cheklab, ko'plab qurilma arxitekturalari va substratlarini haroratga sezgir polimer taglikka ega PQElarni ikkilamchi yaroqsiz holga keltiradi[4]. Ushbu ishda, samarali va barqaror quyosh batareyasi materiallari sifatida ta'kidlangan yuqori samarali noorganik $CsPbI_2Br$ perovskitni yasash uchun qulay past haroratli bir bosqichli usul ishlatilgan.

$CsPbI_2Br$ perovskit odatda $2CsI+PbI_2+PbBr_2$ ning prekursor eritmasiga qarshi-erituvchi usuli orqali tayyorlanadi, chunki uni 100 ^oC da qizdirish orqali kristallanishi qiyin. 1-rasmda $CsPbI_2Br$ faol qatlamlarni qarshi-erituvchi usuli orqali $CsI+PbI_2+PbBr_2$ prekursorlaridan foydalangan holda 10 daqiqa davomida 100 ^oC qizdirish yo’li bilan yasalgan faolm qatlamning yuytilish spektri ko’rsatilgan. Olingan bu $CsPbI_2Br$ faol qatlam sariq och jigarrang va sariq faza xususiyatlarini ko'rsatadi. Yutilish spektri intensivliklaridan ko’rish mumkinki, intensivlik piki 400 nm atrofida bo’lib, qo’lgan 400 nmdan katta to’lqin uzunliklar sohasida yutilish koeffisenti dayerli nolga teng.a Bu natija faol perovskit $CsPbI_2Br$ fazasini kristallanishi 100 ^oC dan past haroratda $CsI+PbI_2+PbBr_2$ prekrsorlarini an'anaviy anti-erituvchi usulida qizdirganda fotovoltaik natijalarga erishish qiyin ekanligini ko'rsatadi. Bu ishda biz PbI_2 o'rnini bosish va $CsI+HPbI_{3+x}+PbBr_2$ ning yangi prekursorini hosil qilish uchun $HPbI_3$ sintezlangan I-ortiqcha prekursorlaridan foydalanamiz. Ushbu prekursordan foydalanib, oddiy bir bosqichli spin qoplama jarayoni yordamida tekis va ixcham faol qatlamni olishimiz mumkin. Eng muhimi, to'q jigarrang faol qatlam 1-rasmda ko'rsatilganidek 100 ^oC qizdirish usuli natijasida olingan. 1-rasmda past haroratda qizdirilgan butunlay

noorganik $CsPbI_2Br$ faol qatlamning yutilish spektrlari an'anaviy usulda tayyorlangan plyonka bilan solishtirilsak, shubhasiz, $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ prekursoridan foydalangan holda tayyorlangan past haroratli $CsPbI_2Br$ faol qatlamning yutilish chegarasi taxminan 679nm ni tashkil qiladi, bu esa $CsPbI_2Br$ uchun avvalgi natijhalarda aniqgan yutilish qiymatiga teng[5]. Odatiy usulda anti-eritma usuli tayyorlangan $CsPbI_2Br$ faol qatlam yutilish chegarasi 450 nm ni ko'rsatayotganligini berilgan grafikdan ko’rishimiz mumkin. Hulosa o’rnida aytish mumkinki, PQElarning past haroratlarda va ososn usullarda tayyorlashga erishish uchun uchun perovskit materiallarni tanlovi hgam muhim ahamaiyatga ega ekan. Bu tanlovni tog’ri tanlagan holda samarali va barqaror PQE yasash uchun qulay past haroratli bir bosqichli usul ishlatildi. Bu past haroratli qizdirish natijasida olingan $CsPbI_2Br$ faol qatlamga asoslangan PQElarning energiya o’zgartirish samaradorligi 10,56% samaradorlikni ko’rsatdi.



1-rasm. $CsI+PbI_2+PbBr_2$ eritmasidan foydalangan holda faol qatlam yuzasini antieritma bilan yuvish usulida ishlab chiqarilgan $CsPbI_2Br$ ning va $CsI+HPbI_3+PbBr_2$ eritmasidan foydalangan holda lda oson bir bosqichli spinli qoplama usuli va 100^oC da qizdirilgan α-$CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamarlning yutilish spektrlari

Adabiyotlar

1. Y. Zhao, K. Zhu, *Chem. Soc. Rev*. 2016, *47*, 655.
2. G. Xing, N. Mathews, S. Sun, S. S. Lim, Y. M. Lam, M. Grätzel, S. Mhaisalkar, T. C. Sum, *Science* 2013, *342*, 344.
3. M. Liu, M. B. Johnston, H. J. Snaith, *Nature* 2013, *501*, 395.
4. H. Chen, F. Ye, W. Tang, J. He, M. Yin, Y. Wang, F. Xie, E. Bi, X. Yang, M. Grätzel, *Nature* 2017, *550*, 92.
5. W. S. Yang, B. W. Park, E. H. Jung, N. J. Jeon, Y. C. Kim, D. U. Lee, S. S. Shin, J. Seo, E. K. Kim, J. H. Noh, *Science* 2017, *356*, 1376.

EKSPERIMENTAL QURILMALAR VA TADQIQOT USULLARI YORDAMIDA POLARIZATSIYALANGAN FOTOLUMINESANSNI O'LCHASH.

B.X.Qo’chqarov, A.I.Xolmatov, M.A.Ergashev
Namangan muxandislik-texnologiya instituti.

Asosiy tadqiqot usullaridan biri kvant nuqtalarining qo'zg'alish chizig'iga (kvazirezonans qo'zg'alish) to'g'ridan-to'g'ri qo'zg'atilganda qutblangan fotoluminesansning (PL) spektrlari va kinetikasini o'rganish edi. O'rnatishning blok diagrammasi rasmda ko'rsatilgan. Luminescence 82 MGts impulsning takrorlanish tezligi bilan Ti: safir lazeridan sozlanishi mumkin bo'lgan nurlanish bilan hayajonlandi. 690-720 nm lazerni sozlash diapazoni qat'iy rezonansli va kvazrezonansli qo'zg'alishni boshqariladigan energiyani sozlash bilan ta'minladi (masalan, LO fonon energiyasi bilan odatiy detuning ~ 45 meV). Impulsning davomiyligi temporal va spektral ruxsatning optimal kombinatsiyasini ta'minlash uchun tanlangan. O'rnatishning boshqa elementlari < 5 ps vaqt o'lchamlarini olishga imkon bermadi; boshqa tomondan, spektrlardagi ba'zi xususiyatlar (LO rezonansi) bir necha meV tartibida yarim kenglikka ega edi; shuning uchun lazer puls spektral jihatdan ancha tor bo'lib, yarim kengligi 1 meV dan oshmaydigan va spektral barqaror davomiyligi taxminan 5 ps bo'lgan holda tanlangan. Yuqori takrorlash tezligi signalni tezda to'plash imkonini berdi, bu esa sozlashning sezgirligini oshirdi.

Haqiqiy vaqtda lyuminesansni qayd qilish uchun maksimal vaqt o'lchamlari ~2 ps bo'lgan Hamamatsu matritsali chiziqli kamera ishlatilgan. Ushbu kameraga mikrokanal plitasi ko'rinishida o'rnatilgan yorqinlik kuchaytirgichi alohida fotonlarni ro'yxatga olish imkonini berdi. Chiziqli kamerani tozalash lazer impulslari bilan bosqichma-bosqich bloklangan edi, bu o'lchovlarning yuqori vaqtinchalik barqarorligini ta'minladi.



1-rasm. Lyuminesansni o'lchash uchun eksperimental o'rnatish.

Kichik Stokes siljishi bilan PL kinetikasini qayd etishda jiddiy eksperimental muammo faqat spektral asbob yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tarqoq lazer nurlanishi fonida luminesansni izolyatsiya qilish edi. Shu bilan birga, an'anaviy monoxromatorda qurilmaning diafragma ichidagi nurlar yo'lidagi farq bir necha millimetrni tashkil qiladi, bu 10 ps va undan ortiq vaqt oralig'iga to'g'ri keladi. Shuning uchun, yakuniy vaqtinchalik ruxsatni olish uchun dispersiyani olib tashlash bilan maxsus qo'sh monoxromator ishlatilgan. Bunday monoxromatorda optik yo'l uzunliklarining tarqalishi avtomatik ravishda kompensatsiya qilinadi va radiatsiya pulsi o'z vaqtida tarqalmaydi. Bunga birinchi monoxromatorda yorug'lik spektrga parchalanishi, natijada turli yo'llarning uzunliklari har xil bo'lishi, ikkinchi monoxromatorda spektr yana bir nuqtada to'planishi, bu esa to'liq kompensatsiyaga olib kelishi bilan erishiladi. birinchi monoxromatorda olingan nurlar yo'lidagi farq. Bunday monoxromatorning uzatish spektrining kengligi oraliq tirqishning

kengligi bilan belgilanadi. Chiziqli dispersiyasi 2 nm/mm bo‘lgan monoxromator ishlatilgan bo‘lib, u ~ 0,5 mm tirqish kengligi bilan ~1 nm yoki o‘rganilayotgan spektr mintaqasida 2,5 meV spektral ruxsat bergan.

Tashqi magnit maydonda tadqiqot o'tkazish uchun biz magnit maydonning 10 T gacha o'zgarishini ta'minlaydigan o'ta o'tkazuvchan magnitli Oksford magnit kriostatidan foydalandik. Solenoidning dizayni magnit maydon bo'ylab ham, ko'ndalang yo'nalishda ham luminesansni kuzatish imkonini berdi. Ushbu kriostatga o'rnatilgan antikriostat magnit maydonda luminesansning haroratni o'lchash imkonini berdi. Asosiy o'lchovlar T=5K da amalga oshirildi. Bundan tashqari, polarizatsiyalangan PLni o'lchash uchun sozlashda ko'plab polarizatsiya elementlari ishlatilgan. Chiziqli qutblangan nurlanishni yaratish uchun Glan-Tompson prizmalaridan, qutblanish tekisligini berilgan spektral hududga aylantirish uchun esa yarim to‘lqinli plitalardan foydalanilgan. Yorug'likning dumaloq polarizatsiyasini yaratish uchun Glan-Tompson prizmalari bilan birgalikda chorak to'lqinli plitalar ishlatilgan. Statsionar luminesans spektrlarini o'rganish uchun biz CCD kamerasi yordamida radiatsiya ro'yxatiga ega uch monoxromatordan foydalandik. Murakkab o'rnatish maxsus dasturiy ta'minotga ega bo'lgan bir nechta kompyuterlar tomonidan boshqarildi.

Adabiyotlar.

1. Vlasov S.I., Saparov F.A., Ismailov K.A. Semiconductor Physics, Quantum Electronics and Optoelectronics. 2010. Vol. 13. No. 4. P.363.
2. B Kuchkarov, O Mamatkarimov, and A Abdulkhayev. «Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor». ICECAE 2020 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:
3. B.X. Qo’chqarov, A. nishonov, X.O.Qochqarov “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries” Scientific bulletin of Namangan State University 1(7), 3-6.
4. S.I.Vlasov, D.N.Nazirov. B.K.Kuchkarov, K.U.Bobokhujayev. “Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure” Uzbekiston Fizika Zhurnali №16/3 str 231-233.
5. B.Kh.Kuchkarov, O.O.Mamatkarimov “Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures” Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. Tom-29. №4 str.125-134.
6. БХ Кучкаров. Влияние ультразвукового воздействия на скорость формирования заряда инверсионного слоя в структурах метал-стекло-полупроводник. Вестник КРАУНЦ. Физико-математические науки. 2019. 29/4. стр.125-134.
7. Kuchkarov, B.H., Mamatkarimov, O.O., Abdukarimov, A.A., Khalmirzayev, A., Mirtojiyeva, D.M. Influence of All-Round Compression on Formation of the Mobile Charge in Lead-Borosilicate Glass Structure. AIP Conference Proceedings, 2022, 2432, 030039
8. Fazliddinov, S., Kuchkarov, B., Sharibaev, N., Abdulkhaev, A., Tulkinov, M.-A. Analysis of modern methods of determination of mechanical status and diagnostic models of power transformers. Journal of Physics: Conference Series, 2022, 2388(1), 012173.
9. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 614(1), 012027.

YARIM O‘TKAZGICHLI QUYOSH ELEMENTLARNING ISTIQBOLLARI

S.E.Karimova
Qarshi davlat universiteti

Quyosh nurining energiyasi, insoniyat foydalanishi mumkin bo‘lgan eng katta manba. Quyosh energiyasining yer yuziga yo‘naltirilgan oqimi $1{,}2\cdot10^{14}$ tonna shartli yoqilg‘iga teng. Boshqa yulduzlar kabi quyosh ham o‘ta qizigan gaz hisoblanadi. Uning tarkibi 82% vodorod, 17% geliy va 1% boshqa unsurlardan tashkil topgan. Quyoshning markazida shunday yuqori bosimli soha mavjudki, u yerda harorat 15-20 mln.°C ni tashkil etadi.

Ma’lumki, koinotda quyosh tizimi mavjud bo‘lganidan beri quyosh energiyasining shu kungacha bor yo‘g‘i 2% sarf bo‘lgan xolos. Faqat undan unumli foydalanish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yillik bayrami arafasida Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektrik stansiyasining ishga tushirilishi hamda Samarqand viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektrik stansiyasining ishga tushganligi albatta mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi .

Quyosh nurlanishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgartirish uchun yarim o‘tkazgichli materiallardan foydalaniladi. Quyosh batareyalari barcha radio elektron apparaturalarda keng qo‘llaniladi. Atrof-muhit ta’siriga barqarorligi uchun ular ochiq koinotda harorat 80 ^{0}C dan -150 ^{0}C gacha bo‘lgan sharoitlarda ishlashi mumkin. Yarim o‘tkazgichli quyosh elementlarining tashqi sirti radiatsiya ta’siridan va issiqlikdan himoyalovchi optik qatlam bilan qoplanadi.

Quyosh elementlari tayyorlanadigan yarim o‘tkazgichli elementlar $10^{-2}.10^{2}$ om/sm solishtirma qarshilikka ega. Yarim utkazgichlar p-turli va n-turli bo‘ladi. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga o‘zgartirish jarayoni fotoelektrik effekt orqali amalga oshiriladi. U yarim o‘tkazgich sirt qatlamlarida 2-3 mkm qalinlikdagi erkin elektronlar ko‘rinishida vujudga keladi. Yarim o‘tkazgich sirtida erkin elektronlarning paydo bo‘lishi va elektr potensiallar farqi yuzaga kelganida unda elektr toki vujudga keladi. Potensiallar farqi yarim o‘tkazgichning nurlanadigan sirti va soya tomoni orasida uning sirt qatlamlariga maxsus qo‘shimchalarni kiritish hisobiga yuzaga keladi. Qo‘shimchalardan biri (n-turli) qo‘shimcha elektronlarni va sirtning manfiy zaryadini hosil qiladi, ikkinchisi esa (p-turli) elektronlarning yetishmasligini, ya’ni musbat zaryadni hosil qiladi. Chegarada elektronlarning diffuziyasi tufayli kontakt potensiallar farqi vujudga keladi. Agar teshikli o‘tishli (p-turli) yarim o‘tkazgich yoritilsa, u holda uning elektronlari yorug‘lik kvantlarini yutib elektron o‘tishli (n-turli) yarim o‘tkazgichga o‘tadi. Bunda yopiq zanjirda elektr toki hosil bo‘ladi.

Ko‘pincha kremniyli quyosh elementlaridan foydalaniladi. Kremniy yerda eng ko‘p tarqalgan elementdir. Elementlar kremniyni eritish va keyin 5-10 sm diametrli sterjen shaklidagi kristalli kremniyni o‘stirish yo‘li bilan olinadi. Bevosita yarim o‘tkazgichlarni olish uchun bu sterjenlar 300 mkm atrofidagi qalinlikdagi yupqa plastinkalarga bo‘linadi. Ular fotoelektrik elementlarning asosiy qismi hisoblanadi.



p–n o‘tishning sxemasi.

Fotoelement yoritilganda 0,5 V qiymatli kuchlanishni hosil qiladi. Chiqish toki esa yorug‘lik intensivliligiga va elementning ishchi sirtiga bog‘liq. Shuningdek tok kuchi yorug‘likning to‘lqin uzunligiga va uning intensivliligiga bog‘liq bo‘lib, yorug‘likning nurlanish intensivliligiga to‘g‘ri proporsionaldir. Yorug‘lik qanchalik yorqin bo‘lsa,

shunchalik katta tok hosil bo‘ladi. Yorug‘lik intensivligi 1 kVt/m^2 li yer sharoitlarida bu elementlarning foydali ish koyeffitsiyenti 22-26 foizga, ishlab chiqarish namunalarida esa 10-14 foizga yetishi mumkin.

Istiqbolli quyosh elementlariga foydali ish koyeffitsiyenti 10 foizdan yuqori bo‘lgan sulfid-kadmiy asosidagi geterostrukturani kiritish mumkin. Yana bir istiqbolli yarim o‘tkazgichli material arsenid galliy hisoblanadi. U nur energiyasini elektr energiyasiga o‘zgartirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, foydali ish koyeffitsiyenti 27 foizgacha yetishi mumkin. Bu quyosh fotoelektrik o‘zgartirgichlarining eng yuqori foydali ish koyeffitsiyentidir. Bundan tashqari 100^0C dan yuqori haroratlarda barqarorlikka ega. Turli materiallardan yasalgan quyosh elementlarining foydali ish koyeffitsiyentlari jadvalda keltirilgan.

Yarim o‘tkazgichlar va ular asosida turli energetik qurilmalar yaratilishining rivojlanishi natijasida yigirmanchi asrning oxiriga kelib quyosh energiyasidan elektr energiya olishga asos solindi. Quyosh nurlarining ta’siri natijasida ba’zi bir yarim o‘tkazgichlarda elektronlar harakatining yuzaga kelishi hodisasi asosida ishlaydigan kichik quvvatli elektr energiya manbalari yaratildi . [1].

Zamonaviy quyosh elementlarining energetik tavsiflari

№	Quyosh elementi	Maksimal FIK	Tajribada olingan FIK
1.	Kremniy (Si)	25	23.2
2.	Arsenid galliy (GaAs)	35	29*
3.	Misning uch komponentli birikmasi (CdS- CuInSi)		
4.	Kadmiy-tellur (Cd - Te)	17	10.5
5.	Amorfli kremniy (L - Si)	-	15.7
6.	Kaskadli element (GaAsQGa Sb)	-	37*

Yarim o‘tkazgichlar va ular asosida turli energetik qurilmalar yaratilishining rivojlanishi natijasida yigirmanchi asrning oxiriga kelib quyosh energiyasidan elektr energiya olishga asos solindi. Quyosh nurlarining ta’siri natijasida ba’zi bir yarim o‘tkazgichlarda elektronlar harakatining yuzaga kelishi hodisasi asosida ishlaydigan kichik quvvatli elektr energiya manbalari yaratildi . [2].

Bunday elektr energiya manbalari fazoni va boshqa galaktika tizimlarini tadqiqot qilishda qo‘llaniladigan sun’iy yo‘ldosh, raketa va boshqa uchuvchi qurilmalarning murakkab asbob va uskunalarini uzoq muddat normal ishlashi uchun asosiy va yagona elektr energiya manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Hozirda avtomobilsozlik sanoati rivojlangan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi davlatlarda elektromobillarni keng ko‘lamda ishlab chiqarish va yangi istiqbolli transport turi sifatida qo‘llash uchun katta sa’yi – harakatlar qilinmoqda. Kelajakda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish strategiyasi va maqsadlarini, shuningdek, rag‘batlantirishning tegishli mexanizmlarini ishlab chiqish O‘zbekistonda iqtisodiyotning yangi tarmog‘i qayta tiklanadigan energiya manbalari umumiy salohiyatining qariyb 99 foizini tashkil etadigan quyosh energetikasini keng ko‘lamda rivojlantirish uchun qulay asos yaratishi mumkin. 2030-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibiga qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 30 foizdan ortadi. Rivojlangan davlatlardagi nufuzli tashkilotlarning asosli xulosalariga ko‘ra, 2100 yilga borib, quyosh energiyasi sayyoramiz uchun energiyaning dominant manbaiga

aylanadi. Mutaxassislarning e’tirof etishicha, quyosh energiyasi — bu foydalanishga qulay va oddiy, amalda istiqbolli bo‘lgan tiklanuvchi energiya manbaidir.

Adabiyotlar

1. «O‘zbekistonda qayta tiklanuvchan energiya resurslarni rivojlantirish istiqbollari». Toshkent. 2007 yil. .
2. Po‘latov A.A. So‘pijonov Q.B, Ikromov A.A, Nazarov A.A, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish davr talabi” Namangan, 2013 yil
3. Majidov T.SH. Noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari.
4. Muxammadiyev M.M., Xidirov A.A., Djurayev K.S. «Noan’anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalari» –Toshkent, 2007

YARIMO’TKAZGICH MATERIALLARNING SINTEZI, TUZILISHI VA ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARI QO’RG’OSHIN SELEN ASOSIDAGI.

O.O.Mamatkarimov[1], B.X.Quchqarov [1], A.B.Nabiyev[2], A.A.Yusufjonov[2]
[1]Namangan muxandislik-texnologiya instituti.
[2]Namangan davlat universiteti fizika fa’kulteti.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida yupqa plyonkali texnologiyalarning turli qurilmalar va qurilmalar yaratish imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Yupqa plyonkalar elektronika sanoatida yarimo'tkazgichli qurilmalar, mikrosxemalar va boshqa nozik plyonkali elementlarni yaratish uchun keng qo'llaniladi. Bugungi kunga qadar yupqa plyonkalar fizikasi ularning hosil bo'lish jarayonlari va xususiyatlarini tushunishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, bu sohada tadqiqotchilarni qiziqtiradigan ko'plab muammolar mavjud. Bularga, masalan, plyonka sintezi masalalari, parametrlarni o'lchash usullari va turli fizik jarayonlarni hisoblash modellari va, albatta, plyonkalardagi ommaviy namunalarda mavjud bo'lmagan yangi fizik hodisalar kiradi. Yupqa plyonkalarning xususiyatlari asosan sintez texnologiyasi, shuningdek, substrat yuzasining materiali va sifati, purkalgan moddaning tarkibi, kimyoviy reagentlar bilan belgilanadi. Shuning uchun plyonkalarni sintez qilish usullarini ishlab chiqish, ularning optik, magnit, elektr va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish, turli sirt hodisalarini o'rganish, o'rganilayotgan xususiyatlar va ishlash ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish muhim ahamiyatga ega.

Keng qo'llaniladigan materiallar orasida qo'rg'oshin selenidlari optik, elektr va boshqa xususiyatlarning xilma-xilligi tufayli eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Xususan, qo'rg'oshin selenidining fotosensitiv xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi [1-3], bu fotosensitiv plyonkalar va ular asosida ishlab chiqarish qurilmalarini olish uchun texnologik jarayonlarni takomillashtirish zarur. Ushbu ishda qattiq fazali sintez-qo'rg'oshin va selenning termorezist bug'lanishi, so'ngra azotli atmosferada tablanish yo'li bilan olingan qo'rg'oshin selenidiga asoslangan yupqa plyonkalarning tuzilishini, optik va elektr xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. *PbSe* plyonkalarini amaliy qo'llashda muammo oksidlanish bilan bog'liq xususiyatlarning beqarorligi bo'lib, vaqt o'tishi bilan to'liq yo'q qilinishiga olib keladi.

1. Yarimo'tkazgich elementlarini yaratish uchun mos bo'lgan yupqa *PbSe* plyonkalarini hosil qilish uchun past haroratli texnologiyani ishlab chiqish.

2. Olingan *PbSe* plyonkalarining elektrofizik xususiyatlari va tarkibini o'rganish va ularning strukturaviy holatini batafsil o’rganish.

Qattiq fazali sintez yo'li bilan olingan *PbSe* plyonkalarining xususiyatlarini har tomonlama o'rganish asosida yarimo'tkazgich metall fazaga o'tishning paydo bo'lishi va elektr almashinuvining ta'siri aniqlandi. *N*-shaklidagi oqim kuchlanish xarakteristikasi bilan almashtirish effekti *PbSe* plyonkasida yarimo'tkazgich metall fazaga o'tish bilan bog'liqligi aniqlandi. Qattiq fazali sintez natijasida olingan qo'rg'oshin selenid plyonkalarining sirt tuzilishini atom kuch mikroskopi bilan o'rganish atmosfera kislorodi bilan o'zaro ta'sirga olib keladigan chuqur bo'shliqlarni o'z ichiga olgan sirt strukturasining bir hilligini aniqladi. Ushbu plyonkalarni chiziqli zanjirli uglerod bilan qoplash orqali namunalarning vaqtinchalik barqarorligini ko'p marta oshirish mumkinligi aniqlandi. 300 K va 370 K haroratlarda *PbSe* plyonkalarining aks ettirish spektrlari va Raman spektrlarini tahlil qilishda spektral xususiyatlarning o'zgarishi aniqlandi: aks ettirish spektrining ortishi, intensivlikning o'zgarishi va tebranishning siljishi.

Qo'rg'oshin selenidining eng xarakterli xususiyatlari haqida ma'lumot va olishning asosiy usullari, chiziqli zanjirli uglerod plyonkalarining tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish natijalari, yarimo'tkazgichning fazaviy o'tish modellari - metall va elektr o'tkazgichning ta'siri,

shuningdek, $\mathbf{A^{IV}B^{VI}}$ tipidagi yarimo'tkazgichlarda boshqa tabiatning fazali o'tish imkoniyati ko'rib chiqiladi. *PbSe+PbSeO₃* kompozitsiyasining ikki fazali kompozitsiyasi namunalariga alohida e'tibor qaratiladi, unda T_p=360 K atrofidagi haroratlarda o'tkazuvchanlikning anomal o'zgarishi aniqlangan. metall-izolyator o'tish xususiyatlariga yaqin bo'lgan harorat T_p. Fazaga o'tish haroratida ishlaydigan termistorlarni ishlab chiqish uchun elektron beqarorlik imkoniyati tasvirlangan.

O'rganilayotgan namunalarning optik o'lchovlarini o'tkazish uchun plyonkalar kvarts shisha tagliklariga yotqizilgan. Yarimo’tkazgich elektrofizik xususiyatlarini o'rganish uchun ular oldindan yotqizilgan alyuminiy elektrodlari bilan shisha substratlarda sintez qilindi. Ikkinchi alyuminiy elektrod namunalar ustiga yotqizilgan. Plyonkalarning tarkibi va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish uchun turli xil aniqlik shkalalariga mos keladigan rentgen nurlari difraksiyasi (difraktometriya), rentgen fotoelektron spektroskopiyasi (XPS), Auger elektron spektroskopiyasi (AES) usullari qo'llanildi. Namunalarning rentgen fazali tahlili (XPA) qo'rg'oshin selenid *PbSe* kristallariga xos bo'lgan *NaCl (B1)* tipidagi kubik strukturani va qo'rg'oshin selenit *PbSeO₃* fazasi bilan bog'liq monoklinik tuzilmani aniqladi (1-rasm). Ikkala namunada ham qo'rg'oshin selenid fazasi ustun ekanligi ko'rsatilgan. Mavjud bo'lgan fazalarning kontsentratsiyasi hisoblab chiqilgan.



1-rasm. PbSe (a) va Al-PbSe (b) plyonkalarining diffraktsiya naqshlari.

XPS tahlili PbSe plyonkalarining sirt qatlamlarida quyidagi elementlarning mavjudligini aniqladi: *Pb, Se, O, C* va *Na*. Atom tarkibini hisoblashda spektrda ko'rinishi asosan sirt ifloslanishiga bog'liq bo'lgan uglerod mavjudligi hisobga olinmagan. Namuna sirtidagi elementlarning qirqishdan oldin tarkibi turli nuqtalarda bir necha foiz ichida o'zgarib turadi: qo'rg'oshin *(Pb) - 21-27%*, kislorod (*O*) - 45-55%, selen (*Se*) - 15-16%. Barcha namunalarda natriy mavjud bo'lib, uning ko'rinishi substrat bilan bog'liq bo'lishi mumkin [4]. O'rganilayotgan plyonkalarda kislorodning mavjudligi, birinchi navbatda, ularning sintezi va issiqlik bilan ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi, ularning mexanizmi kislorod o'z ichiga olgan fazalarni materialning hajm va sirt qatlamlariga kiritish imkonini beradi. Bir soat davomida ion bilan ishlov berishda elementar tarkibni tahlil qilish (2-rasm) kompozitsiyaning nisbiy barqarorlashuvini ko'rsatadi, bu kislorod miqdorining monotonik pasayishi va qo'rg'oshin tarkibining o'sishning 4-daqiqasidan boshlab ko'payishi ko’rsatilgan, bu davom etadi (30 daqiqagacha). Keyin etapda selen miqdori asta-sekin kamayib, statistik ahamiyatga ega bo'lmagan qiymatlarga kamayishni boshlaydi. Qatlamma-qavat ionli qirqish natijalariga ko'ra, namuna sintezi paytida *PbSe* fazasining qalinligi 250-300 nm ekanligi aniqlandi.



2-rasm. XPS ma'lumotlari bo'yicha Se, O, Pb elementlarning PbSe plyonkasi chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi. tezligi ~6 nm/min.

PbSe plyonkasining sirt qatlamidagi elementlarning kimyoviy holati *Pb*, *Se* va *O* atomlarining ichki elektron sathlarining XPS spektrlaridagi chiziqlar holatidan aniqlandi. Pb_4f va Se_3d ning rezolyutsiya spektrlari namunalardagi *Pb* va *Se* faqat bog'langan holatda ekanligini ko'rsatdi: qo'rg'oshinning selenid (*PbSe*) va selenit ($PbSeO_3$) ulanishi, bu tablanish paytida selen va qo'rg'oshin o'rtasidagi to'liq reaktsiyani ko'rsatadi.



3-rasm. AES ma'lumotlariga ko'ra PbSe plyonkasining Se, O, Pb (b) elementlarining elektron mikroskopik tasviri (a) chuqurlik taqsimoti.

Tashqi ta’sirdagi elektron spektroskopiyasi (AES) sirtning turli nuqtalarida PbSe plyonkalarining mahalliy elementar tahlilini o'tkazish uchun ishlatilgan. Elektron mikroskopik tasvir (3-rasm, a) elementar tarkibi o'rganilgan nuqtalarni ko'rsatadi. Plenka o'zaro o'sgan mikrokristalli shakllanishlardan iborat bo'lib, ularning zarralari hajmi 0,2÷0,25 mkm. Tarkibi namunaning turli sohalarida olti nuqtada tahlil qilindi. AES usulida 20 minut davomida qatlamma-qatlam ionli o'ymak (3b-rasm) alohida donalarda selen miqdori yuqoriroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shunday qilib, plyonkaning alohida nuqtalarida elementlarning (*Pb*, *Se* va *O*) kontsentratsiyasining foiz nisbati farq qilishi mumkin, bu qo'rg'oshin, selen va ularning oksidlarining rentgen amorf fazalari mavjudligini ko'rsatadi.

Pb, Se plyonkalarini qavatma-qavat cho'ktirish va keyinchalik azotli atmosferada tablash usuli yordamida qattiq fazali sintez yo'li bilan qo'rg'oshin selenid plyonkalarini olish usulining yangi modifikatsiyasi ishlab chiqildi. *PbSe* ning polikristal qatlamlarining strukturaviy, fazaviy, kimyoviy tahlillari o'tkazildi. X-nurlarining difraksion tahlili va IQ aks ettirish spektrlari shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan namunalar asosan ikkita *RbSe* va $PbSeO_3$ fazalarini o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan namunalarning PbSe kristal fazasi n-tipli o'tkazuvchanlikka tegishli ekanligi aniqlandi. Aniqroq XPS va AOS usullari plyonka

chuqurligi bo'yicha elementlar kontsentratsiyasining taqsimlanishining bir xil emasligini ko'rsatadi, bu nuqsonlarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rg'oshin selenid plyonkalarining sirt morfologiyasi atom kuch mikroskopi yordamida o'rganildi. Atmosfera kislorodi bilan faol o'zaro ta'sirga olib keladigan chuqur bo'shliqlarni o'z ichiga olgan bir hil bo'lmagan sirt tuzilishi aniqlanadi.

Adabiyotlar.

1. Vlasov S.I., Saparov F.A., Ismailov K.A. Semiconductor Physics, Quantum Electronics and Optoelectronics. 2010. Vol. 13. No. 4. P.363.
2. B Kuchkarov, O Mamatkarimov, and A Abdulkhayev. «Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor». ICECAE 2020 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:
3. B.X. Qo’chqarov, A. nishonov, X.O.Qochqarov “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries” Scientific bulletin of Namangan State University 1(7), 3-6.
4. S.I.Vlasov, D.N.Nazirov. B.K.Kuchkarov, K.U.Bobokhujayev. “Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure” Uzbekiston Fizika Zhurnali №16/3 str 231-233.
5. B.Kh.Kuchkarov, O.O.Mamatkarimov “Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures” Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. Tom-29. №4 str.125-134.
6. БХ Кучкаров. Влияние ультразвукового воздействия на скорость формирования заряда инверсионного слоя в структурах метал-стекло-полупроводник. Вестник КРАУНЦ. Физико-математические науки. 2019. 29/4. стр.125-134.
7. Kuchkarov, B.H., Mamatkarimov, O.O., Abdukarimov, A.A., Khalmirzayev, A., Mirtojiyeva, D.M. Influence of All-Round Compression on Formation of the Mobile Charge in Lead-Borosilicate Glass Structure. AIP Conference Proceedings, 2022, 2432, 030039
8. Fazliddinov, S., Kuchkarov, B., Sharibaev, N., Abdulkhaev, A., Tulkinov, M.-A. Analysis of modern methods of determination of mechanical status and diagnostic models of power transformers. Journal of Physics: Conference Series, 2022, 2388(1), 012173.
9. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 614(1), 012027.

QUYOSH QURILMALARIDA QUYOSH ENERGIYASI HISOBIGA YUZ BERAYOTGAN FIZIK PROTSESSLARNI NAZARIY O‘RGANISH.

M.B.Nabiyev , B.Akramov
Farg’ona Davlat universiteti

Issiqlik almashinuvining boshqa turlari kabi issiqlik o‘tkazish protsessi ham jismning turli nuqtalarida temperatura bir xil bo‘lmagandagina amalga oshadi. Ma’lumki temperatura jismning holat parametri bo‘lib, uning isiganlik darajasini xarakterlaydi. Vaqtning ayni momentida ko‘rib chiqilayotgan fazoning barcha nuqtalaridagi temperatura qiymatlarining yig‘indisi temperatura maydoni deyiladi. Temperatura maydoni matematikaviy jihatdan koordinata funksiyasi bilan ifodalanadi.

$$t = f(x, y, z)$$

Temperatura maydoni uchta, ikkita va bitta koordinataning funksiyasi bo‘lishi mumkin. Agar temperatura uch yo‘nalishda o‘zgarsa, u holda maydon uch o‘lchamli deyiladi.

Ikki o‘lchamli va bir o‘lchamli maydonlarning tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$t = f(x, y); \qquad \frac{dt}{dz} = 0, \qquad (1)$$

$$t = f(x); \qquad \frac{dt}{dy} = \frac{dt}{dz} = 0. \qquad (2)$$

Hamma nuqtalarida temperatura bir hil bo‘ladigan sirt izotermik sirt deyiladi. Fazoning ayni nuqtasining o‘zida bir vaqtda ikki hil temperatura bo‘lishi mumkin emasligi uchun turli izotermik sirtlar hech vaqt bir-biri bilan kesishmaydi. Ularning barchasi jism sirtida tugaydi yoki butunlay uning ichida joylashadi.

Agar bir qator izotermik sirtlar tekislik bilan kesilsa, unda izotermalar oilasi olinadi. Ular ham izotermik sirtlar kabi bir-biri bilan kesishmaydi, jismning ichida uzilib qolmaydi, balki jism sirtida tugaydi yoki uning ichida joylashadi. Jismning temperaturasi izotermiik sirtlarnikesib o‘tadigan yo‘nalishdagina o‘zgaradi (rasm –1). Temperatura gradiyenti haqidagi tushinchaga doir.



1-rasm. Izotermalar.

Rasmdan ko‘rinadiki uzunlik birligida temperatura- ning eng katta o‘zgarishi izotermik sirtga normal n yo‘nalishida bo‘ladi.

Temperatura o‘zgarishi Δt izotermadagi normal bo‘yicha masofa Δn ga nisbati temperatura gradiyenti deyiladi:

$$\lim\left(\frac{\Delta t}{\Delta n}\right)_{\Delta n\to 0} = \frac{dt}{dn} = gradt \qquad (3)$$

Temperatura gradiyenti –izotermik sirtga tushirilgan normal bo‘yicha yo‘nalgan vektordir. Uning temperaturasining ko‘tarilishi tomoniga yo‘nalishi musbat yo‘nalish hisoblanadi.

Ixtiyoriy sirtdan vaqt biriligi ichida o‘tadigan issiqlik mikdori Q issiqlik oqimi deyiladi. Issiqlik oqimining vektori doimo temperaturaning pasayish tomoniga yo‘nalgan bo‘ladi.

Issiqlik almashinuv intensivligi miqdoriy jihatdan issiqlik oqimining vektori doimo temperaturaning pasayish tomoniga yo‘nalgan bo‘ladi.

Issiqlik almashinuv intensivligi miqdoriy jihatdan issiqlik oqimining zichligi q bilan harakterlanadi.

Sirt birligi F dan vaqt birligi τ da o‘tadigan issiqlik miqdori issiqlik oqimining zichligi yoki solishtirma issiqlik oqimi deyiladi:

$$q = \frac{dQ}{Fd\tau} \qquad (4)$$

Issiqlik miqdori doimo kuprok qizdirilgan zarrachalardan kamroq qizdirilgan zarrachalarga uzatilishi sababli issiqlik oqimi zichligi q ning vektori doimo temperaturaning pasayishi tomoniga yo‘nalgan bo‘ladi.

Fransuz olimi Fure qattiq jismlardagi issiqlik o‘tkazuvchanlik protsesslarini o‘rganib, issiqlik oqimining zichligi temperatura gradiyentiga proporsional ekanligini aniqladi:

$$q = -\lambda \frac{dt}{dn} = -\lambda gradt. \qquad (5)$$

(5) nisbat issiqlik o‘tkazuvchanlikning asosiy qonunini ifodalaydi va Fure qonuni deyiladi.

(5) nisbatning o‘ng qismidagi minus ishora issiqlik oqimi bilan temperatura gradiyentining vektorlari qarama – qarshi tomonga yo‘nalganligini bildiradi.

(5) ifodadagi proporsionallik koeffitsiyenti l moddaning fizikaviy parametri bo‘lib, issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti deyiladi. U moddaning qay darajada issiqlik o‘tkazishini ko‘rsatadi.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentining o‘lchamliligi (5) ifodadan aniqlanadi:

$$[\lambda] = \left[q\frac{dn}{dt}\right] = \left[\frac{вт \cdot м}{м^2 \cdot град}\right] = \left[\frac{вт}{м \cdot град}\right].$$

Demak, issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentining qiymati son jihatdan temperatura farqi 1^0C bo‘lganda devorning birlik qatlamidan o‘tadigan solishtirma issiqlik oqimiga teng. λ qanchalik katta bo‘lsa, modda issiqlikni shunchalik yaxshi o‘tkazuvchan bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Исматуллаев П.Р, Кадырова Ш.А., Газиев Г.А. Электро-радиоизмерения , Учебная пособие. ТГТУ, 2007. 13,75 п.л.

2. П.Р. Исматуллаев ва бошқ. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик, Тошкент. ТДТУ., 2001.

3. Исматуллаев П.Р., Қодирова Ш.А. “Метрология асослари”, ўқув қўлланма, (кириллда) Тафаккур нашрёти, (лотинда) “Extremum-Press” нашрёти, 2012.

4. Исматуллаев П.Р., Абдуллаев А.Х. ва бошқ. Физикавий-кимёвий ўлчашлар. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2007. –180б.

5. Исматуллаев П.Р., Аъзамов А.А. ва бошқ. Иссиқлик техникасида ўлчашлар. Ўқув қўлланма, Тошкент, 2007. –90б.
6. Mamatkarimov O.O., Vlasov S.I., Nazirov D.E. «Yarimo’tkazgich materiallar va asboblar fizikasi praktikumi». T. O’zMU. 2007.
7.Vlasov S. I., Valiyev U.K., Tursunmetov K.A. Yarimo’tkazgichli asboblar fizikasi. T. O’zMU. 2009

QUYOSH ENERGIYASI – ISTIQBOLLI ENERGIYA MANBAI

I.R.Kamolov, A.R.Sattorov, M.Abduvaliyeva
Navoiy davlat pedagogika instituti

2022 yilning 10 iyunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi, unda yurtimizda bugungi kunda 2÷3 milliard kW·soat energiyaga qo‘shimcha talab borligi, kelgusi 5 yillikda bu ehtiyoj 10 milliard kW·soat.ga yetishi qayd etilgan edi. Buning uchun hozirdan tayyorgarlik ishlarini olib borish zarurligi va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlar keltirilib, o‘rnatilgan quyosh panellarini o‘rnatishda qilingan sarf-xarajatlar hamda ulardan olinayotgan daromadlar borasida ham fikr yuritildi. Quyosh energiyasidan foydalanishning afzallik jihatlari yurtboshimiz tomonidan keng ochib berilgan edi. Masalan, birgina Mendeleyev nomidagi kimyo-texnologiya institutining Toshkent shahridagi filialida o‘rnatilgan 100 kW.lik quyosh panellari va 36 ta suv isitish qurilmasi hisobiga bir yilda 2 milliard so‘mlik elektr energiyasi tejalganligi ta’kidlandi. 2023 yildan boshlab ko‘plab savdo va ko‘ngil ochar majmualar, restoranlar, mehmonxonalar, aeroportlar, vokzallar, tijorat banklar va yoqilg‘i quyish shaxobchalarining issiq suv ta’minoti va yoritish tizimining bir qismi muqobil energiya hisobida qoplanishi mazkur yig‘ilishda aytib o‘tilgan edi.

Agar oxirgi besh yillikni oladigan bo‘lsak, dunyo bo‘yicha har yili elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj 50% ga oshib bormoqda. Bu esa noa’anaviy, muqobil energiya turlarini ko‘paytirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga e’tibor qaratsak, agar Quyosh energiyasidan foydalanish shunday sur’atlarda rivojlanib borsa, 2050 yilga kelib, dunyoning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 25% ini Quyosh energiyasi hisobiga qondirish mumkin bo‘ladi, shu bilan birgalikda yiliga atrof-muhitga faqatgina chiqariladigan karbonat angidrid gazini 6 milliard tonnaga kamaytirishga erishiladi. Bu esa, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish bilan birga yer osti boyliklarini asrab qolishimizga ham sabab bo‘ladi. Dunyo ma’lumotlariga ko‘ra, Yer yuzida o‘rnatilgan barcha quyosh panellari hisobida olingan elektr energiyasi 2019 yilda 635 GW.ni, 2020 yilda esa 760 GW.ni tashkil etgan, bu esa ishlab chiqarilgan elektr energiyasining atigi 2,7% ni tashkil etadi. Hozirgi kunda insoniyat tomonidan har sutkada iste’mol qilinayotgan elektr energiyasi $2{,}45 \cdot 10^8$ barrel (1 barrel=159 litr) neft mahsulotiga ekvivalent yoqilg‘i bera oladigan energiyaga tengdir. Quyoshdan Yerga kelayotgan sutkalik energiya bundan taxminan 11·103 martaga ko‘pdir.

Quyosh energetikasi istiqbolli, qulay va bitmas-tuganmas (agar Quyosh shunday tarzda nurlanib tursa, u o‘z massasining atigi 1% ini yo‘qotishi uchun milliardlab yillar kerak bo‘ladi), cheksiz energiya manbaidir, shuningdek, Quyosh energiyasi an’anaviy energiya resurslariga bo‘lgan narx-navoning oshishida ham o‘zining meyoriy qiymatini saqlab qoladi. Quyosh nurlanishlari hisobiga elektr energiyasi hosil qilish uchun quyosh panellaridan tashqari qo‘shimcha asbob va jihozlar, maxsus tayyorlangan inshootlar, temir yo‘l shaxobchalari yoki katta ishchi kuchi talab etilmaydi. Bizning Yer sayyoramizning butun yuzasiga ($1{,}1 \cdot 10^8$ km^2) kelib tushayotgan Quyosh energiyasini 1 soat to‘liq elektr energiyasiga aylantira olsak edi, unda bu energiya dunyo bo‘yicha 1 yilda iste’mol etilayotgan energiya

Yer sayyoramizdan 1 astronomik uzunlik birligi (150·106 km) uzoqlikda turgan Quyosh markazidan kelayotgan yorug‘lik oqimining nurlanishi unga perpendikulyar joylashgan 1m2 yuza (Yer atmosferadan tashqarida)ga 1360 $\frac{W}{m^2}$ ga teng. Agar Quyosh

nurlanishining Yer atmosferasi massasiga yutilishini inobatga olsak, u holda yorug‘lik oqimi nurlanishi dengiz sathida 1м^2 yuzaga 1020 $\frac{W}{m^2}$ (ekvator va unga yaqin joylarda) ga teng. O‘rtacha yorug‘lik oqimi nurlanishining sutkalik qiymati taxminan 3 martacha kam bo‘ladi, bunda kecha va kunduzning almashinuvi hamda Quyoshning gorizontga nisbatan turli burchak ostida bo‘lishi ham sabab bo‘ladi. Shuni ta’kidlashimiz lozimki, quyosh nurlanishi atmosferadan tashqari litosfera va gidrosferada ham yutiladi. Yer atmosferasi, litosferasi va gidrosferasi 1 yil davomida $3{,}85\cdot10^{24}$ Joul yorug‘lik energiyasini yutadi yoki biz 3600000 Joulning 1 kW·soat ekanligini e’tiborga olsak, butun Yer shari bo‘yicha yutilgan yorug‘lik energiyasi $1{,}07\cdot10^{18}$ kW·soatni tashkil etadi. Bu insoniyat uchun juda katta energiya hisoblanadi.

Quyosh nurlanishining atmosferadagi absorsiya (atmosferaning butun hajmi bo‘yicha yorug‘lik yutilish jarayoni, buni oddiy holda kun davomida havo haroratining oshishi va pasayishi bilan izohlashimiz mumkin) si unda suvning mutassil ravishda aylanishini ta’minlaydi va suvning aylanishi atmosferada haroratning o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan shamol orqali boshqariladi. Shuningdek, atmosferada Quyosh nurlanishining yutilishi natijasida atmosfera haroratining ko‘tarilishi va uning asta-sekinlikda sovishi Yerda kecha va kunduzgi haroratlar orasida keskin o‘zgarishlar kuzatilmaydi (masalan, Oyda atmosfera qatlami yo‘q, shuning uchun kunduzi +150 ˚C bo‘lsa, kechasi -170 ˚C bo‘ladi). Quyosh nurlanishining litosfera (quruqlikda) va gidrosfera (asosan, okean va dengizlar) dagi absorbsiyasi esa, Yer yuzasi (atmosfera) dagi o‘rtacha yillik havo haroratini muvozanatda saqlaydi, bugungi kunda bu yillik harorat 287 K yoki 14˚C.ni tashkil etadi.

Quyosh nurlanishi quvvatini elektr energiyasiga aylantiruvchi moslama sifatida amalda fotoelementlardan foydalaniladi (Quyosh panellari). Navoiy davlat pedagogika institutida o‘rnatilgan Institutda o‘rnatilgan 350 kW. lik Quyosh panellari birgina 2023 yilning mart oyi davrida 51000 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu natija tashkilotning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini deyarli qoplamoqda. ning yuqoriligi mart oyida quyoshli kunlarning ko‘p bo‘lganligi bilan izohlaymiz. Keyingi oylarda panellarning bundan-da ko‘proq eleketr energiyasi ishlab chiqarishi prognoz qilinyapti. Agar o‘tgan 2022 yilda institut bo‘yicha 1 million 20 ming kW·soat elektr energiyasi iste’mol qilinganini inobatga olsak, institut bo‘yicha yana qo‘shimcha ravishda 100 kW.lik quyosh panellarini o‘rnatish zarur bo‘ladi, shundan so‘ng institutning elektr energiyasiga ehtiyoji to‘la qoplanadi. Bir yilda O‘zbekiston bo‘yicha 10 milliard dollarlik elektr energiyasi va gaz iste’mol qilinishini e’tiborga olsak, bu bajarilgan ishlar ilk qadamlar bo‘lib, hali rivoj topishi kerak.

Quyidagi jadvalda Quyosh panellari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan:

	Quyosh paneli quvvati	**Quyosh panelining egallagan maydoni, (m^2) larda**	**Yillik ishlab chiqaradigan elektr energiyasi prognozi**
	5 kW·coaт	30÷60	7500÷12500
	10 kW·coaт	60÷120	15000÷25000
	20 kW·coaт	120÷240	30000÷50000
	30 kW·coaт	180÷360	45000÷75000
	40 kW·coaт	240÷480	60000÷100000
	50 kW·coaт	300÷600	75000÷125000
	100 kW·coaт	600÷1200	150000÷25000
	200 kW·coaт	1200÷2400	300000÷500000
	300 kW·coaт	1800÷3600	450000÷750000

0	400 kW·coaт	2400÷4800	6000000÷1000000

Adabiyotlar

1. Alekseyev V.V., Chekaryov L.V. Solnechnaya energetika. Moskva, Znaniye, 1991.
2. Sibikin Y.D., Sibikin M.Y. Netraditsionniye vozobnovlyayemiye istochniki energii: Uchebnoye izdaniye. – M., 2008.
3. Kamolov I.R., Kamalova D.I., Sayfullayeva G.I., Barakayeva S.T., Sattarova B.D. «Astronomiya kursidan amaliy mashg‘ulotlar» (Astrofizika) o‘quv qo‘llanma. Tilsim nashriyoti, Toshkent, 2023.
4. Kamolov I.R., Kamalova D.I., Sayfullayeva G.I., Sattorov A.R., Tillaboyev A.M. «Umumiy astronomiyadan amaliy mashg‘ulotlar», darslik. Tilsim nashriyoti, Toshkent, 2023.

O’ZBEKISTONDA SHAMOL ENERGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH

I.X. Izzatullayev
Namangan muhandislik-texnologiya institute

Bugungi kunda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy hajmida qayta tiklanadigan energiya (QTE) manbalarining ulushi 15% tashkil etadi, qolgan 85% an’anaviy manbalardan ishlab chiqarilmoqda. Respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishning yangi yo‘nalishlarini joriy qilish maqsadiga erishish uchun qayta tiklanadigan manbalarning shamol va quyosh energiyasi kabi ustuvor turlaridan foydalanish imkoniyatini beradigan texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shamol energetikasi bo‘yicha yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoiti bois ushbu yo‘nalishda ulkan salohiyatga ega. O‘zbekiston QTE yo‘nalishini izchil rivojlantirish maqsadida shamol generatorlarini bunyod etish, ulardan foydalanish bo‘yicha raqobatbardosh shartlarni taklif qilayotgan yirik kompaniyalar bilan muzokaralar olib bormoqda. 2020 yil 8-iyun kuni O‘zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va BAA ning Masdar kompaniyasi o‘rtasida investitsiyaviy shartnoma imzolandi. Mazkur hujjatga ko‘ra, BAA kompaniyasi Navoiy viloyatida shamol elektr stansiyasini (ShES) loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va undan foydalanishni ta’minlaydi Ekologiya muammolarining yuzaga kelishi va uning salbiy oqibatlari bevosita inson faoliyati bilan bog‘liq. Dunyoda kuzatilayotgan atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, ko‘pgina o‘simlik va hayvon turlarining qirilib ketishi, ozon qatlamining emirilishi, ichimlik suvining ifloslanishi va h.k. insoniyatning tabiiy jarayonlardan noto‘g‘ri foydalinishi natijasida tabiatdagi salbiy o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelmoqda. Ekologiya muammolari allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Havo massasining yer atmosferasi atrofida aylanishi ekspertlar tomonidan turlicha baholangan. Shamollarning yillik nazariy zahirasi yer yuzidagi barcha energiya zahiralardan 100 marta ortiq bo‘lib, 3300 x 1012 kVt/ soatni tashkil qiladi. Ammo bu energiyaning faqatgina 10–12 % idan foydalanish mumkin. O’zbekiston Respublikasida birinchi bo’lib Chorvoq suv omborining dam olish hududida eng katta shamol energo qurilmasi o’rnatildi. Quvvati 750 kVt/soat bo’lgan shamol energo qurilmasini o’rnatish, Janubiy Koreyaning “Doojin Co.LTD” kompaniyasi yordamida amalga oshirildi. Shamol energo qurilmasi maydoniga 40 m balandlikdagi minoraga shamol tezligini o’lchovchi anemometrlar va boshqa nazorat-o’lchov asboblari o’rnatilgan. Shamol energo qurilmasi bir yilda 12,3 million kVt/soat elekt energiyasi ishlab chiqaradi, natijada 700 000 m^3 tabiiy gaz tejalmoqda, shamol energo qurilmasi o’rnatilgan hududida shamolning o’rtacha tezligi 4,3 m/s ni, qish mavsumida esa 6,6÷7,1m/s ni tashkil qiladi. Shamolning ko’rsatilgan tezliklari, shamol energo qurilmasini barqaror ishlashini ta’minlaydi. “Inter Gopa” (Germaniya) va GEO NET (Germaniya) kompaniyalari tomonidan uyushgan holda, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish salohiyatini baholash hamda O’zbekiston Respublikasida shamol energiyasi salohiyatini baholash ishlari amalga oshirildi. Ushbu ish natijalariga ko‘ra Respublikaning shamol energetikasi salohiyatining atlasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda shamol energiya stansiyalarni ikki hududda qurish tavsiya etilgan. “Nukus” va “Zarafshon” hududlari shamol energetikasining kelajakdagi rivojlanishi uchun salmoqli salohiyatga egadir. Shuni hisobga olib yurtimizda shamol energiyasidan elektr energiyasi olishni yanada rivojlantirish mumkin va bu bilan kelejak avlod uchun tabiiy gazni ma’lum bir miqdorda tejashga erishiladi.

Hozirgi kunda shamol turbinalarinig ikkita asosiy turlari mavjud: vertikal va gorizontal aylanish o‘qli. Vertikal o‘qli turbinalar kichik tezlikdagi shamollarda ishlaydi va

ular past samarali hisoblanadi. Shuning uchun vertikal o‘qli turbinalar juda kam qo‘llaniladi. Asosan ular uy uchun o‘rnatiladi. Uy uchun kuriladigan shamol qurilmalarini qo‘llash tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Odatda uncha katta bo‘lmagan uy uchun 1 kVt atrofidagi elektroenergiyani 9 m/s tezlikda esayotgan shamol energiyasidan olish mumkin. Yurtimizning adirlik, tog’ va tog’ oldi hududlarida vertikal o‘qli turbinalardan xonadonlar uchun shamol eneratorlari sonini ko’paytirish shamol energiyasidan foydalanish istiqbolining rivojiga salmoqli hissa qo’shadi.



1-rasm: Shamol generatori yordamida qo’zg’aladigan sinxron motorning go’zg’atish sxemasi: 1-stator chulg’ami; 2-rotor chulg’ami; 3- rostlovchi reostat; 4- akkumulyator; 5-doimiy magnitli o’zgarmas tok generator

Ushbu no’ananaviy sxema quyidagi tartibda ishlaydi: doimiy magnitli o’zgarmas tok generatori parraklarini shamol aylantirishi natijasida generator elektr energiyasini (o’zgarmas) ishlab chiqaradi. Generator ishlab chiqargan o’zgarmas tok, sinxron motorning qo’zg’atish chulg’amiga rostlovchi reostat orqali beriladi, natijada sinxron motorda asosiy magnit maydon hosil bo’ladi. Demak, kichik va o’rta quvvatli sinxron mashilarning qo’zg’atish tizimini o’zgarmas tok bilan ta’minlashda doimiy magnitli o’zgarmas tok shamol generatoridan foydalanish elektr energiyasini tejar ekan. Shamol energetikasi, hozirgi paytda zamonaviy shamol energetik qurilmalari yaratilgan bo'lib, ular quvvatiga ko'ra mini va makro shamol energetik qurilmalariga ajratiladi. Makro shamol energetik qurilmalari (shamol energetik qurilmalari parklaridagi shamol generatorlarining quvvati har bir generatorniki 1-5 MVt atrofida bo'ladi) asosan shamol parklariga o'rnatiladi. Shuningdek, makro shamol generatorlarining ishlashida shamolning tezligi o'rtacha 25-35 m/s atrofida bo'lib turishi yetarli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Abdiev U.B. "Fizika ta'limida noan'anaviy energiya manbalari", ilmiy – uslubiy qo'llanma, Termiz 2013 – yil.
2. Farenbrux A., Byub R., "Solnechnыe elementы: teoriya i eksperiment " M. Energoatomizdat, 1987 – g.
3. Koltun M. M. "Optika i metrologiya solnechnыx elementov» M. Nauka, 1985
4. Majidov T.Sh. “Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” Toshkent 2014.
5. Allaev K.R. «Energetika mira i Uzbekistana». Moliya, Tashkent – 2007.
6. http://forca.ru/spravka/bezopasnost/harakteristiki-sily-vetra.

МОРФОЛОГИЯ ПОВЕРХНОСТИ КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО НИКЕЛЕМ С ПОМОЩЬЮ ДИФФУЗИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ

А.Б.Камалов, Д.Ж.Асанов, М.М.Жоллыбаева
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза
dauranbek83@list.ru

Методами оптической и сканирующей электронной микроскопии установлены особенности формирования морфологии поверхности и элементного состава кремния, легированного примесями с помощью диффузионной технологии.

В последнее время энергетика все больше и больше базируется на широком использовании солнечной энергии. Солнце является самым мощным возобновляемым источником энергии для жителей нашей планеты. Количество энергии, которая падает на поверхность Земли от Солнца за один день, превосходит мировое потребление за год [1]. Это экологически чистый источник энергии, который не выделяет двуокись углерода.

Развитие солнечной энергетики требует совершенствования и разработки материалов для солнечных элементов. Основой таких элементов является кремний, легированный определенными элементами.

Цель работы - исследовать морфологию поверхности и элементный состав кремния, легированного никелем с помощью диффузионной технологии. Процесс изготовления образцов заключался нанесении тонкого слоя чистого никеля толщиной 1мкм на поверхность кремния (КДБ-1). Образцов подвергались диффузионному термическому отжигу в течение 1 часа при температурах 1200^{o}C и 1100^{o}C соответственно. В результате такого отжига в образцах формировался p-n переход [3].



а б

Рисунок 1.- Морфология поверхности образца

Исследование морфологии поверхности производилось с использованием растрового электронного микроскопа MIRA-3. Также изображения микроструктуры образцов были получены на металлографическом комплексе на базе оптического инвертированного микроскопа МИ-1 при 200^{x}. В состав комплекса входят также: персональный компьютер; видеокамера с адаптером; программа обработки

изображений, которая предназначена для фиксирования, редактирования и анализа изображений [4].

Исследования элементного состава образцов проводились с помощью системы энергодисперсинного (EDS) микроанализа (Oxford Ultim 65, 100 Azte Advance), установленной на сканирующем электронном микроскопе MIRA - 3.

Измерения проводились при различных значениях ускоряющего напряжения: от минимального порога чувствительности системы микроанализа (6,4 кВ) до максимального значения ускоряющего напряжения, равного 30кВ.

На рисунке 1 представлена морфология исследуемого образца полученного с использованием растровой (рис. 1а) и оптической (рис. 1б) микроскопии.

Из рисунка 1 следует, что поверхность образца существенно неоднородна. На рисунке 1а), б) хорошо видны зоны плавления различного размера от долей микрона до десятков микрон. Элементный анализ проводился с различных участков образца. (спектры №25, №26, №27, №28, №29, №30,).

Таблица 1. Элементный состав в точках на поверхности образца (ат. %)

Метка спектра	Спектр25	Спектр26	Спектр27	Спектр28	Спектр29	Спектр30
Si	69.85	53.88	100.00	61.62	51.61	55.20
Fe	0.19			0.15		0.14
Ni	28.71	45.41		35.92	48.39	44.66
Cu	1.26	0.71		2.30		
Всего	100.00	100.00	100.00	100.00	100.00	100.00

Содержание никеля на различных участках поверхности образца также различно. Так в спектре № 25 содержание никеля 28,71 ат.%, а в спектре № 29 никель примерно 49%. Существенная неоднородность по содержанию никеля фиксируется и в остальных частях поверхности образца.

На рисунке 2 представлен элементный анализ поверхности образца



а б

Рисунок 2.- Элементный анализ: а – спектр № 25, б – спектр № 29

Анализ спектров, представленных на рисуке 2 а), б) показывает неоднородность распределения никеля по поверхности образца. Следует отметить, что бор на поверхности образца отсутствует.

Методами сканирующей электронной микроскопии и оптической микроскопии установлены особенности формирования морфологии поверхности и элементного состава кремния, легированного никелем с помощью диффузионной технологии. Установлена неоднородность элементного состава и существование зон плавления на образцах

Литература

1. Дорофейчик, А.Н. Возобновляемые источники энергии: учебное пособие для специальностей: "Электроэнергетические системы и сети", "Электрические станции" / А.Н. Дорофейчик. — Гродно: Гродненский гос. ун-т им. Янки Купалы, 2013. — 181 с.

2. Казмерчик, Е. С. Повышение энергоэффективности использования солнечных энергетических установок в сельском хозяйстве Республики Беларусь / Е. С. Казмерчик, А. А. Вельченко // Передовые технологии и техническое обеспечение сельскохозяйственного производства : материалы Междунар. науч. - практ. конф., Минск, 30-31 марта 2017 г. - Минск : БГАТУ, 2017. - С. 277-279.

3. Бахадырханов, М.К. Изучение влияния легирования никелем кремниевых срлнечных элементов с глубоким p-n переходом/ М.К Бахадырханов, С.Б. Исамов, З.Т. Кенжаев, С.В. Ковешников //Письма в ЖТФ.-2019.-т.45.-вып.19.-С.3-6.

4. Анисович, А.Г. И.Н. Румянцева. Практика металлографического исследования материалов / А.Г. Анисович, И.Н. Румянцева. - Минск, Беларуская навука, 2013. – 221с.

СОСТОЯНИЕ АТОМОВ ЛЕГИРУЮЩИХ ЭЛЕМЕНТОВ В РЕШЕТКЕ КРЕМНИЯ

Р.М. Жалалов, К.М. Файзуллаев, А.М. Саматов
Наманганский государственный университет,
qahramon_fayz@mail.ru

При растворении атомов легирующих элементов в кремнии вносятся дополнительные квантовые уровни, которые локализуются в местах нахождения связанных с ними атомов. При сравнительно небольших содержаниях атомов легирующих элементов в решетке кремния, когда посторонние атомы располагаются на достаточно больших расстояниях друг от друга, эти дополнительные уровни не расщепляются в зоны. В сильно легированных полупроводниках, когда волновые функции валентных электронов посторонних атомов перекрываются, уровни этих электронов образуют зону, которая обеспечивает проводимость, если не все уровни в этой зоне заняты электронами.

Рассмотрим, что происходит при растворении в кремнии атомов легирующих элементов, имеющих конкретные отличия в строении внешних электронных оболочек. Известно, что кремний имеет по четыре валентных электрона и каждый атом в кристаллической решетке связан ковалентными связями с четырьмя соседними атомами. Теперь если кремний легировать элементом, например, группы V периодической системы, атомы которого имеют пять валентных электронов, то при замещении атома германия или кремния в соответствующей кристаллической решетке (рис. 1, а) четыре электрона атома легирующего элемента пойдут на осуществление химической связи с четырьмя ближайшими соседями, а пятый электрон может при соответствующих условиях перейти в зону проводимости. Поэтому легирующие элементы с большей валентностью по сравнению с кремнием, которые могут давать электроны в зону проводимости, называются элементами донорного типа, или донорами.



Рис. 1. Схема образования свободных электронов при легировании кремния элементами донорного типа (а) и дырок при легировании элементами акцепторного типа (б)

При легировании кремния элементами с меньшей валентностью, например элементами группы III периодической системы (рис. 1, б), три валентных электрона атома легирующего элемента пойдут на осуществление химической связи с тремя ближайшими соседями, а связь с четвертым соседом оказывается ненасыщенной. При этом за счет дополнительной энергии (например, теплового движения) электроны других атомов кремния могут занять свободный уровень, связанный с атомом легирующего элемента, в результате чего появится дырка в валентной зоне [1].

Легирующие элементы с меньшей валентностью по сравнению с кремнием, которые могут принимать электроны из валентной зоны, называются элементами акцепторного типа, или акцепторами.



Рис. 2. Энергетические схемы нелегированного полупроводника (а), легированного элементами донорного (б) и акцепторного (в) типа, иллюстрирующие возникновение носителей заряда при увеличении температуры.

При низких температурах атомы легирующих элементов неионизированы. Донорные уровни располагаются вблизи дна зоны проводимости на расстоянии, соответствующем энергии их ионизации. Акцепторные уровни располагаются вблизи валентной зоны. На рис. 2, б, в (см. левую половину каждого рисунка) представлены схемы энергетических уровней электронного и дырочного полупроводника, отвечающие двум рассмотренным случаям. Очевидно, при температуре абсолютного нуля легированный полупроводник так же, как и собственный, должен быть изолятором. При повышении температуры в первую очередь будет происходить ионизация атомов легирующих элементов. Приведенные на рис. 2 энергетические схемы иллюстрируют возникновение носителей заряда при повышении температуры в полупроводнике, легированном элементами донорного и акцепторного типа. Для сравнения приведена также схема возникновения электронов в собственном полупроводнике. Из качественного сравнения этих схем следует, что в довольно широком диапазоне температур главную роль в процессе переноса зарядов будут играть носители, образовавшиеся вследствие ионизации атомов легирующих элементов.

Из теории следует, что радиус атома водорода, помещенного в диэлектрическую среду, и его ионизационный потенциал определяются следующими выражениями:

$$r=0{,}53\cdot10^{-8}\varepsilon\frac{m_0}{m^*} \qquad (1) \qquad\qquad \Delta E_d=\frac{13{,}53}{\varepsilon^2}\cdot\frac{m^*}{m_0} \qquad (2)$$

Простые подсчеты показывают, что в кремнии величина энергии ионизации атомов легирующих элементов не должна превышать 0,015—0,01 эв. Эта величина хорошо согласуется с опытными данными для большинства элементов группы V периодической системы. В табл. 1 приведены значения энергии ионизации некоторых легирующих элементов в кремнии по данным работ [2,3].

Таблица 1

Энергии ионизации некоторых легирующих элементов в кремнии [4]:

Легирующий элемент	Группа	Донор или акцептор	Энергетический уровень
Mn	VII	Д	E_C-0,53
Cu	II	Д	E_V+0,24

Zn	II	A	E_V+0,31
Ni	VII	Д	E_C-0,3
Fe	VIII	Д	E_V+0,4

Примечание. Ес — дно зоны проводимости; Ev — потолок валентной зоны.

Следует отметить, что при легировании кремния некоторыми элементами образуются несколько уровней с различной энергией ионизации, в связи с чем при одних температурах атомы таких элементов могут быть донорами, а при других акцепторами. Увеличение концентрации приводит к уменьшению энергии ионизации атомов легирующего элемента. Из табл. 1 следует, что при относительно низких температурах электрические свойства кремния, легированных элементами донорного или акцепторного типа, определяются главным образом количеством и состоянием последних.

Литература

1. В. М. Глазов, В. С. Земсков, “Физико-химические основы легирования полупроводников”, НАУКА, Москва-1967 г.
2. W.Rohn. Solid State Phys., 5, 262 (1957).
3. C. B. Co11ins, R.O.Car1son. Phys. Rev., 108, 1409 (1997).
4. Ш.М.Коган, Т.М.Лифшиц, phys. stat.sol. (a) 39,11 (1997)

KREMNIYDA KIRISHMA ATOMLARNING DIFFUZIYASI VA ERUVCHANLIGI

R.M. Jalalov, K.M. Fayzullayev, A.M. Samatov
Namangan davlat universiteti

Diffuziya yo‘li bilan kirishma atomlar kiritish hozirgi zamon mikroelektronikasida har xil murakkablikdagi integral sxemalar yaratish texnologiyasi jarayonining eng asosiy bosqichlaridan hisoblanadi. Diffuziya jarayoni 2 ta asosiy tushuncha: kirishma atomlar eruvchanligi va ularning diffuziya koeffitsiyenti bilan aniqlanadi [1].

Eruvchanlik berilgan haroratda diffuziya yo‘li bilan kristallga kiritish mumkin bo‘lgan atomlar konsentratsiyasidir. Eruvchanlik, kirishma atomlar radiusi, massasi va ular tashqi elektron qobig‘idagi elektronlar soniga, yarim o‘tkazgich asosiy atomlaridan qanchalik farq qilganligiga bog‘liq. Bu farq qancha katta bo‘lsa, bunday kirishma atomlrining kristall panjara tugunlarida joylashish ehtimolligi shuncha kam bo‘lishi bilan birga ularning eruvchanlik qiymatlari ham kam bo‘ladi. Agar kirishma atomlar bilan yarim o‘tkazgich asosiy atomlar orasidagi tafovud qancha katta bo‘lsa, bunday holda kirishma atomlar kristall panjara oralig‘ida joylashish ehtimolligi ko‘p bo‘ladi. Bunday kirishma atomlar bor kristall panjarali yarim o‘tkazgich materiallar tugunlar aro hosil qilgan qattiq jism kirishma deb ataladi. Bundaylarga: Si ga Zn, Fe, Ni, Co lar misol bo’la oladi [2].

Agar kirishma atomlar bilan yarim o‘tkazgich asosiy atomlar orasidagi tafovud qancha kam bo‘lsa bunday atomlar kristall panjara tugunlarida joylashish ehtimolligi ko‘p bo‘lishi bilan birga ularning eruvchanligi ham yuqori darajada bo‘ladi. Bunday yarim o‘tkazgich materiallar o‘rindoshli qattiq jism kirishmalari deb ataladi. Masalan, bularga Si uchun V, In, Ga, P, As, Sb va hokazo.

Umuman kirishma atomlari atomlar eruvchanlik tempraturaga bog‘liqligi quydagicha aniqlanadi:

$$N = N_0 \cdot e^{-\frac{E}{KT}} \quad (1)$$

bu yerda: N-berilgan haroratda kirishma atomlar eruvchanligi, k-Boltsman doimiysi, T-harorat, E-eruvchanlik energiyasi, N_o-tempratura cheksiz bo‘lganda eruvchanlik qiymatidir. Atomlarning yarim o‘tkazgich material sirtidan diffuzuya natijasida hajm bo‘ylab kirib borish tezligini ko‘rsatadigan kattalik bu diffuziya koeffitsiyentidir. Diffuziya koeffisienti qiymati ham kirishma atomlari parametrlari va diffuziya tezligiga bog‘liq [1].

$$D = D_0 \cdot \exp(-\frac{E_d}{KT}) \quad (2)$$

D_o-tempratura cheksiz bo‘lgandagi diffuziya koeffisienti, E_d-diffuziyaning energiya faolligi (ya’ni atomlarning kristall panjara ichida bir muvozanat holatdan ikkinchi muvozanat holatga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan energiya). Agar kirishma atomlar tugunlar bo‘yicha diffuziya qilinadigan bo‘lsa, unda E_d qiymati tugunda turgan atomning 3 ta qo‘shnisi bilan bog‘lanishni uzish uchun kerak bo‘lgan energiya ham atom qo‘shni tugun joyiga o‘tishi uchun u yerda vakansiya paydo bo‘lishi uchun kerak energiyalar yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Bunday kirishma atomlar uchun Si da E_d qiymati E_d=3÷5 eV ga teng bo‘ladi. Agar atom tugunlararo diffuziya qilinayotgan bo‘lsa, unda E_d qiymati atom turgan tugunlar aro joyidan qo‘shni shunday joyga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan energiyalar bilan, atom 2 ta tugun o‘rtasidan o‘tayotganda tashqi qobiq elektronlar o‘zaro itarilish kuchlarini yengish uchun sarf qilinayotgan energiyalar yig‘indisiga teng bo‘ladi. Bunday kirishma atomlar uchun E_d qiymati E_d =0,5÷2,5 eV atrofida bo‘lishi mumkin. Diffuziya jarayonida berilgan

vaqtda kirishma atomlarning hajm bo‘yicha taqsimoti diffuziya vaqtida kirishma atomlar miqdoriga qarab 2 xil bo‘lishi mumkin. Agar diffuziya jarayonida jism sirtidagi yoki diffuziya kechayotgan muhitda kirishma atomlar konsentratsiyasi, kirishma atomlarning diffuziya bo‘layotgan haroratdagi eruvchanligidan juda katta bo‘lsa, ya‘ni diffuziya jarayonida kirishma atomlarning sirtdagi qiymati deyarli o‘zgarishsiz qolsa, bunday holatni chegaralanmagan manbadan diffuziya deyiladi va uning taqsimot quyidagi tenglik bilan aniqlanadi [3]:

$$N = N_s \cdot erfc(\frac{x}{2\sqrt{Dt}}) \quad (3)$$

bu yerda

D – diffuziya koeffsiyenti, t – diffuziya vaqti, x – diffuziya chuqurligi,

N_s– kirishma atomlarning sirtdagi konsentratsiyasi.



1-rasm. Chegaralanmagan manbadan diffuziyaning taqsimoti [3].

Nazariy hisoblashlar ko‘rsatadiki, kirishma atomlarning tugunlarda joylashishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim, ya‘ni yarim o‘tkazgichning asosiy atomlari va kirishma atomlar radiuslari bir – biriga juda yaqin bo‘lishi va ularning farqi 14% dan oshmasligi kerak. Shu bilan birga asosiy atom va kirishma atom tashqi qobig‘idagi elektronlar soni ham juda kam farq qilishi kerak. Masalan, Ge atomlarining valent elektronlari soni, atom radius hamda kristall tuzilishlari Si atomlaridan juda kam farq qilganligi uchun Ge kremniy kristallda cheksiz eruvchanlik xususiyatiga ega.

Adabiyotlar.

1. Б.И. Болтакс. Диффузия в полупроводниках. 1961, стр.464.
2. W. Wurker, K. Roy, J. Hesse. Diffusion and solid solubility of chromium in silicon. Mat. Res. Bull. 1974, Vol. 9, pp. 971-978.
3. S.Z. Zaynobiddinov, Sh.Yo‘lchiyev, D. Nazirov, M.Nosirov. Yarimo‘tkazgichlarda atomlar diffuziyasi. Toshkent – 2012.

ELEKTR ENERGIYASI HOSIL QILISHDA FOTOELEMENTLARNING TUTGAN O‘RNI

I.R.Kamolov, S.T.Barakaeva, M.Abduvalieva
Navoiy davlat pedagogika instituti

Quyosh nurlanishi quvvatini elektr energiyasiga aylantiruvchi moslamaning ishlash prinsipi quyidagicha: Quyosh nurlanishlarini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi moslama – fotoelementlar (yarim o‘tkazgichli uskuna)dan foydalaniladi. Foydalanilayotgan fotoelementlarning 85% kremniyli (Si), 10% ga yaqini kadmiy tellurli (CdTl) kristallar hissasi hisoblaniladi. Shuningdek, qolgan qismi germaniyli (Ge), indiy fosfidli (InP), galliy arsenidli (GaAs) kabi kristallar ulushiga to‘g‘ri keladi. Fotoelementlar birinchi marta koinotda, ya’ni sun’iy yo‘ldoshlarda qo‘llanilgan, keyinchalik yer sharoitida inson ehtiyojlari uchun qo‘llanilib kelinmoqda. Sun’iy yo‘ldoshlarning butun elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji aynan Quyosh energiyasi hisobida ta’minlanadi. Fotoelement o‘zida elektr maydonini hosil qiluvchi musbat va manfiy zaryadlangan qatlamga ega. Fotoelementga tushayotgan yorug‘lik oqimi (foton zarralarining oqimi) undan elektronlarni urib chiqaradi va bu elektronlar elektr maydonidan o‘tib, elektr tokini hosil qiladi. Elektr toki invertorga kelib tushganda, unda elektr energiyasi hosil qilinib manbaga uzatiladi. Manbaga elektr tokining iste’molchilari, ya’ni elektr tokida ishlaydigan barcha jihozlar (lampochka, muzlatkich, chang yutgich, televizor, radio va h.k.) ulanib, undan inson ehtiyoji uchun zarur hollarda foydalanish mumkin.

Quyosh energiyasidan elektroenergiya hosil qilish borasidagi ishlar Navoiy davlat pedagogika institutida ham jadal olib borildi, natijada 2022 yilning oxiriga qadar mavjud institut binolarining tomlarida 350 kW lik quyosh panellarini o‘rnatdi. O‘rnatilgan 1 kW. lik quyosh panellari taxminan 5÷6 m^2 maydonni egallashini inobatga olsak, umumiy holda 1700 m^2 ga yaqin maydonni egallagan fakultetlar o‘quv binolarining, jumladan talabalar turar joylari binolarining ham tom qismlarida quyosh panellari o‘rnatildi.



Fotoelement va unga yorug‘likning tushishi

Quyosh panellari o‘rnatishda asosan, quyoshning kun davomida asosiy tushish burchaklari inobatga olingan. Agar bu burchak quyosh harakatiga moslashtirilsa (harakatdagi quyosh panellari nazarda tutilganda), yanada ko‘proq energiya olish imkoniyatlari mavjud. Bu ishni amalga oshirish uchun ham qo‘shimcha uskunalar zarur bo‘ladi. Yana institut ichki bino atroflarida yoritish tizimlari ham quyosh panellari hisobiga qoplandi.

Navoiy davlat pedagogika institutida o‘rnatilgan Quyosh panellari to‘g‘risida ma’lumot

	Quyosh paneli o‘rnatilgan manzil nomi	Quyosh paneli soni	Quyosh paneli quvvati	Quyosh paneli umumiy yuzasi

	Institut bosh binosi	94	50	240 m^2
	Tarix fakulteti binosi	56	30	143 m^2
	Fizika-texnologiya fakulteti binosi	75	40	191 m^2
	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti binosi	93	50	237 m^2
	Chet tillar fakulteti binosi	94	50	240 m^2
	Tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti binosi	75	40	191 m^2
	1-TTJ binosi	56	30	143 m^2
	2-TTJ binosi	56	30	143 m^2
	3-TTJ binosi	56	30	143 m^2
	Jami:	**655**	**358**	**1671 m^2**

1 dona Quyosh panelining o‘lchami (2,25x1,13) metr bo‘lsa, uning yuzasi 2,55m^2 ni tashkil etadi.

Quyosh panellari

Institutda o‘rnatilgan 350 kW. lik Quyosh panellari hisobidan 2023 yilning birgina yanvar oyida 32000 kW·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Institut bo‘yicha 2023 yil yanvar oyida is’temol qilingan elektr energiyasi 44000 kW·soat ni tashkil etdi va iste’mol qilingan elektr energiyasining 75% ga yaqini quyosh panellarida olingan energiya hisobiga qoplandi. Bir oy davomida quyosh panellarida olingan energiya, belgilangan me’yorlardan ancha kam. Bunga asosiy sabab, qishda Quyoshli kunlarning kamligi hisoblanadi. Shuningdek, 2 haftalik talabalar ta’tilini inobatga oladigan bo‘lsak, iste’mol qilingan elektr energiyasining miqdori ham oz. 2023 yilning fevral oyi davrida esa 31380 kW·soat elektr energiyasi yuqorida aytilgan quyosh panellari hisobida ishlab chiqarildi. Ishlab chiqilgan energiyaning yanvar oyiga nisbatan kamligini fevral oyining 3 kunga qisqaligi bilan izohlashimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Kamolov I.R., Kamalova D.I., Kanatbaev S.S., Bisenova B.T., Sayfullaeva G.I. «Жалпы астрономия», darslik. Tilsim nashriyoti, Toshkent, 2023.
2. Quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari. NSPI.UZ sayti.
3. Innovatsion rivojlanishning muhim omili. Do‘stlik bayrog‘i gazetasi, 2023 yil 2 mart 9-soni (4117).

YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTINING QUYOSH TARMOG'I FOTOELEKTR STANTSIYASINING SAMARADORLIGINI HISOBLASH

Sh.B.Utamuradova, I.M.Komolov, V.P.Kononerov, E.D.Muxamediyev, K.A.Djumamuratov, S.A. Daminov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ITI

kjumamuratov01@gmail.com

Resurslarning ko'pligi, ekologik tozaligi va hamma joyda mavjudligi nuqtai nazaridan quyosh energiyasi qayta tiklanadigan energiya manbalari orasida eng istiqbolli hisoblanadi. An’anaviy energiya manbalaridan (uglevodorod yoqilg‘isi) foydalanish hisobiga ishlab chiqariladigan energiya tannarxining doimiy oshib borishi, quyosh elektr stansiyalari tannarxining pasayishi va O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida energiya tanqisligi natijasida, quyosh elektr stansiyalaridan foydalanishni keng ko‘lamda amalga oshirishga undaydi.

Fotoelektrik stantsiyalarida energiya manbai - quyosh nurlanishini doimiy elektr tokiga aylantiradigan yarimo'tkazgichli quyosh elementlaridan tashkil topgan fotoelektrik modullar (FEM) hisoblanadi. FEM ning afzalligi harakatlanuvchi qismlarning yo'qligi, yuqori ishonchliligi va barqaror ishlash prinsipidir. Ularning vazni yengil, texnik xizmat ko'rsatish oddiyligi, to'g'ridan-to'g'ri va tarqoq nurlanishdan samarali foydalanish bilan ajralib turadi. Modulli konstruksiya turi deyarli har qanday quvvatga ega qurilmalarni yaratishga imkon beradi va ularni juda istiqbolli qiladi.

Ushbu maqolada M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti (41,35° Sh.K., 69,25° Sh.U.) binosining elektr ta’minoti tizimini, FEMga asoslangan yangi muqobil elektr ta’minoti tizimi bilan qayta jihozlash ko‘rib chiqilgan. Yangi muqobil elektr ta’minoti tizimi quyosh tarmog‘i fotoelektr stansiya (TFES) bo‘lib, u institut binosidagi turli elektr jihozlarini elektr energiyasi bilan ta’minlaydi.

Binoni rekonstruksiya qilish loyihasiga ko‘ra, FEM ni 100 m^2 maydonga ega bo‘lgan ilmiy-o‘quv binosining tomida joylashtirish rejalashtirilgan. Energiya ishlab chiqarish tizimini o'rnatish uchun mo'ljallangan uchastkaning maydoni, umumiy quvvati 40 kW bo'lgan FEM ni joylashtirish imkonini beradi. FEM sifatida 72 ta nominal quvvati 550 W [1] bo'lgan monokristalli kremniy modullardan foydalanish rejalashtirilgan. Monokristalli kremniy FEM ning asosiy elektromexanik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Monokristalli kremniy fotoelektrik modullarning elektromexanik parametrlari (STC: AM 1,5; 1000 W/m^2; 25 °C)

Longi Solar LR5-72HPH-550M	
Maksimal quvvat, P_{MPP} (W)	550
Maksimal quvvat nuqtasidagi kuchlanish, V_{MPP} (V)	41,95
Maksimal quvvat nuqtasidagi tok, I_{MPP} (A)	13,12
salt yurish kuchlanishi, U_{OC} (V)	49,80
Qisqa tutashuv toki, I_{SC} (A)	13,98
Fotoelektrik modul FIK, (%)	21,5
O’lchamlari, U×K×B (mm)	2256×1133×35
Og'irligi, m (kg)	27,2
Maksimal statik yuklama, P (Pa)	5400

FEMni o'rnatish modullarning fotoaktiv yuzasini janubga 35 ° burchak ostida yo'naltirish bilan rejalashtirilgan. Loyiha hujjatlarini tayyorlashda, tizimni janubiy yo'nalishga nisbatan ruxsat etilgan og'ishlarni hisobga olmagan holda amalga oshirildi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, sharqqa yoki g'arbga 15 ° gacha og'ish bilan quyosh nurlari oqimining yo'nalishiga nisbatan to'g'ri burchak ostida yo'naltirilgan fotoaktiv sirtga o'rtacha yillik quyosh energiyasi kelishini atigi 2% ga kamaytiradi va 40 ° og'ish esa, o'rtacha yillik energiyani 13% ga kamayishiga olib keladi.

Hisoblashda fotoaktiv sirtning ifloslanishi (2,5%), materiallarning barqarorlik hususiyatini yomonlashuvi (0,8%), quyosh nurlanishi (issiqlik nurlanishi bilan bog'liq issiqlik yo'qotish koeffitsientini hisobga olgan holda U_c = 20,0 W/m^2·K) qizib ketishi bilan bog'liq bir qator yo'qotishlar (L_c) va modullarning bir-birlari bilan bog`lanishdagi yo'qotishlar (2%), shuningdek, modullar va massivlar, o`zaro massivlar orasidagi, kuchlanish invertori (0,2%) orasidagi ulash simlaridagi Om ik yo'qotishlar va eng so`ngida, parallel ravishda ulangan FEM massivlarining xarakteristikalarini tarqalishi bilan bog'liq yo'qotishlar (0,1%) hisobga olingan. Butunlay ishlamay turgan tizi (L_s) dagi uzulish vakti bilan bog‘liq yo‘qotishlar, foydali energiyani ishlab chiqarish davrining 2% darajasida baholandi.

Energiya ishlab chiqarish tizimining normallashtirilgan oylik ishlab chiqarishi 1-rasmda ko'rsatilgan. Energiya ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarning katta qismi, FEM dagi energiya yo'qotishlaridir. Eng kam yo'qotishlar TFES ning uzulish vaqti bilan bog'liq. Ko'rinib turibdiki, Huawei Technologies SUN2000-40KTL-M3-480V [2] kuchlanish invertoridan foydalanganda tarmoqqa etkazib beriladigan energiyaning o'rtacha kunlik miqdori (Y_f) 4,13 kW·t/kW/kun atrofidadir.



1-rasm. TFES energiya ishlab chiqarish tizimining normallashtirilgan oylik ishlab chiqarishi

TFES energiya ishlab chiqarish hajmini oylar bo'yicha hisobi (2-jadval) Toshkent shahridagi ob-havo va quyosh radiatsiyasi bo'yicha oylik meteorologik sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan [3].

2-jadval

M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti TFES ishlab chiqarish tizimi tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarishning kutilayotgan oylik hajmi.

	E_{glob}, kW·soat/m^2	E_{diff} kW·soat/m^2	T_A °C	E_{dir} kW·soat/m^2	E_{dir_loss}, kW·soat/m^2	E_{Array}, MW·soat	E_{Grid}, MW·soat
Yanvar	55,0	28,93	2,55	90,3	86,9	3,358	3,295
Fevral	62,4	36,54	4,31	85,9	82,6	3,169	3,109
Mart	112,5	58,07	11,30	139,2	133,6	4,981	4,886
Aprel	138,1	71,04	16,57	149,7	143,3	5,206	4,648
May	193,3	85,59	23,03	190,1	181,6	6,406	6,269
Iyun	214,3	79,80	27,61	201,6	192,6	6,638	6,488
Iyul	227,1	70,68	29,95	217,7	207,8	7,070	6,403
Avgust	201,6	66,51	28,21	213,6	204,4	7,003	6,847
Sentyabr	154,8	49,79	22,08	191,0	183,3	6,444	6,306
Oktyabr	104,3	46,72	15,16	145,2	139,7	5,097	4,492
Noyabr	69,7	30,46	8,22	115,7	111,6	4,218	4,140
Dekabr	46,0	25,72	3,09	77,5	74,6	2,892	2,836
Yil davomida	1579,1	649,86	16,07	1817,7	1741,8	62,481	59,720

H_{glob} – QN gorizontal yuzaga tushishi, H_{diff} - gorizontal yuzaga keladigan tarqoq QN, T_{air} - atrof-muhit (havo) harorati, H_{inc} - FEM yuzasiga tushiadigan QN, H_{inc_loss} - barcha turdagi optik yo'qotishlarni hisobga olgan holda quyosh elementi yuzasiga keladigan QN; E_{Array} - FEM massivlari tomonidan ishlab chiqarilgan energiya, E_{Grid} - kuchlanish inverteri tomonidan tarmoqqa uzatiladigan energiya.

Xulosa o`rnida, loyihalashtirilgan stansiyaning yillik elektr energiyasini ishlab chiqarishning potentsial hajmi, ifloslanishlar natijasidagi yo'qotishlarni va quyoshning joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan, tushish burchagining o'zgarishi bilan quyosh nurlanishi kam tushishi hisobga olgan holda, 60 MW·soatga yetishi mumkin.

Adabiyotlar

1. LONGi Green Energy Technology Co., Ltd. (LONGi) [Электронный ресурс]. – URL: https://www.longi.com (дата обращения: 15.03.2023).
2. Huawei Technologies Co., Ltd. [Электронный ресурс]. – URL: https://www.solar.huawei.com (дата обращения: 17.03.2023).
3. Meteonorm 8.0 / разработчик: Meteotest AG. – Берн: 2018.

РАЗЛИЧНЫЕ КРИТЕРИИ ЭКСПЕРИМЕНТА В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Л.А.Рахимова,
Ферганский государственный университет

Реализация различных функций в учебном эксперименте оказывает существенное влияние на уровень достижения общепедагогических целей. Физика — экспериментальная наука. Поскольку между физикой как наукой и физикой как предметом существует тесная связь, процесс обучения физике заключается в последовательном формировании у учащихся новых физических понятий и теорий на основе ряда фундаментальных правил, основанных на опыте.

Использование опыта в процессе обучения физике позволяет:

- представить изучаемые явления в педагогически модифицируемой форме и тем самым создать необходимую экспериментальную базу для их изучения;
- познакомить учащихся с экспериментальным методом изучения физических явлений;

Образовательный эксперимент работает как метод обучения, источник знаний и средство обучения одновременно.

Учебный эксперимент непосредственно связан с научным физическим экспериментом и понимается как система целенаправленного изучения природы путем воспроизведения точно спланированных физических явлений в лабораторных условиях, анализа и обобщения экспериментальных данных, полученных с помощью приборов. Эксперимент отличается от наблюдения активным вмешательством в ход физических явлений экспериментальными средствами.



Научный эксперимент является основой учебного эксперимента, который обеспечивает экспериментальный инструментарий, методы исследования и фактический материал. Но полного тождества между ними нет. Основное отличие состоит в том, что научный эксперимент предназначен для изучения природы и получения новых знаний о ней, а учебный эксперимент призван донести эти знания до учащихся.

Структура учебного физического эксперимента, отражающая структуру научного эксперимента в целом, включает новый воспитательный элемент, связанный с деятельностью преподавателя, выступающего в качестве квалифицированного руководителя учебного физического эксперимента. Это может напрямую повлиять на инструменты исследования или на студентов, которые работают с инструментами исследования.

В связи с изложенным учебный эксперимент делится на два вида: демонстрационный (демонстрационный) и лабораторный.

Структура демонстрационного эксперимента



Лабораторный эксперимент удобно классифицировать по организационным признакам, наиболее полно отражающим характер деятельности учителя и учащихся. В соответствии с этой классификацией выделяют четыре вида учебно-лабораторной практики:

- ✓ фронтальная лабораторная работа
- ✓ мастерские;
- ✓ наблюдения и эксперименты в домашних условиях;
- ✓ экспериментальные задания.

Демонстрационный эксперимент как метод обучения относится к иллюстративным методам. Главным инициатором в демонстрационном эксперименте является преподаватель, который не только организует воспитательную работу, но и проводит демонстрацию опытов. Визуальный эксперимент имеет существенный недостаток – студенты не работают с приборами (хотя некоторые из них могут участвовать в подготовке выставок).

3. S.Kerli and Alver, “Preparation and characterisation of ZnO/NiO nanocomposite particles for solar cell applications,” Journal of Nanotechnology, vol. 2016, 2016, doi: 10.1155/2016/4028062.

KREMNIYLI QUYOSH ELEMENTLARI ASOSIDAGI EGILUVCHAN QUYOSH PANELLARINING AFZALLIKLARI

D.A.Xonbutayeva [1], J.I.Qahhorov [2], R.B.Rahmatullayev[2]
[1]Andijon mashinasozlik instituti
[2]Andijon davlat universiteti

Quyosh energetikasi qayta tiklanadigan energiyaning istiqbolli manbai bo‘lib, jahonning o‘sib borayotgan energiya talablarini qondirish imkoniyatiga ega. Biroq, an'anaviy quyosh elementlari qattiq va katta hajmga ega, bu ularning turli sohalarda qo'llanilishini cheklaydi. Ushbu cheklovni bartaraf etish uchun hozirgi kunda jahonda yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari egiluvchan quyosh panellarni ishlab chiqish ustida ishlar olib borishmoqda. Ular keng ko'lamli ilovalarga, jumladan, kiyinadigan qurilmalar, notekkis joylashgan landshaftga ega binoga o'rnatiladigan quyosh panellari va ko'chma elektronika qurilmalarida foydalanish mumkin. Ushbu maqolada biz egiluvchan quyosh panellarining rivojlanishi va ularning afzalliklarini muhokama qilamiz.

Moslashuvchan quyosh panellari yupqa, yengil va egiluvchan bo'lib, bu ularni moslashuvchanlik va ko'chmalikni talab qiladigan qurilma va jihozlar uchun qulay hisoblanadi. Kremniyli quyosh elementlari yuqori samaradorlik va ishonchlilik tufayli dunyodagi eng keng tarqalgan quyosh panellari hisoblanadi. Biroq, kremniyli quyosh elementlari asosidagi egiluvchan quyosh panellarini ishlab chiqish kremniyning mo'rt tabiati tufayli qiyin bo'ladi. Ushbu qiyinchilikni bartaraf etish uchun biz kremniyli quyosh elementlarini lazer orqali kesib, egiluvchan EVA plyonkasiga yotqizishning yangi usullarini ishlab chiqdilar.

Kremniyli quyosh elementlari asosida egiluvchan quyosh panellarini yaratish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlar kremniyni quyosh elementlarini lazer orqali kesib olib, ularni ketma-ket ulash orqali kerakli parametrdagi kuchlanganlik va quvvatni olishga erishiladi. Ushbu egiluvchan quyosh panellarining ishlashi samaradorlik, chidamlilik va moslashuvchanlik kabi turli parametrlar yordamida baholanadi.



1-rasm. Monokristal kremniyli quyosh elementlaridan yasalgan egiluvchan quyosh panellari

Eksperimental tadqiqotlar bilan bir qatorda, kremniyli quyosh elementlari asosidagi moslashuvchan quyosh panellarining dizayni va ishlashini optimallashtirish uchun modellashtirish ishlari ham olib borildi. Ushbu tadqiqotlar turli xil sharoitlarda moslashuvchan quyosh panellarining parametrlarini bashorat qilish uchun kompyuter simulyatsiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Simulyatsiyalar tadqiqot jarayonida

moslashuvchan quyosh panellari uchun optimal materiallar, qalinliklar va konfiguratsiyalarni aniqlashda yordam beradi.



a) b)

2-rasm. Yarimo’tkazgichli Egiluvchan quyosh panelining *a)* volt-amper xarakteristikasi va *b)* salt ishlash kuchlanishini quvvatga bog’liqlik grafiklari.

Kremniyli quyosh elementlari asosidagi egiluvchan quyosh panellarini ishlab chiqish bir qator afzalliklarga ega. Ushbu quyosh panellari afzalliklaridan biri portativligi, osongina o'ralishi yoki taklab-yig’ilishi mumkin, bu ularni tashish va o'rnatishni osonlashtiradi. Bu ularni an'anaviy quyosh panellarini ishlatish mumkin bo'lmagan chekka hududlarda foydalanish uchun qulay. Bundan tashqari, egiluvchan quyosh panellari kiyim-kechak, ryukzak va chodirlarni o'z ichiga olgan keng doiradagi loyihalarda qo’llash mumkin, Ular sayohat paytida elektron qurilmalarni quvvat bilan ta'minlaydi. Ikkinchidan, boshqa turdagi moslashuvchan quyosh panellari bilan solishtirganda yuqori samaradorlikka ega. Kremniyli quyosh elementlari 26% gacha samaradorlikka ega, bu boshqa turdagi egiluvchan quyosh panellarining samaradorligidan yuqori.

Xulosa qilib aytganda, kremniyli quyosh elementlari asosidagi egiluvchan quyosh panellarini eksperimental va modellashtirish bo'yicha ishlar quyosh energiyasinidan elektr energiyasini ishlab chiqarish va undan foydalanish usulini inqilob qilish potentsialiga ega bo'lgan istiqbolli tadqiqot yo'nalishidir. Ushbu quyosh panellari yupqa, yengil va egiluvchan, bu ularni moslashuvchanlik va ko'chmalikni talab qiladigan ilovalar qulay. Texnologiya takomillashib borar ekan, kelajakda kremniyli quyosh elementlari asosidagi egiluvchan quyosh panellarining kengroq qo'llanilishini kutishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Merten, J., Asensi, J.M., Voz, C., et al., Improved equivalent circuit and analytical model for amorphous silicon solar cells and modules, IEEE Trans. Electron Devices, 1998, vol. 45, no. 2, pp. 423–429.
2. Voswinckel, S., Wesselak, V., and Lustermann, B., Behaviour of amorphous silicon solar modules: a parameter study, Solar Energy, 2013, vol. 92, pp. 206–213.
3. Ikegami, T., Maezono, T., Nakanishi, F., et al., Estima tion of equivalent circuit parameters of PV module and its application to optimal operation of PV system, Solar Energy Mater. Solar Cells, 2001, vol. 67, no. 1, pp. 389– 395.
4. King, D.L., Kratochvil, J.A., and Boyson, W.E., Photovoltaic array performance model. United States, Department of Energy, 2004.

LEGIRLANGAN KREMNIYGA TERMIK ISHLOV BERISH.

Sh.X.Daliyev, M.N.Abduraxmonova
Farg’ona davlat universiteti

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan yarimo‘tkazgichli asboblar va integral sxemalar u yoki bu jihatdan issiqlik ta’siriga duchor bo‘lar ekan. Shuning uchun, issiqlik ishlov berish jarayonida, kremniyda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini aniqlash lozim. Kremniyni qisqa vaqtda va nisbatan yuqori haroratda qizdirish, uning elektrofizik xususiyatlarini (konsentratsiya va zaryad tashuvchilar yashash vaqti) o‘zgartirib yangi strukturaviy nuqsonlar va boshlang‘ich materialdagi nuqsonlarning qayta o‘zgartishga olib keladi.

Termik ishlov berish natijasida kremniyning elektrofizik xususiyatlari o‘zgaradi, kremniyning taqiqlangan zonasida murakkab spektrli lokal sathlarning (issiqlik markazlari) hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ekan. Mazkur issiqlik markazlari manbai, bu kristall hajmi va sirti hisoblanadi.

Past haroratli ishlov berishda hosil bo‘ladigan markazlar, odatda elektr faol kremniy-kislorod komplekslari hosil qilishi va undan tashqari kristallning turli chala nuqson komplekslari bilan bog‘liq.

Kremniyga issiqlik ishlov berish jarayonida asosan donor tipdagi nuqsonlar hosil bo‘lar ekan. Bunday kremniydagi termik nuqsonlarning hosil bo‘lishida kislorod asosiy rolini o‘ynaydi. Ma’lumki, Choxralskiy usulida o‘stirilgan kremniyga past haroratli ishlov berilganda, ya’ni 300-500 ^{0}C da issiqlik donorlari (termodonorlar) hosil bo‘lar ekan. Donor tipidagi markazlarning hosil bo‘lishi, SiO_4 tetroedr tipidagi birinchi yoki ikkinchi tartibli kremniy-kislorod komplekslarining hosil bo‘lishi bilan tushuntiriladi.

Past haroratli ishlov berishda issiqlik nuqsonlarini hosil bo‘lishi, kislorodning kremniydagi to’yingan qattiq eritmasining ertaroq bo‘linishi hisobiga ekan. Haqiqatan, 450^{0}C da uzoq vaqt temperaturaviy ishlov berilsa, termik nuqsonlar maksimal konsentratsiyaga erishishgandan so‘ng, ularning konsentratsiyasi kamayishi aniqlangan.

Kislorod miqdoriga qarab, kremniydagi termik nuqsonlarning maksimal konsentratsiyasi kubik bog‘lanishga ega ekanligi, kislorod kompleksni 4 atomdan katta elektr faol bo‘lmay kattalashish jarayoni sodir bo‘ladi. Shunday qilib berilgan temperaturada muvozanatga erishish statsionar holat deyiladi. Mazkur markazning keraklicha to‘planishi temperaturani oshishiga qattiq eritmaning tez bo‘linishiga, natijada kurtaklarni o‘ta yuqori konsentratsiyasi (>10^{15} sm^3) hosil bo‘lishiga olib kelar ekan. To‘yinish darajasini kamayishi sirtiy energiyaning ortishi hisobiga pretsipitatlarning ittifoqini xosil qiladi.

Issiqlik ishlov berishning harorati oshirilganda o‘ta murakkab komplekslar SiO_4 (x=4) hosil bo‘ladi, ular donor xususiyatga ega emas ekan. Haroratni yana ham oshirish ya’ni 600-900^0 C ga yuqoridagi komplekslar bo‘linishi sodir bo‘lib, natijada erkin strukturali SiO_4 guruhi hosil bo‘lib, u issiqlik nuqsonlar o‘sishining ikkinchi sohasiga to‘g‘ri kelar ekan. Namunalarga oldindan uzoq vaqt 350-500^0 C da ishlov berilsa, issiqlik nuqsonlar konsentratsiyasining ikkinchi sohasida o‘sishi aniqlangan.

Termik ishlov berishda sirtga kirishmalarni ketkazish, sirt iflosliklarini parchalash va uchuvchi birikmalarni bug’lantirish uchun qo’llaniladi. Termik ishlov to’g’ridan to’g’ri oksidlash epitaksiya va boshqa jarayonlar oldidan vakuumli va termik qurilmalarda olib boriladi. Masalan, kremniy plastinkada epitaksial qatlam o’stirishda,qoplovchi gaz pardalar va namliklar sirtidan uzoqlashtirish uchun oksidlanish temperaturasigacha qizdiriladi. Yarim o’tkazgich plastinkalarni vakuumda termik ishlov berishda oksidlangan sirtdan namligini, karbonat angidrid gazini, yengil uglevodlarni 400^0 C da oson uchirib yuborish mumkin. Kremniy sirtidan oksid parda 900 ^{0} C dan yuqori temperaturada ketadi. Kremniyli epitaksial

qatlamni hosil qilishdan oldin oksid pardani vodorod muhitida 1200 ^{0} C termik ishlov berish bilan ketkaziladi. Keramika, shisha, kvars, sapfir tagliklarning oxirgi amallari vakuumda ishlov berishdir. Termik ishlovni samaradorligi, albatta, temperaturaning ortishi bilan yaxshi bo’ladi, biroq kirishmalarning diffuziyasi va materialning erib ketishi bilan chegaralangan.

Issiqlik ishlovi jarayonida, ya’ni temperaturaning 600-800^0 C da, qachonki, tuyingan qattiq eritmaning bo‘linish kompensatsiya hodisasi natijasida kislorod komplekslarining dissotsiatsiyasi oddiy holga utib boradi. Bunda kislorod tetraedrining elektr xususiyatlari yana ham o‘zni namoyon qiladi. Yuqori harorat ishlov berishda markazlarning hosil bo‘lishi kristallning hajmi va sirtida bo‘layotgan jarayonlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq ekan. Yuqori haroratli ishlov berish jarayonida uzoq vaqtli qizdirishda sirtning roli ochilib, sirtning nisbiy roli hajm maydon munasabati hisobiga ortdi, undan tashqari yana diffuziya koeffitsienti oshishi, masalan: dislokatsiya zichligining oshishi hisobiga 800-1250^0 C da yuqori haroratli ishlov berishda yashash vaqtini o‘zgarishi sodir bo‘ladi, bu o‘z navbatida kristall hajmida sodir bo‘lishi jarayoni bilangina bog‘liq bo‘lmay, balki sirtdagi kirindilarni diffuziyasi bilan ham bog‘liqdir. Maxsus choralar ko‘rilmasa, asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning kamaytirilishi kirindilarni diffuziyasi asosiy rolni o‘ynashi mumkin. Qator ishlarda asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning 2-3 mk.sek gacha kamayishi mumkinligi ko‘rsatilgan. 1200 ^{0} C da asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning kamayishi katta tezlikda sovutilganda maksimal bo‘ladi, qizdirishga olib kelishi natijasida rekombinatsion markazlar konsentratsiyasining kamayishiga olib keladi, sekin sovutilganda hosil bo‘lgan rekombinitsiya maxsus energetik holat energiya intervaliga Ev+(0,1 ÷ 0,02) eV mos tushar ekan.

Adabiyotlar

1. Yarimo’tkazgichlar fizikasi lug’ati. Nazirov N., Teshaboyev A., Toshkent -2008.
2. Yarimo’tkazgichlar va yarimo’tkazgichli asboblar texnologiyasi. Teshaboyev A. , Zaynobidinov S., Musayev E. Toshkent – 2006.
3. Yarimo’tkazgichlarda atomlar diffuziyasi. Zaynobiddinov S. , Yo’lchiyev Sh. , Nazirov M. Toshkent.
4. Akramov H., Zaynabiddinov C., Teshaboyev A. Yarim o’tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. O'quv qo'llanma. -T.: O’zbekiston, 1994. – 134 b.

METALLOKSIDLI QUYOSH ELEMENTLARI

M.B.Rasulova
Andijon mashinasozlik institute

Jamiyat qayta tiklanadigan energiya kelajagiga qarab rivojlanar ekan, quyosh elementlari yorug'likni iloji boricha samarali ravishda elektr energiyasiga aylantirishi juda muhimdir. Fotovoltaikalar bugungi kunda ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirish tezligini yaxshilash, quyosh batareyalari samaradorligini oshirish ya’ni, arzon, ekologik toza va yer yuzida ko'p miqdorda fotoaktiv materiallardan foydalanadigan, tegishli yarimo'tkazgichli tuzilishga ega bo'lgan muqobil variantlarni topish dolzarbdir.

Ko’plab metallooksidlar orasida quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish, ko’p qatlamli geterotuzilmalar tayyorlash uchun mos keladigani materiallar bor. Metall oksidi (M_nO_x) asosidagi quyosh elementlari an'anaviy quyosh batareyalarida yuzaga keladigan ba'zi muammolarni hal qilish potentsialiga ega. Ularning xossalarining ajoyib ko'p qirraliligi va oddiy, arzon va oson ishlab chiqarish usullari bilan ishlab chiqarilishi mumkin. M_nO_x odatda quyosh batareyalarida shaffof o'tkazuvchan elektrodlar ,elektron (TiO_2, SnO_2, ZnO, Fe O3 va boshqalar) kabi funktsional qatlamlar sifatida ishlatiladi. Asosiy (qo'shilgan va qo'shilmagan) yarimo'tkazgich oksidlari Organik va perovskit quyosh elementlari kabi zamonaviy fotoelementlarining uzoq yillar barqarorligini ta'minlashini ko'rsatdi, bu elementlarni sanoatlashtirish va tijoratlashtirish yo'lidagi muhim qadamdir[1]. Quyosh elementlarining turli tuzilmalari va kombinatsiyalarini o'rganish uchun har xil metalloksidli yarimo'tkazgichlar qo'llaniladi. 1-jadvalda ba'zi bir tabiatda keng tarqalgan yarimo'tkazgichli metalloksidlarning ayrim xususiyatlari ko’rsatilgan.

Yarimo’tkazgichli metalloksidlarning ayrim xossalari

1-jadval

№	Yarimo’tkazgichli materiallar	Taqiqlangan soha kengligi(E_g, eV)	Elektronga yaqinligi(Xe,eV)	E_g+Xe
1	ZnO	3.37	4.2~4.6	7.6~8
2	TiO2.	3.0~3.3	3.9~4.1 6	9~7.4
3	ITO	3.6~4.06	>4.7	(8.3~8.76
4	CuO	1.21~1.51	4.07	5.28~5.58
5	Cu2O	2.10	3.20	5.30
6	Fe2O3	2.0~2.1	3.88	5.88~5.98

Ular fotovoltaika uchun potentsial yarimo'tkazgichlar guruhi sifatida taklif etiladi[2]. Biroq, turli xil metalloksid(MO) materiallarning muammolari tufayli, quyosh batareyalari hali ham amalda qo'llanilmaydi. Birinchidan, MO yarimo'tkazgichlarida har doim juda ko'p nuqsonlar mavjud bo'lib, ularni hozirda samarali tarzda kamaytirish mumkin emas. Ikkinchidan, uchun ko'pgina MO yarimo'tkazgichlarda u n-tipi va p-tipining boshqariladigan o'tkazuvchanligini ta'minlay olmaydi, lekin oddiygina zaif tabiiy n-tipli yoki p-tipli o'tkazuvchanlik samarali rekombinatsiya markazlari vazifasini bajaradigan kislorod/metall bo'shliqlari/interstitslari tomonidan kiritiladi. Shuning uchun ularni getero tuzilmalardan foydalanish kerak. Bundan tashqari, panjara mos kelmasligi natijasida kelib chiqadigan getero-tuzilma interfeysi holatlari ham MO quyosh batareyasining ish faoliyatini yomonlashtiradigan samarali rekombinatsiya markazlari mavjud. Ideal holatlarda TiO_2/CuO

getero-tuzilmali quyosh elementsi CuO plyonkasi qalinligi atigi 1,5 mkm bo'lgan ~ 16% konversiya samaradorligini ko'rsatishi aniqlandi[3]. Ushbu qurilmaning orqa tomoniga Cu_2O kabi orqa yuza maydon qatlami qo'shilsa, qisqa tutashuv oqimini yo'qotmasdan ochiq tutashuv kuchlanishini 70% ga yaxshilash mumkin, buning natijasida ~28% konversiya samaradorligi, ikki qatlamli tuzilishga nisbatan 70% ga oshadi. Bu plyonka qalinligi 200–400 mkm bo'lgan bir tutashgan kremniy quyosh batareyasining nazariy maksimal samaradorligiga yaqin. Modellashtirish ham muqobil yarimo'tkazgichli Schottky to'siqli quyosh elementlari yaxshi ishlashi mumkinligini ko'rsatadi. Ideal metall/CuO Schottky to'siqli quyosh elementsi uchun konversiya samaradorligi ~ 17% ga yetadi. Bundan tashqari nuqsonlar va interfeys holatlarining ta'siri hisobga olinadi, chunki metalloksidda ko'p nuqsonlar mavjud, asosan plyonkalarda kislorod/metall bo'sh joylar/ interstitsiallarda Quyosh elementi qatlamlaridagi barcha nuqsonlar va interfeys holatlari, getero-birikma interfeyslari va metall/yarim o'tkazgich birikmalari elemntlar uchun zararli[4]. Misol uchun, agar TiO_2/CuO strukturasidagi CuO qatlamidagi nuqsonlar konsentratsiyasi $1x10^{16}$ sm^{-3} akseptor konsentratsiyasiga mos kelsa, hujayra samaradorligi keskin 7% ga tushadi. $1x10^{13}$ sm^{-3} kabi past nuqsonli konsentratsiyada ham TiO_2 / CuO/Cu_2O qotishmalarida uchuvchi organik birikmalar tarkibining sezilarli yaxshilanishi ahamiyatsiz bo'ladi. Interfeys holatlariga kelsak, ular getero-birikma interfeysi orqali o'tuvchi elektronlar va atomlarni ushlab turadi va rekombinatsiya qiladi, natijada unumdorlik pasayadi Biroq, p-n o'tish joylarida legirlash kontsentratsiyasining farqi ortishi bilan interfeys holatining ta'siri sezilarli darajada kamayishi aniqlandi. *Amaliyotda metalloksidlar asosidagi quyosh elementlarini qo’llash kremniyga nisbatan olish texnologiyasi arzon(zol-gel usulida) hamda moslashuvchandir. Ushbu tadqiqotlar natijasida qurilma quvvati oshiriladi va ishlab chiqarish narxi keskin pasayadi.* Shu sababli, yuqorida keltirilgan misollar quyosh batareyasi qurilmalari uchun yanada samarali tor diapazonli, toksik bo'lmagan va arzonroq materiallarni topish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi. Demak biz asosan tannarxi arzon va keng tarqalgan moddalardan tarkib topgan quyosh elementlarini loyihalashimiz kerak.

Adabiyotlar

1. Академик АН РУз С.З. Зайнабидинов, Ш.Х. Йўлчиев, Х.Ж. Мансуров. Марфологические и фотоэлектрические свойства *n*-ZnO/*p*-Si гетероструктуры. Альтернативная энергетика и экология. - 2020. - V. 25-27. С. 131-137.

2. Х. Йўлчиев и др. Исползование пиролитических металлооксиднқх пленок для изготовления фотоэлектрических преобразователей энергии. Вестник Воронежского государственного технического университета. 2019.т. 15, № 5, С. 72-77.

3. Naveen K. E., Chellappan V.,” Metal oxide semiconducting interfacial layers for photovoltaic and photocatalytic applications Mater Renew Sustain Energy (2015)178-190p

4. Le Zhu” Development of metal oxide solar cells through numerical modelling” Institute for Renewable Energy and Environment Technologies, University of Bolton 2012. 18-22 pp

MONO VA POLIKRISTALLI KREMNIYNI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGI

B.Karimjonova
Andijon davlat universiteti

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining dolzarb sur’atda o’sib borishi natijasida ularning asosi bo’lgan kremniyni ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jumladan, mono va polikristalli kremniy asosidagi quyosh panelleri ishlab chiqarish samaradorligi ustidagi olib borilayotgan ishlar tobora rivojlanmoqda hamda bunga bo’lgan talab ham ortib bormoqda. Bunga ko’ra, kremniyni ishlab chiqarish eng asosiy vazifa bo’lib kelmoqda. Kremniyning kristalli kremniy, monokristalli kremniy, polikristalli kremniy, amorf kremniy, nanokristalli kremniy, protokristalli kremniy kabi ishlab chiqarish turlari mavjud bo’lib, ulardan hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mono va polikristalli kremniy haqida to’xtalib o’tamiz.

Quyosh elementlarini ishlab chiqarishda polikristalli kremniydan foydalanish kamroq material talab qiladi va shuning uchun yuqori foyda va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. 2011-yil iyul oyida 2010-yilda polisilikon ishlab chiqarishning umumiy hajmi 209.000 tonnani tashkil etdi. 2013-yilda mamlakatlar bo'yicha polikristalli kremniy ishlab chiqarish 227.000 tonnani tashkil qilgan. Birinchi darajali yetkazib beruvchilar bozorning 64 foizini, Xitoyda joylashgan polisilikon firmalari esa bozor ulushining 30 foizini tashkil qiladi. Umumiy ishlab chiqarish 2011-yil oxiriga kelib 281.000 tonnagacha 37.4 foizga oshishi mumkin. 2012- yil uchun Eetimes Asia 328.000 tonna ishlab chiqarmoqda, atigi 196.000 tonna talab 56 foizga tushishi kutilmoqda. Dunyo bo’yicha ishlab chiqarishda Xitoy (36,1%), AQSh (25,9%) , Janubiy Koreya (11,4%), Germaniya (21,6%), Yaponiya (4,9%)ni tashkil etmoqda.

Xitoy dunyodagi eng yirik kremniy ishlab chiqaruvchisi bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 2022- yilda olti million metrik tonnaga baholangan. Ushbu metalloidning dunyodagi ikkinchi yirik ishlab chiqaruvchisi o'sha yili 640 000 metrik tonna ishlab chiqargan Rossiya edi. 2022 - yilda kremniyning umumiy global ishlab chiqarilishi taxminan 8,8 million tonnani tashkil etdi.

Fotovoltaik texnologiyasining ikkinchi eng keng tarqalgan shakli bo'lgan monokristalli kremniy faqat singlisi polikristalli kremniydan orqada. Poli-kremniyning ishlab chiqarish darajasi ancha yuqori bo'lganligi va narxining barqaror pasayishi tufayli mono-Si ning bozor ulushi kamayib bormoqda: 2013 -yilda monokristalli quyosh elementlari bozor ulushi 36% ni tashkil etdi, bu esa 12,6 GVt fotovoltaik quvvat ishlab chiqarishga aylandi, ammo bozor ulushi 25% tushib ketgan. Bozor ulushining pasayishiga qaramay, 2016 -yilda ishlab chiqarilgan ekvivalent monokristalli kremniy Fotovoltaik quvvati 20,2 GVtni tashkil etdi, bu fotovoltaik texnologiyalarning umumiy ishlab chiqarishida sezilarli o'sishni ko'rsatdi.

Laboratoriya samaradorligi bilan aniqlanganda monokristalli kremniy 26,7% oldinda polkristalli kremniyi (22,3%) va bunday CIGS elementlari (21,7%), CdTe elementlari (21,0%), bor va amorf kremniy elementlari (10,2%) yupqa qatlamli texnologiyalar,barcha tijorat texnologiyalarida eng yuqori samaradorlik tasdiqlangan. Monokristalli kremniy uchun quyosh modulining samaradorligi—bu har doim mos keladigan elementlarnikidan past-nihoyat 2012 –yilda 20 % belgisini kesib o'tdi va 2016 yilda 24,4 % ni tashkil etdi. Yuqori samaradorlik asosan bitta kristallda rekombinatsiya joylarining yetishmasligi va poli-kremniyning xarakterli ko'k rangiga nisbatan qora rang tufayli fotonlarning yaxshi singishi bilan bog'liq. Ular polikristalli kremniyga qaraganda

qimmatroq bo'lganligi sababli, monokristalli kremniy elementlari asosiy fikrlar og'irlik yoki mavjud maydon cheklovlari bo'lgan ilovalar uchun foydalidir.



Rasm 1. 2021 yildagi fotovoltaik elementlarning taqsimlanishi.

Ishlab chiqarishning past darajasidan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida isrof qilingan materiallar bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Kosmik tejamkor quyosh panellarini yaratish uchun dumaloq gofretlarni bir-biriga yaqin joylashishi mumkin bo'lgan sakkiz burchakli elementlarga kesish kerak. Qolgan material Fotovoltaik elementlarini yaratish uchun ishlatilmaydi va eritish uchun ingot ishlab chiqarishga qaytish orqali tashlanadi yoki qayta ishlanadi. Bundan tashqari, monokristalli kremniy elementlari 20 yil ichida fotonlarning aksariyatini o'zlashtira oladilar. katta arralash jarayonidagi cheklovlar tijorat gofret qalinligi odatda 200 atrofida bo'lishini anglatadi. Biroq, texnologiya yutuqlari gofret qalinligini 2026yilga kelib 140 km gacha kamaytirishi kutilmoqda.

Qayta ishlatiladigan kremniy substratlarda gazsimon qatlamlarni o'stirishni o'z ichiga olgan to'g'ridan-to'g'ri gofret epitaksial o'sishi kabi boshqa ishlab chiqarish usullari tadqiq qilinmoqda. Yangi jarayonlar kvadrat kristallarning o'sishiga imkon berishi mumkin, ular keyinchalik sifat va samaradorlikni buzmasdan ingichka gofretlarga qayta ishlanishi mumkin va shu bilan an'anaviy quyma arralash va kesish usullaridan chiqindilarni yo'q qiladi.

Adabiyotlar

1. M.K. Baxodirxonov, N.F. Zikrilayev, X.M. Iliyev, “ Yarimo’tkazgichlar fizikasi” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent 2020
2. Hatto-Zohar (2007). Menikidan xo'jayinga: xalqaro olmos sanoatida korporativ strategiyalar va hukumat siyosati (2-nashr). Mining Journal Press.
3. Berdnikov V. S., Panchenko V. I. Choxralskiy usulining laboratoriya modelidagi aralash konveksiyaning ba'zi xususiyatlari / / moddalar va materiallarning kristallanish Termofizikasi: Sat. ilmiy. tr. Novosibirsk. — 1987. - 5-15 betlar.
4. Berdnikov V. S. va boshq. kristallarni tortib olish usuli bilan o'stirishda eritmaning gidrodinamikasini modellashtirish / / kristallanish va qotish paytida termofizik jarayonlar. — 1984. - 66-83 betlar.

5. Polejaev V. I., Prostmolotov A. I. Choxralskiy usuli bilan kristallarni o'stirishda gidrodinamika va issiqlik-massa uzatish jarayonlarini o'rganish / / Izv. SSSR FANLAR AKADEMIYASI. Mfg. — 1981. — №. 1. - 55-65 betlar.
6. Petrusevich I. V. dissertatsiya referati, Moskva 1965 yil Yuqori toza polikristalli kremniy metallurgiyasi. Lapidus I. I., Kogan B. A. Perepelkin va boshqalar; M: metallurgiya 1971; 143s

MUNDARIJA

1	Yarimo‘tkazgich asosidagi sezgir fotoelementlarda TiO_2 qalamli ishchi elektrodni tavsiflariga tashqi omillarning ahamiyati.	N.Y.Sharibayev, A.Q.Ergashov	4
2	Yarimo’tkazgichli gasb nanokristallari bilan n- va p-tipli geterostrukturalarning termoelektrik xususiyatlari.	O.O.Mamatkarimov, B.X.Quchqarov, H.O.Qo’chqarov, S.B.Fazliddinov, A.A.Botirjonov	7
3	Quyosh suv isitgichini andijon sharoitida o’rnatish va tahlili	A.J.Eraliyev, M.Z.Nosirov	11
4	O‘stirish usuli bilan legirlangan kremniyning parametrlarini o‘rganish	X.S.Daliyev, D.N.G’ofurova	14
5	Elektr stansiyalari va ularning ahamiyati	D.I.Kamalova, S.Q.Bekniyozov, O.D.O’rinova	16
6	$p-por-Si/p-Si$ strukturalar kontakt sohasidagi differensial qarshilikni haroratga bog’liqligi	U.S.Boboho’jayev, M.A.Usmanov, I.Sh.Voxobjonov, Z.Z.Salimjonova	18
7	Image processing toolbox paketida tasvirlarga raqamli ishlov berishning dasturiy vositalari tahlili	N.A.Qarshiboyev	21
8	Vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi parragining qo‘zg‘atish uchun kerakli tezlikni aniqlash.	M.E.Yo’lchiyev, X.T.Kamilov, N.M.Abdullayev, N.M.Abdullayev, A.B.Raxmonov	24
9	$Cspbi_2br$ perovskit faol qatlamlarini oson va past haroratlarda tayyorlash	I.R.Boynazarov, A.X.Tursunova, A.A.Saparbayev	28
10	Yarimo`tkazgich termoelektr energiya o`zgartirgichlar ning issiqlik va elektrofizik tavsifnomalarini tekshirish	M.B.Nabiyev, M.Omonova	30
11	Termoelektrik generatorlar modulidan foydalanish	X.A.Mo’minov, A.J.Iskandarov, M.SH.Mamadaliyev	33
12	Organik quyosh elementlarini yutilish spektrlarini o’rganish (p3htva pcbm asosli).	B.K.Sobirova, I.I.Tojiboyev	35
13	Kremniyga asoslangan boshqariladigan foto sezuvchan spektorli fotodetektorlar.	A.A.Abdullayev, Q.A.Yo’ldashev	37
14	Planar fotoqarshiliklar	Abdulaziz	38
15	Tarkibida scn bo’lgan li polimer batareyalarining ishlash kuchlanish	O.O.Mamatkarimov, A.A.Abdukarimov, B.I.O’ktamaliyev	44
16	Quyosh elementlari asosidagi shaffof materiallar	M.R. Xamroboyev	46
17	Quyosh energiyasi “yashil energiya” manbasi – davr talabi	R.A.Ametov	48
18	Turli usulda “spin coating” qilingan polimer faol qatlamlarning optik xossalari	F.M.Ro’ziyev, A.Y.Turg’unboyev, B.G‘.Xidirov , I.R.Boynazarov, A.A.Saparbaev	51
19	To‘lqin o‘tkazuvchan kvant o‘rali yarimo‘tkazgichli lazerlarning eksperimental tadqiqotlari	D.F.Sayfilloyev, F.M.Ro’ziyev, A.U.Soatillayev	54
20	Развитие солнечных элементов	А.К.Тургунов	57
21	Statsionar bo’lmagan inshootlarda issiqlik rejimida ichki va tashqi iqlimning ta’sirini modellashtirish.	Sh.U.Eshonqulov, A.L.Ne’matov	60
22	Современное состояние и перспективы развития полупроводниковой фотовольтаики	Р.Алиев	63

23	Kremniyli quyosh panellerining rivojlanish istiqbollari	S.I.Jiyanova, X.X.To’raev, X.E.Eshmurodov	66
24	Eruvchanlik va germaniy taglikda $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ qattiq eritmalarni olish texnalogiyasini o’rganish	Q.A. Yo’ldashev, A.A. Abdullayev	69
25	O’zaro har xil nisbatli donor-akseptor ega faol qatlamlarning yutilish hamda fotolyuminessensiya spektrlari	Saparbaev A.A. Turg’unboyev A.Y. Ro’ziyev F.M. Quvondikov V.O.	71
26	$CSPBI_2BR$ faol qatlamga ega samarali perovskit quyosh elementlarni past haroratlarda yasash	A.X.Tursunova, A.A.Saparbayev	74
27	Eksperimental qurilmalar va tadqiqot usullari yordamida polarizatsiyalangan fotoluminesansni o'lchash.	B.X.Qo’chqarov, A.I.Xolmatov, M.A.Ergashev	76
28	Yarim o‘tkazgichli quyosh elementlarning istiqbollari	S.E.Karimova	78
29	Yarimo’tkazgich materiallarning sintezi, tuzilishi va elektrofizik xususiyatlari qo’rg’oshin selen asosidagi.	O.O.Mamatkarimov, B.X.Quchqarov, A.B.Nabiyev, A.A.Yusufjonov	81
30	Quyosh qurilmalarida quyosh energiyasi hisobiga yuz berayotgan fizik protsesslarni nazariy o‘rganish.	M.B.Nabiyev, B.Akramov	85
31	Quyosh energiyasi – istiqbolli energiya manbai	I.R.Kamolov, A.R.Sattorov, M.Abduvaliyeva	88
32	O’zbekistonda shamol energiyasidan samarali foydalanish	I.X. Izzatullayev	91
33	Морфология поверхности кремния, легированного никелем с помощью диффузионной технологии	А.Б.Камалов, Д.Ж.Асанов, М.М.Жоллыбаева	93
34	Состояние атомов легирующих элементов в решетке кремния	Р.М. Жалалов, К.М. Файзуллаев, А.М. Саматов	96
35	Kremniyda kirishma atomlarning diffuziyasi va eruvchanligi	R.M. Jalalov, K.M. Fayzullayev, A.M. Samatov	99
36	Elektr energiyasi hosil qilishda fotoelementlarning tutgan o‘rni	I.R.Kamolov, S.T.Barakaeva, M.Abduvalieva	101
37	Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining quyosh tarmog'i fotoelektr stantsiyasining samaradorligini hisoblash	Sh.B.Utamuradova, I.M.Komolov, V.P.Kononerov, E.D.Muxamediyev, K.A.Djumamuratov, S.A. Daminov	103
38	Различные критерии эксперимента в преподавании физики	Л.А.Рахимова,	106
39	Уменьшение утечки свинца в эффективных и стабильных солнечных элементов на основе перевернутого перовскита с уменьшением утечки свинца	И.И.Тажибаев, А.А.Сапарбаев, М.Х.Имомов, Ф.М.Рузиев, И.Р.Бойназаров	109
40	Влияние примесных атомов на электрофизические свойства кремния, легированного никелем и медью	Э.Х.Беркинов, Р.М.Турманова, Н.А.Тургунов, Н.Б.Хайтимметов	111
41	Принцип работы ГЭС	Ш.У.Эшонкулов	114
42	Kompozit fermionlar	B.D.Mamadaliyev	117
43	Andijon iqlim sharoitida o’rnatilgan mono- va polikristall kremniy asosli quyosh panellariga qor	J.I.Qahhorov, N.A.Mirzaalimov,	119

	ta’sirini taxlil qilish	B.D.Rashidov, S.Baktrova	
44	Водоподъёмный гидронасос на основе зеленной энергии	Б.Х.Каримов, Д.К.Юлдашалиев	122
45	Comsol multiphysics dasturi yordamida quyosh panellarini modellashtirish	M.Abdumannopova, A.Mirzaalimov, S.Temirov, N.Mirzaalimov	124
46	Muqobil energiya manbaalaridan foydalanishning afzalliklari.	M.F.Raxmatullaeva, K.X.Nazirov, I.I.Absalyamova, M.A.Axmadov	127
47	Солнечные элементы с голографическим концентратором	Н.А.Ахмедова, А.С.Ганиев	129
48	Polimer elektrolitlarning turlari	O.O.Mamatkarimov, A.A.Abdukarimov, B.I.O’ktamaliyev	131
49	A new type of alternative energy source: study of bifacial solar cells	M.E.Abdumannopova	133
50	Yuqori sezgir bo‘yoqli quyosh elementlari (dssc) va ularni tayyorlash texnologiyasi	A.A.Abdukarimov, A.A.Yoqubbaev	136
51	Atmosfera qatlamalarida kuzatiladigan turli optik hodialar.	M.M.Sobirov, D.Sh.Tursunboyeva	138
52	Yuqori samaradorlikdagi fotoqabulqilgichlarni geterostrukturalar asosida yaratishning ba`zi xususiyatlari	A.Baxtiyorov	141
53	Pbdb-t polimeri bilan yuqori samaradorli va barqaror perovskit quyosh elementlari	Boynazarov I.R., Xidirov B.G’., Turg’unboyev A.Y., Saparbayev A.A.	143
54	Recombination processes in the Si/CdTe diodes	I.B.Sapaev, S.O.Sadullaev, M.R.Kurbanova	146
55	Structural and optical properties of sb_2se_3 thin films of various compositions produced from separate sb and se sources at a substrate temperature of 450^o	K.Kouchkarov, R.Khurramov, D.Isakov, M.Mahmudov, A.Olimov, M.Pirimmetov	149
56	Ko‘p qatlamli quyosh elementi tarkibidagi materiallarning modelini “lammps” dasturi yordamida o‘rganish.	O.Ahmedova	152
57	Quyosh elementini tashkil qiluvchi materiallarni 2d ko‘rinishida tahlil qilish	M.Komilov, J.Ziyoitdinov, M.Abdumannopova	155
58	Kremniyli quyosh elementlari asosidagi egiluvchan quyosh panellarinining afzalliklari	D.A.Xonbutayeva , J.I.Qahhorov , R.B.Rahmatullayev	158
59	Legirlangan kremniyga termik ishlov berish.	Sh.X.Daliyev, M.N.Abduraxmonova	160
60	Metalloksidli quyosh elementlari	M.B.Rasulova	162
61	Mono va polikristalli kremniyni ishlab chiqarish samaradorlig	B.Karimjonova	164